

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI

MADANIY TADBIRLARNI BADIY BEZASH FANIDAN

O'QUV QO'LLANMA

Xizmat sohalari:

5610400-Ijtimoiy madaniya faoliyat

5151700-Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish



Toshkent-2018

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

B.Yuldashev

«MADANIY TADBIRLARNI BADIY BEZASH»

5610400-Ijtimoiy madaniy faoliyat

**5151700-Madaniyat va san’at muassasalarini tashkil etish va
boshqarish ta’lim yo‘nalishlari uchun**

(O‘QUV QO‘LLANMA)

TOSHKENT-2018

Tavsiya etilayotgan ushbu o'quv qo'llanma madaniy tadbirlarni tashkil etishdagi eng muhim jihatlaridan biri bo'lmish madaniy tadbirlarni badiiy bezatish jarayonlari va haqida so'z boradi. Unda badiiy bezash ishlarini tashkil etish va amalga oshirish, badiiy bezak ishlarida dekorativ o'simliklar, gullar va matolardan foydalanish, bayram bezaklari va spektakl sahnalarida badiiy tasvir prinsiplari, ko'chalarni bezatishda ko'rgazmalar va reklama bannerlarning o'rni, madaniy tadbirlarini bezatish ishlarida zamonaviy texnik vositalardan foydalanish, ommaviy bayramlarni badiiy bezatishrangli chiroqlardan foydalanish, badiiy bezashda ishlatiladigan materiallar,

Madaniy tadbirlarni badiiy bezash ishlarini amalga oshirish kabi badiiy bezash sohasiga tegishli mavzular berilgan..

Учебное пособие «Художественные оформление культурные мероприятия» наряду с предоставлением информации о возможностях правильного использования широкого спектра современных оформленских средств в процессе организации и проведения различных культурных мероприятий также освещает устройство и принципы работы современных оформительских приспособлений, способствует лучшему пониманию произведений искусства, воспитывает чувство уважения к труду, а также помогает развить трудовые навыки.

Таким образом, можно сказать, что учебное пособие «Художественные оформление культурные мероприятия» предназначено для освещения научно-теоретических и научно-методических вопросов использования новых оформительских средств в учреждениях культуры и искусства.

Учебное пособие предназначено для студентов всех направлений образования бакалавриата института.

The textbook "Artistic design of cultural events", along with providing information on the possibilities of correct use of a wide range of modern designs and the rarities in the process of organizing and conducting various cultural events also illuminates the structure and principles of modern design devices, contributes to a better understanding of works of art, fosters a sense of respect for work, and helps to develop skills.

Thus, we can say that the textbook "artistic design of cultural events" is intended to cover scientific, theoretical and scientific and methodological issues of the use of new design tools in institutions of culture and art.

The textbook is intended for students of all areas of education undergraduate Institute.

KIRISH

Bugungi kunda madaniy tadbirlarni badiiy bezash madaniyat va san'at sohasida, madaniy-ma'rifiy faoliyatda keng qo'llanilishini talab qiladi. Oliy ta'lim Davlat standartiga ko'ra "Xizmat ko'rsatish" va "San'at" ta'lim sohalari bo'yicha madaniy tadbirlarni badiiy bezash bir nechta o'zaro bog'liq bo'lgan va madaniy-ma'rifiy faoliyatda tadbir etiladigan bo'limlardan iborat. Madaniy tadbirlarni badiiy bezash fani madaniy tadbirlarni tashkil etish, badiiy bezak ishlarida dekorativ o'simliklar, gullar va matolardan foydalanish, bayram bezaklari va spektakl sahnalarida badiiy tasvir prinsiplari, sahna bezagi, dekoratsiya, bayram va teatr niqoblari-maskalar, Madaniy tadbirlarni bezatish ishlarida zamonaviy texnik vositalarning o'ziga xos xususiyatlari, kuchalarni bezatishda ko'rgazmalar va reklama bannerlardan foydalanish. (landshaft bezagi, bayram reklamalarini va ko'rgazmalarni tashkil etish, rangli chiroqlar) Ommaviy tomosha maydonlarida sport, ko'ngil ochar tadbir va bayram, sayillarda badiiy bezash ishlarini amalga oshirish, bezatish jarayonida ishlatiladigan materiallardan foydalanish kabi bo'limlaridan tashkil topgan. Aynan shu bo'limlar va ularning madaniy-ma'rifiy faoliyatda tadbir qilish tavsiya etilayotgan o'quv dasturiga kiritilgan.

Qisqa davr ichida mamlakatimizda davlat va jamiyat qurilishining mutlaqo yangi siyosiy asoslari yaratilishi bilan birgalikda ijtimoiy- iqtisodiy va ma'naviy sohalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari belgilab berildi.

Ana shunday uyg'onish davrida O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov mustaqillik bilan bog'liq barcha ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy masalalar qatorida inson, ayniqsa yosh avlod ma'naviyati, erkin, ozod shaxs mahrifatiga, madaniyat va san'atning rivojiga alohida e'tibor berdi.

Zotan, ma'naviy madaniyatsiz va san'atsiz milliy qadriyatlarni yanada yuqori bosqichga ko'tarmasdan turib, yangi jamiyatni, yangi ijtimoiy-tarixiy munosabatlarni va yangi dunyoqarashni barpo etish mumkin emasligi ayon bo'ldi.

«Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq, - deb yozadi Prezident I.A.Karimov, - ajdodlarimiz tomonidan ko‘p asrlar mobaynida yaratib kelingan g‘oyat ulkan, bebaho ma‘naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo‘lib qoldi. O‘zlikni anglashning o‘shidan, xalqning ma‘naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishidan iborat uzviy, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz»¹.

O‘zbekistonda yangi ma‘naviy yo‘nalishlarning shakllanishi o‘z navbatida san‘atning barcha sohalariga samarali ta‘sir etib, ijodiy izlanishlar doirasini kengaytirib, badiiy tafakkur rivojini jadallashtirmoqda.

Tarixiy, madaniy va ma‘naviy-axloqiy qadriyatlarning keng qatlamlarini qayta idrok etish san‘atning barcha sohalarida bo‘lganidek, tasviriy san‘at va badiiy bezak san‘atda ham yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Milliy tafakkurdagi tub yangilanishlar ma‘naviyatimizning asosiy o‘zagi bo‘lishi va uni ijtimoiy ongning bugungi darajasiga muvofiq yangi talablar asosida baholash zaruriyatini taqozo etmoqda.

¹ Mamlakatimizning madaniy va ma‘rifiy muassasalarida, ommaviy dam olish joylarida, kulub va teatrlarda, istirohat bog‘lar va parklarda, madaniyat va aholining dam olish markazlarida, o‘qitish va o‘qish muassasalarida, kungil ochar joylarda, odamlar gavjum bo‘ladigan ko‘chalarimizda va o‘quv dargohlarida, korxonalar, tashkilotlarda ko‘rgazmali tashviqot va targ‘ibot vositalaridan foydalanishda hamda badiiy bezatish ishlaridan foydalanishga juda kata etibor berish vaqti allaqachon yetib keldi.

Hozirgi kunga kelib madaniy va ma‘rifiy muassasalarda madaniy tadbirlarni tashkil etishda bayram shuxini targ‘ibot va tashviqot qilishda ko‘rgazmali bezak vositalardan foydalanishni yaxshi yo‘lga qo‘yish bizning madaniyatimizni, qadriyatlarimizni va madaniy ma‘rifiy boyliklarimizni, urf-odatlarimizni,

¹ Karimov I.A. O‘zbekiston 21 asr bo‘lag‘asida: xavfsizlikka tahdid barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: «O‘zbekiston». 1997. 137 - bet

ma'rosimlarimizni dunyoga tanitishda ayniqsa o'sib kelayotgan yoshlarga yetqazishda katta ahamiyatga ega.

Ko'pdan ma'lumki, badiiy bezatish ishlarining o'ziga yarasha san'atning ko'p turlari bilan omuxta bo'lib ketadi va shuning uchun insonlarni mehnatga, ishga ijodiy munosabatda bo'lishdek vazifani bajaradi, ularni ma'naviy tomondan boyitadi.

Bayramona badiiy bezak, san'at va madaniyat sohasidagi hozirgi zamon hayotining turli xil sohalarini, har xil voqealarni tematik jihatdan butunlay qamrab olishi kerak.

Bu badiiy bezak ishi bayram tadbirlari bilan bir qatorda davlatning tashqi va ichki siyosatini, xalqning mehnatdagi yutuqlarini, mamlakatning tarixiy o'tmishini, ilmiy, badiiy hayotidagi yangiliklarni, tabiatni va boshqalarni ifodalash bilan bir qatorda insonlar uchun eng zarur bo'lgan madaniy ma'rifiy tadbirlarda uzuning turli xil qirralari bilan inson uchun xizmat qilishi kerakligi bilan ajralib turadi.

Bunga misol tariqasida biz hozirgi kunda eng dozarb va o'ta xavli bo'lib dunyoni larzaga solayotgan insonlar xayotiga xaf solayotgan va hozirgi kunda xam o'zining g'arazli targ'ibot ishlarni amalga oshirishdan bosh tortmayotgan 21- asr balosi bo'lib mudxish nom olgan terorizmga qarshi butun dunyo xalqlarining kurashini badiiy bezakning turi bo'lmish ko'rgazmali plakatlar, reklama, bannerlar va siysiy shiorlarisiz tasavvur qilish mumkin emas yoki insonlarni ayniqsa yoshlarimizning xayotlariga chang solayotgan Vitchi (Spid) nomini tak tomiri bilan sug'irib tashlash undan extiyot bo'lish kerak, ogox bo'lish kerakdek vazifalarni amalga oshirishda ham targ'ibot va tashviquot vositalari ya'ni reklama bannerlari, ko'rgazmali plakatlar va rasmlarning roli kattadir.

Hozirgi kunda paydo bo'lgan judayam jiddiy etibor berish kerak bo'layotgan odam savdosi yoki har xil kasalliklarning oldini olishdek vazifani bajariyotgan turli xil plakatlarning ahamiyati nachog' kattaligini bilmog'imiz kerak deb o'ylaymiz.

Biz yoshlar dunyoni taniyapmiz, bizni esa dunyo tanimoqda shunday ekan o‘qish va mehnat qilishdek yuksak vazifalarni bajarishda olg‘a borishimiz kerak.

Mamlakatimiz tomonidan shaharlarimizda, tuman markazlarida, chekka-chekka qishloqlarimizda, biz yoshlarning bilim olishlari va ishlashlari uchun hech bir xorijiy mamlakatlardan orqada qolmaydigan, barcha qulaylik va sharoitlarni o‘z ichiga olgan o‘quv binolari, akademik litsiy va kollejlari sport inshootlari qurib ishga tushirilmoqda.

Bu quriliyotgan o‘quv binolari, akademik litsiy va kollejlarning sport inshootlarini va bayramona dam olish joylarini, xududiy bog‘ maydonlarini did bilan bezatish ham katta ahamiyatga egadir.

Bayram va madaniy tadbirlarda yoshlarni ma’naviy tarbiyalashda borasida badiiy bezakda chiroyli qilib bezatilgan va alohida e’tibor bilan qaralishni talab qiladigan bayram bannerlar va panolar, did bilan bezatilgan va professional darajada mehnat talab qilinadigan ko‘chalar va bog‘larga, korxona yoki muassasa eshigidan kiraverishdagi bezalgan ko‘rgazmalar, millatimiz milliy qaxramonlari, ta’sirchan qilib o‘rnatilgan ajdodlarimizning yodgorliklari, mehnat va harbiy jasorat kabi mavzulardagi bannerlar, pannolar va ko‘rgazmali stendlar, binoning joylashishi tasvirlangan ma’lumotlar, turli gullar bilan bezatilgan ajoyib landshaft ko‘rinishlari va hokazolar katta yordam beradi.

Bayram kunlari bezak san’atning binoni bezatishga xizmat qiladigan asosiy yo‘nalishlari - xonalarini, sport va majlislar zallarini, yo‘laklarni bezatish, ko‘rgazmalar tashkil etish, teatr uchun dekoratsiya ishlash, dekorativ – amaliy san’at buyumlari yasash, plakatlar chizish, turli axborot vositalarini tayyorlash bayram bannerlarini o‘rnatish va hokazolardan iboratdir.

Madaniy ma’rifiy muassasalarga korxona va tashkilotlarga kiraverishda shu tashkilot yoki korxonalarga nomi berilgan shaxsning byusti yoki portreti, zamonaviy go‘zal landshaft bezaklari ko‘zga tashlanib turishi va kerak.

Bayram kunlari badiiy bezash ishlarida bayramona bannerlar, stendlar va stendli ko'rgazmalar tayyorlash eng katta o'rin tutadi

Ko'rgazmalar, bannerlarga juda ko'p va har xil axborotlar sig'ishi sababli u binoni va uning hududiy ko'rinishini bezashda eng ilg'or element hisoblanadi. Talaba yoshlarning o'zlarining tashabbuslari yordamida uyushtiriladigan mavzuli ko'rgazmalarning mavzulari ma'suliyatli va turli-tuman bo'lishi ahamiyatlidir

Badiiy bezash ishlari talaba yoshlar bilan olib boriladigan g'oyaviy-tarbiyaviy ishning eng muhim maqsadlarini amalga oshirishga, ya'ni farzandlarimizning dunyoqarash asoslarini, ijtimoiy aktivlikni, ongni, intizomni, madaniy xulq-atvorni tarkib toptirishga, xuquqiy bilimlarni, mehnatga ijtimoiy mulkka munosabatni, kasb tanlashga intilishni shakllantirishga, badiiy qobiliyatni o'stirishga xizmat qilish kerak.

Har qanday metodik vazifa singari badiiy bezash ishlari ham professional aniqlikka va ijodiy yondashishga asoslanishi kerak. Shu sohaning professional mutaxassislari badiiy izlanishini to'g'ri va konstruktiv yo'nalishga solsa, ijodiy yondashilsa, albatta niyat qilingan cho'qqiga erishish mumkin.

Prezidentimiz I.A.Karimov alohida ta'kidlaganidek, «Yurtimizda yashayotgan har bir inson, avvalo, unib – o'sib kelayotgan yangi avlodning har tomonlama barkamol, irodasi baquvvat, iymoni butun bo'lib voyaga yetishi uchun keng jamoatchilik va aholimiz o'rtasida ma'naviy – ma'rifiy faoliyatimizni yuksak darajaga ko'tarishning ahamiyati beqiyosdir»² (*Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar.- Toshkent, «O'zbekiston», 2000 3-bet*).

Barcha sohalar kabi madaniy xordiqiy tadbirlarda bezak vositalarni ishlatish ishlariga, umuman zamonaviy bezak vositalariga e'tibor katta bo'lishi bilan bir qatorda ularning yangi kashf etilgan turlariga ehtiyoj katta bo'lmoqda.

Madaniyat va san'atning inson ongi va qalbidan cho'qur iz qoldiradigan ishlarni amalga oshirishda madaniy ma'rifiy ishlarni amalga oshirishda butun

² (*Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar.- Toshkent, «O'zbekiston», 2000 3-bet*).

dunyoda tan olinayotgan yangi zamonalashgan badiiy bezak vositalari orqali madaniy tadbirlarni o'tkazishga alohida e'tibor qaratilmoqda

Mamlakatimizning madaniy hayotida faoliyat ko'rsatayotgan davlat va nodavlat yo'nalishdagi san'at muassasalari, namoyish qilinadigan madaniy –ma'rifiy tadbirlar, ommaviy tomosha sayillari va konsertlar xoh yopiq bino, xoh ochiq maydon sahnasida bo'lmasin, o'zlarining mahoratlarini, haqiqiy san'atini badiiy bezak vositalarisiz ta'savvur ham etib bo'lmaydi. Badiiy bezak vositalaridan oqilona foydalanish tadbirlarning saviyasini oshirishi bilan bir qatorda tomoshabinda kayfiyatni ko'tarish, katta hayajon va xursandchilik hadiya etishi bor gap.

San'at va madaniyat yo'nalishi, milliy estrada san'ati, tomosha san'ati, kino va televideniya, sirk bayram tadbirlaridagi bezatish ishlarida bezak ishlarining shakllari, yangicha turlari va vositalardan foydalanish, zamonaviy texnologiya yutuqlarini amaliyotga tadbiq etish masalalari ham bu sohaning naqadar muhimligini tasdiqlaydi.

Eng zamonaviy bezak vositalardan foydalanish xizmati orqali yuqori darajada madaniy- xordiqiy dam olishni tashkil etish, boshqarish bilan bir qatorda ta'limning barcha yo'nalishlarida o'sib kelayotgan barkamol yosh avlodni zamonaviy bezak vositalar, yangi axborot texnologiyalari yordamida g'oyaviy, ma'naviy – ma'rifiy va estetik tarbiyalashning muhim omillari sifatida katta ahamiyatga egadir.

Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilab olinadi:

1. Aholining bo'sh vaqtini kungildagidek o'tkazilishida madaniy tadbirlarda bezak vositalardan foydalanish imkoniyatlarini o'rganishda o'tgan davrlar ichida bezatish vositalar orqali madaniy tadbirlar tashkil etilgan va tadbirlarda qanday qo'llanilganligi;
2. Madaniy tadbirlarda qo'llaniladigan bezak vositalarining asosiy vazifasi – tadbirlarning o'tish jarayonida ta'sirchanlik, esda qolarlik va qiziqishini oshirish.

3. Turli madaniy xordiqiy tadbirlarni o'tkazishda bezak ishlarining turli shakl va turlarining yangi vositalarining qo'llanilishida bezak xavsizlikni ta'minlashda nimalarga e'tibor berish kerakligi;

4. Zamonaviy bezak vositalarining madaniy tadbirlarda bezak vositalardan foydalanishning nazariyasi, ilmiy asoslari, mazmuni, shakllari, tizimi, asosiy sohalari, madaniyat muassasalariga oid bilimlar berish;

5. Barcha madaniy tadbirlar, bayramlar va xordiqiy dam olish konsert dasturlarida zamonaviy bezak vositalardan foydalanish imkoniyatlari haqida to'liq ma'lumotlar yig'ilganligi mutaxassislar va tashkilotchilar uchun dasturiy amal bo'lishi;

6. Madaniy tadbirlarda bezak vositalardan foydalanishning tarixi, azal azaldan hayotning barcha sohasida qo'llanib kelinayotgan bezak vositalarni qo'llash texnologiyalari haqidagi tajribalarning, an'analari bilan shakl va turlari bilan tanishtirish;

7. Madaniy tadbirlarda badiiy bezak vositalardan foydalanishning metodikasi (uslublari, turlari, shakllari va vositalari) borasida ko'nikma asoslarini hosil qilish.

Xulosa sifatida shuni aytish lozimki, madaniy tadbirlarni tashkil etishda badiiy bezak ishlarini amalga oshirish eng muhim ijodiy va tashkiliy jarayonlardan hisoblanadi.

1-bob. Madaniy tadbirlarni badiiy bezash fanining maqsadi, mazmuni va vazifalari.

1.1. Badiiy bezash ishlarini tashkil etish va amalga oshirish

Madaniy tadbirlarni tashkil etishda mamlakatimizda o'tkazilib kelinayotgan barcha bayram va xordiqiy tadbirlarning turlari, shakllari hatto o'tkaziladigan joyidan qattiq nazar badiiy bezatish vositalaridan foydalanish juda katta ahamiyatga ega ekanligini barchamiz bilamiz, lekin ana shu bezatilish jarayonida qanday ishlar amalga oshirilishi kerak va u nima natija berishini hammamiz ham bilavermaymiz.

Malakali mutaxassislarning fikr mulohazalari, turli adabiyotlar, maqolalar va amaliyot tajribalaridan olingan ko'plab misollar va faktlar ushbu malakaviy bitiruv ishida aniq ochib berilgan va kerakli tavsiyalar, mulohazalar bilan darslikning dolzarbligini ao'rish mumkin.

Shunday ekan aholining bayramona dam olishini tashkil etish va o'tkazishda madaniyat- san'at muassasalari, xodimlar, tashkilotchilar, mutaxassislarga katta ma'suliyat yuklaydi.

Bu masalada qanday dolzarb masalalarni amalga oshirish kerak:

- Aholining bo'sh vaqtini aniqlash orqali madaniy tadbirlarning turlari va shakllarini izlab topish bilan bir qatorda tadbirning bezatilish ishlarining qanday turlaridan foydalanishlikni aniqlab olish;
- Madaniy tadbirlarni bezatish ishlarini tashkil etishda bezak vositalarining qanday usullari va ta'sirchan vositalarini aniqlash;
- Madaniy tadbirlarni tashkil etishda zamonaviy bezak vositalarning yangicha qirralarini ko'rsata bilish;
- O'tkazilgan madaniy tadbirlar orqali aholining dam olishini tashkil etishda badiiy bezak ishlarining yutuq va kamchiliklarini ko'rish;
- Turli xil madaniy tadbirlarda, bayramlarda badiiy bezak vositalarini tashkil etish orqali madaniy tadbirlarni saviyasini oshirilishi;

Bugungi kunga kelib mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha javxalar singari madaniyat va san'at sohasida ham yuqori darajda amalga oshirilmoqda.

Rejissyor va rassom ijodiy hamkorligining ommaviy bayram tomshalarining muvaffaqiyatli chiqishida qanchalik muhim rol o'ynashini bizning taniqli rassom, O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi, «Zamin yulduzi» mukofoti sovrindori, O'zbek

milliy teatri bosh rassomi Baxtiyor To‘rayev bilan birgalikdagi faoliyatimiz misolida ko‘rsatib berish mumkin.

Biz tomonimizdan sahnalashtirilgan «Qo‘shiq bayrami», «Uzbekiston Vatanim manim», «Ofarin» festivallari, Konstitutsiya kuni munosabati bilan o‘tkazilgan bayram konsertlari, qadimiy shaharlarimiz va buyuk tarixiy shaxslarning yubiley tadbirlari, Jizzax viloyatida o‘tkazilgan «Navro‘z», "Mustaqillik" bayramlari kabi ommaviy bayramlarda bosh rassom sifatida ijod qilgan B.To‘rayev o‘zining musavir sifatida maydonni "ko‘ra bilishi"³, rejissyor g‘oyasiga muvofiq bezak vositalari va dekoratsiya turlarini tanlay bilishi bilan alohida ajralib turadi madaniy dam olish ishlari amalga oshirilmoqda, mutaxassis va soha egalarining amalga oshirayotgan ishlarida badiiy bezak vositalarining aynan to‘liq qo‘llanilishining imkoniyatlari qay darajada ekanligi ochib berilgan.³

Ushbu qo‘llanma birinchi navbatda mamlakatimizda aholining dam olishini tashkil etishda, madaniy tadbirlarning ta’sirchanligini oshirish va yuqori saviyada o‘tkazilishida borgan sari bezatish ishlarining yangidan yangi shallari, turlaridan foydalanilgan holda badiiy bezak vositalarning rolini ko‘rsatib berish.

Mustaqil O‘zbekiston Respublikasining kadrlar tayyorlash siyosati madaniy qurilishda muhim tayanch hisoblanadi. Respublikamizda ma’naviy hayotni yangilash masalalari bilan bog‘liq bo‘lib, milliy madaniyatni rivojlantirish, tiklash sohasi xodimlarini tayyorlashni taqazo etadi.

Respublikamiz madaniy hayotida iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma’naviy, xuquqiy o‘zgarishlar yuz berayotganligi madaniy faoliyatga bo‘lgan talab va ehtiyojni yanada oshirdi.

Madaniyat va san’at soha xodimining faoliyati inson faoliyatining barcha sohalari singari o‘z xususiyatlariga ega. Uning eng birinchi xususiyati - madaniy faoliyatning hayot bilan, mustaqillik davri vazifalari bilan uzviy bog‘langanligidir.

³V.Rustamov. Zamonaviy bayramlar rejissurasi muammolari. Toshkent, 2013.44b.

Madaniyat va san'at soha xodimi faoliyatining xayotdan, uning muammolaridan, kishilarning ehtiyojlaridan ajralib qolishi, ularni muhim ma'rifatchilarga quruq safsatabozlarga aylantirib qo'yadi.

Madaniy soha xodimi faoliyatining yana bir muhim xususiyati shundan iboratki, u muntazam izlanishlarini, ishga xamma vaqt ijodiy yondoshishni talab qiladi. Mustaqillikni qo'lga kiritgan Respublikamiz jahon hamjamiyatida o'z o'rnini egallab, tobora rivojlanib bormoqda.

Respublikamizda sodir bo'layotgan o'zgarishlar natijasida kishilarimizning ma'naviy-madaniy ehtiyojlari kundan kunga o'sib, o'zgarib bormoqda, axloqiy qiyofasi va fe'l-atvorida xam o'zgarishlar roy bermoqda. Bunday sharoitda madaniy ishlarning sho'rolar davrida maqbul bo'lgan shakl va usullari bugungi kunda eskirib, talabga javob bermayapti.

Mustaqillik sharoiti kishilarning o'sib borayotgan ehtiyojlarini qondirish, unga g'oyaviy ta'sir etishning yanada yangi, samarali usul va vositalarini qo'llashni talab qilmoqda. Bu esa ijtimoiy - madaniy ishlarning mazmunini takomillashtirib, yangilab borishni taqazo etadi.

Respublikamizda madaniyat va san'at muassasalarida, madaniy va ma'rifiy muassasalarda badiiy bezatish ishlariga, ta'lim - tarbiya va targ'ibot - tashviqot ishlarida ko'rgazmali vositalardan foydalanishni yaxshi yo'lga qo'yish lozimdir. Bizning ming yillik madaniyatimiz va madaniy ma'rifiy boyliklarimizni, urf-odatlarimiz, an'ana va ma'rosimlarimizni dunyoga tanishtirishda hamda o'sib kelayotgan yoshlarga yetqazishda katta ahamiyatga ega.

Badiiy bezak o'ziga yarasha san'atning ko'p turlari bilan omuxta bo'lib ketadi va shuning uchun talabalarda mehnatga, ishga ijodiy munosabatda bo'lishdek vazifani bajaradi, ularni ma'naviy tomondan boyitadi.

Badiiy bezak, san'at sohasidagi hozirgi zamon hayotining turli xil sohalarini, har xil voqealarni tematik jihatdan butunlay qamrab olishi kerak. Bu badiiy bezak

ishi davlatning tashqi va ichki siyosatini, xalqning mehnatdagi yutuqlarini, mamlakatning tarixiy o'tmishini, ilmiy, badiiy hayotidagi yangiliklarni, tabiatni va boshqalarni ifodalash bilan bir qatorda insonlar uchun eng zarur bo'lgan madaniy ma'rifiy tadbirlarda o'zining turli xil qirralari bilan inson uchun xizmat qilishi kerak.

Madaniy tadbirlarni bezatish ishlari orqali o'sib kelayotgan yoshlarni ma'naviy tarbiyalashda badiiy bezakda chiroyli qilib bezatilgan va alohida e'tibor bilan qaralishni talab qiladigan tabiat burchagi, did bilan bezatilgan va professional darajada mehnat talab qilinadigan ko'chalar va bog'larga, korxona yoki muassasa eshigidan kiraverishdagi did bilan bezalgan panolar, millatimiz milliy qaxramonlari, ta'sirchan qilib o'rnatilgan ajdodlarimizning yodgorliklari, mehnat va harbiy jasorat kabi mavzulardagi panno va stendlar, binoning joylanishi tasvirlangan sxema va hokazolar katta yordam beradi.

Bezak san'atning binoni bezatishga xizmat qiladigan asosiy yo'nalishlari - xonalarini, sport va majlis zallarini, koridorlarni bezash, ko'rgazmalar tashkil etish, teatr uchun dekoratsiya ishlash, dekorativ – amaliy san'at buyumlari yasash, plakatlar chizish, turli axborot vositalarini tayyorlash va hokazolardan iboratdir.

Madaniy ma'rifiy muassasalarga korxona va tashkilotlarga kiraverishda shu tashkilot yoki korxonalarga nomi berilgan shaxsning byusti yoki portreti ko'zga tashlanib turishi kerak.

Badiiy bezash ishlari san'atining bir necha turlari sifatida o'sib kelayotgan insonga dunyoni tushuntirishda yordam beradi, uning yosh qalbiga vatanga bo'lgan muxabbatni, uni keng va turlicha fikrlashga odatlantiradi, xalqning ma'naviy madaniyatiga yaqinlashtiradi, eng muhimi, mehnatga ijodkorlik bilan yondashishga o'rgatadi.

Shuningdek, yoshlarda ma'naviy - ahloqiy va fuqarolik faolligini, vatanparvarlik hissini tarkib toptiradi.

Badiiy bezash ishlarida yoshlarning stendlar va stendli ko'rgazmalar tayyorlash eng katta o'rin tutadi.

Stendga juda ko'p va har xil axborotlar sig'ishi sababli u binoni va uning teritoriyasini bezashda eng operativ element hisoblanadi.

Badiiy bezash ishlari yoshlar bilan olib boriladigan g'oyaviy-tarbiyaviy ishning eng muhim maqsadlarini amalga oshirishga, ya'ni o'g'il va qizlarda dunyoqarash asoslarini, ijtimoiy aktivlikni, ongni intizomni, madaniy xulq-atvorni tarkib toptirishga, xuquqiy bilimlarni, mehnatga ijtimoiy mulkka munosabatni, kasb tanlashga intilishni shakllantirishga, badiiy qobiliyatni o'stirishga xizmat qilish kerak.

Har qanday metodik vazifa singari badiiy bezash ishlari ham professional aniqlikka va ijodiy yondashishga asoslanishi kerak. Shu sohaning professional mutaxassislari badiiy izlanishini to'g'ri va konstruktiv yo'nalishga solsa, ijodiy yondashilsa, albatta niyat qilingan cho'qqiga erishish mumkin.

Madaniyat va san'atni rivojlantirish sohasidagi mustaqillik siyosati ma'naviy hayot, madaniy taraqqiyotning umumiy qonunlarini ilmiy jihatdan yangicha ishlab chiqishni, ma'naviy-ma'rifiy omilning demokratik, insonparvarlik tamoyillari va bozor iqtisodiyoti asosida qurilayotgan yangi jamiyatda tutadigan o'rnini belgilab olishni kun tartibiga qo'yadi.

Prezidentimiz I.A.Karimov alohida ta'kidlaganidek, «Yurtimizda yashayotgan har bir inson, avvalo, unib-o'sib kelayotgan yangi avlodning har tomonlama barkamol, irodasi baquvvat, iymoni butun bo'lib voyaga yetishi uchun keng jamoatchilik va aholimiz o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy faoliyatimizni yuksak darajaga ko'tarishning ahamiyati beqiyosdir»⁴

Bugunga kelib o'sib kelayotgan navqiron yoshlarda go'zallikni his qila olishni rivojlantirish, yuqori darajada estetik didni shakllantirish, san'at asarlarining siru asrorlarini, tarixiy va me'morlik yodgorliklarini, tengi yo'q ona

⁴ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat. – yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008

tabiat go'zalliklarini, boyligini tushunish va mutaxassislarni shakllantirish maqsadida har bir o'quv adabiyoti imkoniyatidan, ayniqsa bilim doirasini kengaytirish uchun xizmat qiladigan va katta tarbiyaviy kuchga ega bo'lgan adabiyotlar, badiiy bezak, musiqa, tasviriy san'at, estetika kabi fanlaridan ko'proq foydalanish kerak.

Badiiy bezak ishlari insonlarda estetik didni shakllantiradi, san'at asarlarini tushunish va qadriga yetishni o'rgatadi, mehnatga hurmat bilan qarash bilan birga unga bo'lgan muhabbatni tarbiyalaydi, mehnat qilish ko'nikmalarini egallashda yordam beradi.

Hozir badiiy bezak ishlariga, umuman ommaviy ko'rgazmali axborot vositalariga. Shu jumladan, barkamol yosh avlodni g'oyaviy, ma'naviy-ma'rifiy va estetik tarbiyalashning muhim omillari sifatida qaralmoqda.

Shu sababli mamlakatimizdagi barcha korxona va muassasalarda, davlat va nodavlat tashkilotlarida, jamoa xo'jaliklari, oliy o'quv yurtlari va umumiy ta'lim maktablarida shakli hamda mazmuni jihatdan xilma-xil targ'ibot va tashviqot vositalaridan azaldan siz bilan bizga ma'lum bo'lgan plakatlar, stendlar, afishalar, reklamaning barcha turlari, hamda devoriy gazetalar va hokazolarni ko'rish mumkin.

Yillar o'tishi bilan vaqt bir joyda to'xtab turmaganidek izlanish borasida ham bugunga kelib bunday vositalarning har birining sifatiga qo'yilayotgan talablar ham ortib borayotgani sir emas.

Bu talablar va ehtiyojlar badiiy bezash ishlari bilan shug'ullanayotgan yetakchi mutaxassislar va bevosita dahldor kishilarni mazkur ishlarning ta'sirchanligini oshiradigan yangidan yangi vositalarni, yangi shakl va formalarini, yangi kompozitsion yechimlarni, qolaversa yuqori sifatli jaxon talablariga javob beradigan turli xil eng zamonaviy bezak ishlarining turlarini topishga va ishlashga ijod qilishga dav'at etmoqda.

Ana shu boradagi izlanishlarda hozircha ma'lum bo'lgan va badiiy bezash ishlarida muvaffaqiyatli qo'llanayotgan nazariy hamda amaliy asoslarni takomillashtirishda, yangi vositalardan oqilona foydalanishda o'z aksini topmoqda.

Unda yuqorida zikr etilayotgan joylarda badiiy bezash ishlarining mazmuni, o'ziga xos xususiyatlari va ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati ifodalandi, shuningdek, mazkur ishlarni amalga oshirish yuzasidan tavsiyalar berildi.

Badiiy bezak ishlari juda katta ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, insonlarning aynan estetik tarbiyasiga emas, balki, g'oyaviy-siyosiy, axloqiy, mehnat tarbiyasiga oila tarbiyasida ham samarali ta'sir ko'rsatadi, ularning fikr doirasini kengaytiradi, ijodiy aktivligini oshiradi.

Madaniy ma'rifiy muassasalarda, shuningdek ta'lim tarbiya maskanlari, korxona va tashkilotlarda, ichki va tashqi qismlarini qanday bajarish avvalo bu ishining o'ziga yarasha funksional vazifasiga ko'ra belgilanadi.

Masalan o'quv va ta'lim tarbiya maskanlarida jihozlash va bezaklarga yoshlarning o'qishi va dam olishi uchun imkoni boricha qo'laylik hamda orastalik yaratish nuqtai nazaridan qaraladi.

O'quv bino ichidagi jihozlar va buyumlar, bezaklar to'g'ri tanlanishi, maqsadga muvofiq holda did bilan joylashtirilishi kerak. Shundagina ular yoshlarning didi, aqli, idroki va albatta tarbiyasiga ijobiy ta'sir etadi.

Bu esa birinchi galda albatta o'quv jarayonning xarakteriga va shuningdek, ularni qamrab olgan sof muhitga hamda a'lo darajali yuqori e'tiborga bog'liq.

Mashg'ulotlar bo'ladigan binosining ichki va tashqi qiyofasi yoshlar uchun mutlaqo farqsiz bo'lmasligi kerak.

Siz bilan bizga ma'lumki, har bir muassasalarning, tashkilotlarning, korxonalarning, madaniy dam olish joylarni ya'ni istirohat bog'lar, teatrlar, kontsert zallari, hozirgi kunda ko'p bor tilga olinayotgan hammamiz uchun aziz bo'lgan muziylar, xiyobonlar, to'yxonalar hamda o'quv maskanlarini bezatish

undagi badiiy bezash ishlarini tashkil etishni yaxshi bajara oladigan mutaxassislar kerakligi, bu ishlarni o'rgatish uchun o'zbek tilida maxsus adabiyotlar nashr etilmagani sababli yuqorida ko'rsatilgan barcha joylarda va o'quv yurtlarda badiiy bezak ishlarini to'laligicha amalga oshirilmayapti bu ishlarni amalga oshirish uchun esa yuqorida aytib o'tilayotgan yaxshi mutaxassislar tomonidan yozilgan adabiyotlar va turli xil qo'llanmalar kerakligi haqiqatga aylanmoqda .

Badiiy bezak ishlarining ommaviy shakli ko'rgazmali vositalar orqali badiiy bezakning har xil yangicha shakllari va formalari orqali madaniy ma'rifiy muassasalarning, o'quv yurtlarining, korxona va tashkilotlarning intererlari, xona va zallari, fasadi hamda hovlisini panno, plakatlar va hokazolar bilan bezatishda bezak ustalari katta ishtiyoq bilan foydalanadilar va bundan tashqari, devoriy gazetalar, albomlar, e'lonlar, taklifnomalar, bukletlar va hokazolarni tayyorlashda aktiv ishtirok etadilar hamda bu ishlarga boshchilik qiladilar.

Ta'lim tarbiya maskanlari eshigiga birichi qadam bosish yoki o'qishga kelish o'sib kelayotgan yoshlar uchun ko'tarinki rux va eng esda qolarli hayajonli kun bo'lishi kerak emasmi.

Bu esa birinchi galda albatta o'quv jarayonning xarakteriga va shuningdek, ularni qamrab olgan sof muhitga hamda a'lo darajali yuqori e'tiborga bog'liq.

O'quv binosining ichki va tashqi qiyofasi yoshlar uchun mutlaqo farqsiz bo'lmasligi kerak. Bunda hatto binolarning qurilishi jarayonlarida me'morchilik-loyihalashda ko'rilgan tadbirlar qatori talabalarning o'z qo'llari bilan bezatilgan turli badiiy bezak vositalaridan kerakli darajada unumli foydalanish kerakligini ham nazarda tutish lozim.

Siz bilan bizga ma'lumki, har bir muassasalarning, tashkilotlarning, korxonalarning, madaniy dam olish joylarni ya'ni istirohat bog'lar, teatrlar, kontsert zallari, hozirgi kunda ko'p bor tilga oliniyotgan hammamiz uchun aziz bo'lgan muziyeular, xiyobonlar, to'yxonalar hamda o'quv maskanlarini bezatish undagi badiiy bezash ishlarini tashkil etishni yaxshi bajara oladigan mutaxassislar

kerakligi, bu ishlarni o'rgatish uchun o'zbek tilida maxsus adabiyotlar nashr etilmagani sababli yuqorida ko'rsatilgan barcha joylarda va o'quv yurtlarda badiiy bezak ishlarini to'laligicha amalga oshirilmayapti bu ishlarni amalga oshirish uchun esa yuqorida aytib o'tilayotgan yaxshi mutaxassislar tomonidan yozilgan adabiyotlar va turli xil qo'llanmalar kerakligi haqiqatga aylanmoqda .

Mustaqilligimizning asoschisi, mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimovning hali sho'ro tuzumi hukm surib turgan sharoitda O'zbekistonning mustaqilligini e'lon qilganilarning bu mustaqillikni mustahkamlash yo'lida ko'rsatib kelayotgan qahromonona faoliyati ustivorlikning ajoyib namunasidir.

Aqlu qahramonlik ko'pchilik omma tushunchasida odatdan tashqari noyob, nodir, kam uchraydigan hodisalar, lekin u kundalik hayotda, oddiy sharoitda eng sodda, hamma amal qiladigan ahloqiy qoidalar doirasida ham sodir bo'lishi mumkinligining o'zi ulug'vor ahamiyat kasb etadi.

Tabiat ustidan hukmronlik o'rniga u bilan hamohang bo'lish, ayrim o'zmachilik, ommaviy qaror, yalpi rozilik o'rniga ijtimoiy faol, tashabbuskor, ijodkor shaxsni shakllantirish burch-vazifalarini ado etish bugungi kundagi ulug'vorlik orzusining asosiy mazmunini tashkil etish bo'yicha real asarlar plakatlari, afishalar, bannerlar singari ko'rgazmalar asariga aylangan badiiy bezak ishlari kerak bo'lar edi.

Ulug'vorlik o'zining har tomonlama ijodiy ifodasini san'atda topadi, uning barcha tur, xil va ko'rinishlari badiiy bezak ishlarida ko'rinadi.

Shuning uchun ham badiiy bezak asarlarida ulug'vorlik mavzusi asosiy tasvir obektlaridan biri bo'lib xizmat qiladi. Shubhasizki, san'atning turli ko'rinishlari, ulug'vorlik tasvirlashning xilma-xil imkoniyatlaridan foydalaniladi, aytish mumkinki, uning ayrim turlari-qahramonlik dostonlari, lirik dostonlar, qahramonlik fojiasi, qahramonlik musika asarlari (simfoniya, oratoriya), me'morchilik va yodgorlik san'ati, rassomlarning, badiiy bezak mutaxassislarining ijodlarida ulug'vorlik mavzusini badiiy o'zlashtirish jarayonida vujudga keldir.

Rassomchilik va badiiy bezak asarlarida ulug‘vorlik me‘morchilikda alohida ahamiyat kasb etadi.

Shu narsani alohida ta’kidlab o‘tish joizki, ulug‘vorlik tuyg‘usiga faqat miqyos o‘lchovi bilan erishilmaydi.

Agar ayrim obidalar (Minorai Kalon, Misr piramidalari va sh. k.) o‘zlarining miqyoslari ko‘lami bilan hayron qoldirsalar, boshqa o‘zining alohida nafisligi, nozik ifodasi, hamohangligi, yuksak ruhlanganligi, atrof-muhit bilan uzviy qo‘shilib ketganligi bilan alohida ahamiyat kasb etgan.

(Go‘ri amir, Shohizinda, Ichan qal’a, Registon maydoni, Mir Arab madrasasi, Ismoil Somoniy maqbarasi, Chor Minor, Bola hovuz masjidi va b.) me‘morchilik asarlari idrok etilganda insonda o‘zgacha ulug‘vorlik tuyg‘usi vujudga keladi.

Badiiy bezak san’atda ulug‘vorlik fojealilik bilan ko‘pincha yonma-yon turadi va namoyon bo‘ladi, sirasini aytganda, bu ikki estetik kategoriya o‘rtasida o‘ziga xos dialektik aloqadorlik mavjud bo‘lib, unda umumiylik va farqli tomonlari ham bordir.

Navoiy va Shekspir asarlari, shoshmaqom go‘zal me‘morchilik obidalari bir vaqtning ham ulug‘vorlik, ham fojialilik ruhi bilan sug‘orilgandir.

Bundan, albatta fojialilik-ulug‘vorlik, ulug‘vorlik-fojialilikdir degan xulosa chiqarib bo‘lmaydi.

Masalan, Samarqandning Registon maydonidagi madrasalar, shubhasiz, ulug‘vor bo‘lishlari bilan birga hech qanday fojiali his qo‘zg‘atmaydilar.

Shekspirning Makbet xonim qiyofasi fojeali, lekin u hech ham tomoshabinda ulug‘vorlik tuyg‘usi tug‘dirmaydi.

San’atdagi ulug‘vorlik badiiy mazmun va shakl barcha imkoniyatlari vositasida ifodalanadi, lekin bunda hal qiluvchi rolni g‘oya o‘ynaydi.

Muhim ahamiyatli g'oya yuksak ruhlangan, mukammal shaklning zarurligini yuzaga keltirib, san'at asarining buyuklik darajasini belgilab beradi. Bu holat hayotiy haqiqatni qochishga emas, unga xizmat qilishga da'vat etadi.

Badiiy bezakda amaliy san'at turlari bilan bevosita bog'liqligi haqida ham gapirib o'tish zarurdir.

Badiiy bezak bilan bir qatorda amaliy san'at ham – keng miqyosda rivojlanayotgan san'atimizning xalq amaliy ijodi turlaridan biridir. Xalq amaliy san'atining turlari haykaltaryoshlik, rang-tasvir, arxitektura, raqs va musiqa bilan hamohangdir.

Unda kishining haqiqiy san'atga estetik munosabati yaqqol namoyon bo'ladi.

Bezak san'atining o'ziga xos estetik jihatlarini tushunish uchun uning mavzusi, mazmuni, asardagi tiplar, badiiy texnika vositalari diapazonining odatdan tashqari katta miqyosini nazarda tutib qarash kerak.

Bu badiiy bezak o'ymakorligi –monumental, stanokli, predmetli-miqyos va turli xalqlarning milliy kiyimlari, so'zanalar, taqinchoqlar va istirohat bog'lari san'ati, devorlardagi monumental dekorativ rasmlar, vitrina, devoriy gazeta, tabriknomalarning bezaklari hamda mebel buyumlaridagi o'ymakorlik va hokazolardir.

Shakllari bir-biriga o'xshamagan bu asarlarni o'zaro biriktirib turgan jihati ularning asosiy vazifasi, asosiy funksiyasi-insonni qo'rshab turgan muhitni nafasat vositasida bezashdan iboratligidir.

Shuni ta'kidlash kerakki, dekorativ san'at turli-tuman bo'lsa ham, ularning ko'pchiligi amaliy-foydali obektlarga: liboslar, mebel, o'yinchoqlar, vitrinalar, binolar va hokazolarga badiiy ishlov berish jihati bilan o'zaro bog'lanadi.

Mana shu ma'noda dekorativ-amaliy san'at deyiladi. Biroq bezak san'atiga, yuqorida aytganimizdek, amaliy jihatdan bevosita foydasi sezilmaydigan asarlar ham qo'shiladi.

Masalan, zargarlik buyumlari, turli taqinchoqlar, o'ymakorlik buyumlari va boshqalar.

Bularning hammasi rassomlik yoki haykaltaroshlikdan farqli ularoq kundalik konkret muhitda, o'zlarining xususiyatlariga ko'ra konkret holatda foydalanilsagina estetik ma'no kasb etadi.

Inson yashayotgan va harakat qilayotgan muhitning nafosat boyligi ana shu muhitga olib kirilgan zeb-ziynat buyumlarining soni bilangina belgilanmaydi.

Muhimi shundaki, bu zeb-ziynat elementlari mazkur muhitning hayotiy sharoitiga moslashib uning ijtimoiy mazmuniga, odamlarning amaliy va ma'naviy ehtiyojlari vujudga keltirgan talablarga nechog'lik javob berishiga qarab ham baholanadi. Nafosat elementlari muhitni shunchaki bezabgina qolmasdan, balki uning badiiy obrazli mazmunini kuchaytirib, oshirib, rivojlantirib ham ko'rsatadi.

Dekorativ san'at mana shu vazifasini san'atning boshqa turlari – arxitektura, rassomlik, haykaltaryoshlik bilan birgalikda bajarsa, uning qimmatini yanada ortadi.

Bezak san'ati asarlarining diqqatga sazovor xususiyati ularning o'z vositalari bilan ma'lum davr doirasida sharoitning badiiy obrazli mazmunini dinamik tarzda o'zgartira olishidir.

Dekorativ san'atning shu xususiyatiga binolar, ko'chalarning bayramona bezatilishi misol bo'ladi. Bu bezatishlar o'sha joylarning odatdagi qiyofasini ma'lum vaqtgacha o'zgartirib turadi.

Bezak san'atining barcha turlariga oid asarlar, shu jumladan, ularga yaqin turuvchi grafik san'at asarlari ham ma'lum darajada mana shunday rolni bajarishi mumkin.

Masalan, bayramona tabriklar yoki tasvir tushirilgan vimpellar bunga misol bo'la oladi.

Har bir tarixiy davr alohida g'oyaviy va ahloqiy tasavvurlarni olg'a surib, kishilar ijtimoiy hayotining alohida ideallarini ifodalar ekan, takrorlanmas dekorativ san'atni vujudga keltirgan.

Bezak san'at asarlarida inson, jamiyat va o'z davrining xarakterli hissiyotlari to'g'risida mavjud g'oyaviy hamda axloqiy tasavvurlarni ifodalash san'atining rostgo'yligi yoki ta'sirchanligining asosiy shartidir.

Mana shu prinsipga amal qilinmasa, badiiy maqsadni hamda shaklni hal qilishda yasamachilik, asarda emotsional qiyofa bo'lmasligi, formalizm vujudga keladi.

Biroq bezak san'atining ta'sirli chiqishi uchun davrni tasvirlashdagi realizm uning birdan-bir sharti emas. Bezak san'at asarlaridagi ko'p jihatlari boshqa asosiy shartlarga ham bog'liq.

Shaklni ifodalashda ishlatilayotgan materiallarning, ko'p hollarda esa usullarning o'ziga xos jihatlari (o'ymakorlik, to'qimachilik buyumlari va boshqalar), o'ziga xos tomonlarini yaqqol ifodalanishi talab etadi.

Bezak san'atda umuman materiallar, ulardagi xususiy jiloning go'zallik sifatleri ayniqsa muhim, ba'zan esa yetakchi o'rin tutadi.

Bu holat bezak asarlar shakllarining o'ziga xos shartli tomoni bo'lib, u asarlar mazmuni umumlashtirilganligi va mavhumligining natijasidir. Ularni ko'pincha so'z bilan ifodalab bo'lmaydi.

Biroq materialning ko'rki bezak san'at asarlari mazmunidagi kamchilikni to'ldirish, uni «bo'yab ko'rsatish» kerak, degan so'z emas.

Ijodiy vazifalarni bunday tushunilsa, har doim asarlarning kompozitsiyasida formalizm, mazmunan qashshoqlikka yo'l beradi.

Bezak san'atda qo'llanadigan materiallarning estetik jihatdan eng kerakli sifatleri-yorqinligi, rangi, fakturasi, hajmi, vazni yoki pishiqligi hisobga olinadi.

Bular yaratilayotgan formalarning aniqlik darajasida, umumiy hajmining mutanosibli va boshqalarda ko‘rinadi.

Materiallarning mana shu sifatlarni nazarda tutib, ularni to‘g‘ri tanlash asarning shakli va qiyofasini yaratayotganda bu sifatlardan to‘g‘ri foydalanish – mazkur asar beradigan taassurotlarni (masalan, bayramona, sport, o‘yin va badiiy tantanalar) ruhini to‘g‘ri yoritishni ta’minlaydi.

Intererni badiiy bezashda dekorativ-amaliy san’atning yog‘och va ganch o‘ymakorligi, naqqoshlik, dekorativ haykaltaryoshlik, mozaika, vitraj, chekanka va boshqa turlaridan foydalaniladi.

Amaliy bezak san’atining sifatsiz va saviyasiz namunalari, tasviriy san’atning boshqa turlariga bevosita bog‘lanmagan ayrim stendlar, devoriy gazetalar, chaqiriqlar, e‘lon portretlar intererning ko‘rinishini buzmoqda.

Badiiy bezash ishlarida amaliy bezak san’ati elementlarini qo‘llashda asosan quyidagilarni nazarda tutish shart.

- qo‘llanilayotgan dekorativ-amaliy san’at namunasi interer xarakteriga mos bo‘lishi kerak;
- sinf xonasining vazifasini, unda shug‘ullanadigan o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va idrok etish qobiliyatlarini hisobga olib dekorativ – amaliy san’atga differensial yondoshish lozim (masalan, kichik yoshdagi o‘quvchilar shug‘ullanadigan rekreatsiyalarda tabiatga, o‘rta yoshdagi o‘quvchilar shug‘ullanadigan rekreatsiyalarda yuqori sinf o‘quvchilari shug‘ullanadigan rekreatsiyalarda kosmosga, sportga, mehnatga bag‘ishlangan dekorativ pannolar o‘rnatilishi ularga ma’lum darajada ta’limiy va tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatadi);
- badiiy bezash ishlarida qo‘llanilayotgan dekorativ-amaliy san’at elementlari mavsumiy, ya’ni vaqti-vaqti bilan almashtirib turiladigan elementlar bilan mos bo‘lishi zarur;

- o'quv yurtidagi badiiy bezash ishlarida qo'llanayotgan amaliy san'at elementlari tasviriyl san'atning boshqa turlari bilan uzviy bog'lanishi kerak (rang-tasvir, haykaltaryoshlik, grafika va arxitektura interni badiiy bezashda bir-biriga garmonik bog'lanmasa, hal qiluvchi omil bo'la olmaydi).

Yuqorida ta'kidlanganidek, intererni badiiy bezashda bevosita uning vazifasidan kelib chiqqan holda ish ko'rish lozim.

Agar o'quv yurt muzeyi ko'rgazmasi va ekspozitsiyalari haqida gap ketadigan bo'lsa, eng avvalo, undagi fazo bo'shlig'i saqlanishi, eksponatlarni tomosha qilish uchun qulaylik tug'dirilishi lozim. Yana shuni ta'kidlab o'tmoqchimizki, badiiy bezash ishlarida dekorativ-amaliy san'at elementlarini qo'llash murakkab jarayon bo'lib, ko'r-ko'rona qo'llaniladigan elementlar ko'ngildagidek natija bermaydi. Ular avvalo yuksak badiylikka ega bo'lib, o'quv xonalari va intererlarning boshqa qismlarining vazifasiga, rang yechimlariga, undagi jihozlar, mebellar va yoritilganlik darajasiga mos bo'lishi kerak.

Mamlakatimizda o'quv yurtlarining intererlarini badiiy bezashda amaliy bezak san'atning naqqoshlik, yog'och va ganch o'ymakorligi kabi turlari uning boshqa turlariga nisbatan ko'proq qo'llanilmoqda. Bu tabiiy holdir. Chunki dekorativ-amaliy san'atning xuddi shu turlari qadimdan e'zozlanib, juda ko'p binolarni bezashda qo'llanib kelingan. Bunga Samarqanddagi Registon ansambli, Go'ri Amir maqbarasi, Buxorodagi Minorai Kalon, Ismoil Somoniy maqbarasi, Xivadagi Islomxo'ja minorasi, Toshkentdagi Ko'kaldosh madrasasi, Qo'qondagi Xudoyorxon o'rdasi, Shahrisabzdagi Oqsaroy binosi va boshqalar misol bo'la oladi.

Hozirgi paytda ham ma'muriy, turar joy va boshqa binolarni badiiy bezashda amaliy san'atning yuqorida aytilgan turlari keng qo'llanilmoqda. Masalan, A.Navoiy nomidagi o'zbek davlat akademik katta teatri, Toshkent davlat sirki binolari va hokazolar fikrimizning yaqqol dalilidir. Toshkent metrosining «Xalqlar do'stligi» stansiyasida naqqoshlikdan, ganch o'ymakorligidan, «Kosmonavtlar

prospekti»da dekorativ devoriy sur'atlardan, «Chilonzor» stansiyasida sopol dekorativ figuralardan, «Alisher Navoiy» stansiyasida dekorativ-amaliy san'atning bir necha turlaridan foydalanilgan. Bunday ishlarni respublikaning boshqa shaharlaridagi qator binolarda ham ko'rish mumkin.

Korxona va tashkilotlarni madaniy ma'rifiy muassasalarni badiiy bezashda dekorativ-amaliy san'at turlaridan naqqoshlik ko'proq uchraydi.

Naqqosh O.Fayzullayev "Naqqoshlik ishida yetakchilik rolini o'ynovchi mustaqil vazifaga ega emas. U faqat badiiy bezash ishlarining badiiy sifatini boyitadigan, bo'rttiradigan omil bo'lib xizmat qilishi lozim" degan edi.¹⁵

Badiiy bezash ishlarida qo'llaniladigan naqqoshlik san'ati ham ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega. Unda ishtirok etadigan elementlar tabiat ne'matlari (paxta, barg, gul, g'uncha, anor, bodom, nok, olma, lola, kurtak va hokazolar)ning stilizatsiyalashtirilgan formasidir.

Bir qarashda dekorativ-amaliy san'at alohida emasdek tuyulsa-da, o'zining amaliy ishlarida tutgan o'rni va badiiy xususiyatlari bilan bevosita dekorativ-amaliy san'at hisoblanadigan shunday zamonaviy turlari ham mavjudki, ularsiz intererni tasavvur qilish qiyin. Misol uchun metallarga badiiy ishlov berish, payvandlash, bukish, chekanak qilish, qirqish, bo'yash va loklash orqali ulardan intererning turli burchaklarida turadigan gullarga taglik, eshik va derazalarga panjara, to'siq va yoritgich va boshqa bezaklar yasash mumkin.

Respublikamizda bezak turlari:

Ma'lumki, tevarak-atrofimizni o'rab turgan materiya va uning elementlari o'ziga xos chiroyli shakl, tuzilish, rang va ko'rinishga egadir. Ularni odamlar ko'rib zavqlanadilar, ularni yoqib qolganlarini o'z xonadonlariga, mehnat va turmush faoliyatlariga ko'chirishga harakat kiladilar. Ularni tasvirlari va nusxalaridan ro'zg'or-buyumlari, mehnat-faoliyat qurollarini va boshqa narsalarni bezatishga intiladilar.

Predmetlarni bezatish har bir kishiga yoqimli va zaruriy extiyojdir. Ammo buyumlarni odamlarga yoqadigai qilib hamma ham bezata olmaydilar. Narsalarni bezatish uchun uning maxsus qonun-qoidalarini bilishlari kerak bo‘ladi.

Narsalarni bezatish uchun eng avvalo bezatiladigan narsani vazifasi, tuzilishi, rangi o‘rganilib, unga mos bezatish elementi, kompozitsiyasi, rangini tanlanadi va tayyorlanadi. Bezatish elementlari ornament, naqsh, gul, predmetlarni badiiylashtirilgan tasviri va xarflar, yozuvlardan iborat bo‘ladi.

Predmetlarni bezatishda, ayniqsa naqsh bilan bezatishda va tayyorlashda ritm, simmetriya va joylashtirish malasiga alohida e’tibor beriladi.

Badiiy beshzashda rang alohida ahamiyat kasb etib, bezatishni chiroyli, yoqimli, sifatli bo‘lishini ta’minlaydi.

Badiiy bezatishning asosiy materiali naqsh bo‘lib, u bilan yashash, mehnat, o‘qish joylari, buyumlar, targ‘ibot ishlari va tantanavor kunlar shu naqshlar ishtirokida bezatiladi.

1. Naqshlarning tuzilishi, shakli va rangi asosan tabiatga, tevarak-atrofdagi narsalarga va odamlar kayfiyatiga bog‘liq bo‘ladi. Shu boisdan o‘zbek badiiy bezashdagi naqshlarda ko‘proq bodom, o‘rik, paxta, anor kabilarning guli, mevasi, barg-shoxchalari qo‘llaniladi. Ularni avval badiiylashtirib-stilizatsiya qilib olinadi. Naqshlar bezatiladigan predmetning shakli, tuzilishi, rangi va uni ishlatilishi maqsadiga ko‘ra ishlanadi va tanlanadi.

Naqshlar tuzilishiga ko‘ra yo‘l-yo‘l, kvadrat, to‘rtburchak, aylana, 6-8 burchakli (ya’ni ko‘pburchak) shakllarda bo‘ladi. Shunga ko‘ra uni o‘rganish ham xuddi uni boshlang‘ich ko‘rinishi - yul ichiga naqsh chizishdan boshlanadi. Ammo naqsh chizishni o‘rganishni ham o‘ziga xos murakkabligi bo‘lib, shu murakkablikni biroz yumshatish maqsadida naqsh o‘rganishdagi boshlang‘ich mashg‘ulotlar tayyor naqsh namunasidan ko‘chirish metodida olib boriladi. Naqsh

namunasidan ko‘chirish qoidalariga mos amaliy mashqlar namuna rasmlarda berilgan.

Naqsh chizish bo‘yicha biroz malaka hosil qilingach, yo‘l ichiga ijodiy naqsh kompozitsiyasini tuzish ustida mashqlar olib boriladi.

Yo‘l ichidagi naqsh chizish bo‘yicha malaka hosil qilingach, asta-sekin kvadrat, to‘rtburchak va aylana ichiga naqsh chizish mashqlari bilash mashg‘ul bo‘linadi. Bunday mashqlar uchun namunaviy topshiriqlar va rasmlarda berilgan.

2. Badiiy bezashda grafika alohida o‘rin egallaydi. Bu bo‘limga intererlarni bezatish, plakat, kitob, e‘lon, afishalar, devoriy ko‘rgazma va gazetalar, foto-tele-neon yoritgichlari tasviri, mozaika, applikatsiya, uslubidagi kompozitsiyalar kiradi. Grafikaning yuqoridagi barcha vositalarining asosiy elementi xarflar-shriftlar bo‘lib hisoblanadi.

Xarflar o‘zining badiiy, standart, yozma, bosma, soyali kabi turlari bilan grafik kompozitsiyalarda keng qo‘llaniladi.

Xarflar bolalar tarbiyasi muassasalari va maktab badiiy-bezag grafikasida alohida e‘tiborda bo‘lib, bu bo‘lajak tarbiyachi-pedagoglarning kelajakdagi pedagoglarning kelajakdagi pedagogik faoliyatlari uchun g‘oyat zarur malaka berishni taqozo etadi.

Bundan tashqari bezakning turli xil shakllar mavjud va bular to‘g‘risida to‘xtaladigan bo‘lsak masalan:

Amaliy bezak san’ati. 16--18 asrlar amaliy bezak san’atida ikki asosiy yo‘nalish-rasmiy va xalq san’ati mavjud bo‘lgan. Xalq san’ati izchil, birmuncha erkin, hayotga yaqinroq bo‘lgan. Xalq san’ati ko‘p turli an’analarni saqlab qolgan, biroq 17-asr oxiridan e‘tiboran uning rivojlanishida turg‘unlik holatlari kuzatila boshlandi, buyumlar turi, shakli va bezagi soddalashib borgan.

16- asr oxiri hamda 17- asrda amaliy bezak san'ati sekin rivojlandi, bu mujassam ot tuzilishidagi bir xillikda, bezakning murakkablashuvi va vazminlashuvida, gullarning maydalashuvi va takomillashuvida, tashqi bezakning kuchayishida o'z ifodasini topdi.

18- asrdagi murakkab tarixiy sharoitlarda amaliy bezak san'ati garchi sekin rivojlansada, biroq u o'zining asosiy hayotiylik mazmunini va ip matolar ishlab chiqarish, ipakchilik, gilamchilik, palos to'qish, zargarlik, kulolchilik, charm, tosh, yog'och, metalga badiiy ishlov berish kabi barcha turlarini saqlab qoldi. 18- asrning oxirida amaliy bezak san'ati taraqqiyotida yuksalish ko'zga tashlanib, u 19- asrning so'nggi choragiga qadar davom etgan. 19- asrning birinchi yarmida qat'iy shakl mujassam otini tuzishga intilish kuzatiladi. Bu xususiyatlar, ayniqsa, badiiy hunarmandchilik (abrli matolar guli, zardo'zlik, kandakorlik)da aniq ko'zga tashlanadi. Naqsh mujassamoti va mavzu shakliga ko'ra bir oz qat'iy, sipo va tashqi ko'rinishi takomillashgan. Xonadonlarda yaratilgan kashtalarda 18- asr san'ati xususiyatlari (soddalik va go'zallik) uzoqroq saqlangan. Bu davr amaliy bezak san'atining barcha sohalari shakl, rasm va o'ziga xosligini saqlagan.

Qalamda rasm chizuvchi rassom I.G. Pestalotssi,- «Bolaga,- degan edi muayyan darajada sabr – toqatni talab qiladigan ishni o'rgatishda barcha insoniy bilimlardan bolalar uchun eng oson va jozibalilarini tanla. Bolaning taqlid qilishi sening yo'l ko'rsatishing bo'lsin. Xonangda pech bo'lsa, uning rasmini chiz. Agar bolang bir yil davomida to'rt burchakni chiza olmasa-da har holda u qunt bilan ishlashga odatlanadi.»

Miniatyura. Movarounnahrda miniatyura san'ati 16-18- asrning birinchi yarmida ravnaq topdi. O'rta Osiyo xalqlari orasida miniatyura san'ati "naqshi nigor" nomi bilan ma'lum bo'lgan. Bugungi kunlarimizda jahon muzeylari to'plamlarida O'rta Osiyo musavvirlari tomonidan bezatilgan 60 dan ortiq nodir qo'lyozmalar saqlanadi. Mahalliy va Hirotlik ustalarning o'zaro ijodiy hamkorligi tufayli Samarqand va Buxoroda miniatyura maktablari gullab yashnadi. Behzod an'analari bilan bog'liq birinchi yo'nalish qalam tasvirining o'ta nozikligi,

manzara va me'moriy tasvirlarga boyligi, jarangdor, tiniq ranglarning uyg'unligi, murakkab mujassamoti bilan diqqatga sazovor. Mahmud Musahhib va Chag'ri Muxassin (Nizomiy asarlariga ishlangan rasmlar, 1537-38-yillar), "Ash'or"ni bezagan noma'lum musavvir (1529-yil.) va boshqalar mashhur bo'lgan. Ikkinchi yo'nalish qahramonlar sonining cheklanganligi, tasviriy vositaning lo'ndaligi, ixcham mujassamoti, keskin ranglarga boyligi bilan farqlanadi. Jumladan, Shayboniylar davrida hukmdorlar uchun shajaraviy, tarixiy asarlar ko'plab yaratilib, ular miniatyuralar bilan bezatildi. Xususan, Muhammad Shodining "Fathnoma" (1502-1507-yillar), Ma'sud ibn Usmon Qo'hisoniyning "Tarixi Abdulxayrxoniy" va boshqalar shular jumlasidandir. Miniaturalarda hukmdorlar va ularning turli hayotiy jarayonlardagi tasvirlaridan tashqari, tasavvuf g'oyalari, folklor, mehnat va ijod, tabiat, hayvonot dunyosi kabi mavzular aks ettirildi.

Nazorat uchun savollar

1. Badiiy bezak deganda nimani tushunasiz?
2. Sahnada yoki maydon bezagida qanday o'xshash va farq qiladigan tomonlari bor?
3. Dekoratsiya tushunchasiga izoh bering...
4. Senografiya nima?
5. Go'ri amir, Shohizinda, Ichan qal'a, Registon maydoni, Mir Arab madrasasi Ismoil Somoniy maqbarasi, Chor Minor Bola hovuz machiti me'morchilik asarlarilarini tahlil qiling.
6. Qalam necha turdan iborat?

Mustaqil ish uchun topshiriqlar

1. Tahlagan mavzu bo'yicha sahnaning maketini yasang.
2. Madaniyat va san'at muassaslarida o'zingizga tanish bo'lgan badiiy bezak manbalaridan birini tahlil qiling.

3. Yoshlar ijodiyot markazining badiiy bezak nuqtai nazardan tahlil qiling.
4. Bayram tadbirlarida bezak ishlarni amalga oshirishdagi milliy bezak san'ati.
5. Binolarni bayramona bezatishdaga asosiy bezak turlar.
6. Rasm chizish bilan bog'liq ma'lumotlarni bering.

1.2. Badiiy bezak ishlarida dekorativ o'simliklar, gullar va matolardan foydalanish

Badiiy bezashda dekorativ o'simliklardan ya'ni gullar va boshqa dekorativ o'simliklar intererning istalgan joyida: vestibul, oshxona, ish yurituvchi xonalari va hokazolarda bo'lishi mumkin. Ularni joylashtirish masalasi qavatlarining umumiy kompozitsiyasida ham, intererning ayrim joylarida ham funksional, biologik va estetik talablardan kelib chiqib hal qilinadi.

Masalan o'quv yurtlari sharoitida funksional talablarni hisobga olish to'g'ri va aniq ma'no anglatadi. Gullarni qayerga o'rnatish ma'qul, ularga qanday taglik kerak bo'ladi? Misol uchun bargi katta va ko'pchigan gullarni xonalar derazasi tagligiga o'rnatish yaramaydi.

Birinchi qavat koridorlari va rekreatsiyalarida odamlar doimo harakatda bo'ladilar (ishdan bo'sh paytlari nazarda tutilmoqda). Shuning uchun bunday joylarda ularni og'ir taglik bilan devorga o'rtacha balandlikda o'rnatilgan ma'qul.

Biologik talablarni maxsus sharoitlar doirasidan kelib chiqib amalga oshirishni biologiyaga qiziquvchilarga yuklanadi. Bu shartlar o'simliklarning yorug'likka, issiqlikka har xilligidan iboratdir.

Ularni isitish manbalaridan turli uzoqlikda saqlash, suv ichirish rejimini, zarur bo'lgan havo namligini saqlab turish ham o'ziga xos bo'ladi.

Xonalar uchun mo'ljallangan o'simliklar turli-tuman bo'lib, biz quyidagilarni tavsiya etamiz.

Asparagus – nozik, ko‘ksimon yashil tusga ega bo‘lib, biroz qorong‘ilashgan joyda o‘lishga moyildir.

Aspidistra – yirik to‘q yashil bargli, oddiy o‘simlik.

Begoniya – yorqin rangli, yirik yaproqli o‘simlik bo‘lib, ko‘proq yorug‘likni talab etadi.

Gloksiniya – baxmalsimon yirik yaproqli, katta qo‘ng‘iroqsimon, chiroyli gullaydigan o‘simlik. Uning yaxshi o‘lishi va gullashi uchun yetarli darajada yorug‘lik tushib turishi kerak.

Xitoy atirguli – to‘q yashil, tikanak bargli bo‘tasimon o‘simlik, yirik pushti va qizil rangda gullaydi.

Paprotnik – quyosh nuriga to‘g‘ridan-to‘g‘ri chidamsiz o‘simlik bo‘lib, uni juda ko‘p sug‘orish va tez-tez suv sepib turish kerak.

Primula-deyarli yil bo‘yi gullaydi. Uni istish priborlariga yaqin qo‘yish yaramaydi. Uning gullari pushti, qizil, och binafsha rangda bo‘ladi.

Tradetskatsiya – pastga osilib o‘sovchi o‘simliklar turiga kiradi. Barglari kumushsimon kulrang, jigarrang, pushti, binafsha rangli yo‘llari bo‘lgan yashil ranglarda bo‘ladi. Yoz paytlarida tez-tez sug‘orib turish kerak.

Estetik talablar orasida rassom intererining ayrim joylari uchun o‘simliklarning o‘lish komponentlarini, ularning ayni shu joyga mosligini to‘g‘ri tanlay olishi muhim rol o‘ynaydi.

Intererdagi «yashil zonalar» bo‘shliqni ritmik to‘ldirish asosida yoki alohida guruh sifatida tashkil etilishi mumkin.

Demokrativ o‘simliklarni intererga o‘rnatishni planlashtirishga turli ko‘rinishdagi tangliklardan oqilona foydalanish maqsadga muvofiqdir. Polga o‘rnatiladigan tagliklar og‘ir, salmoqli bo‘lishi ham, aksincha, yengil, nafis bo‘lishi

ham mumkin. Ularning proporsiyalari o'simlikning xarakteri va og'irligiga qarab belgilanadi.

Odatda yuqoriga qarab o'sadigan baland dekorativ o'simliklarni past taglikka o'rnatiladi va aksincha. Taxta, plastika, temirdan past-baland qilib yasalgan tagliklarda bunday o'simliklar chiroyli ko'rinadi.

Bir va bir necha gullarga mo'ljallangan devorlarga o'rnatiladigan tokchalarning konstruktiv imkoniyatlari juda kengdir.

Hozirgi qurilayotgan binolarida doimiy gul ekish uchun ajratish mumkin bo'lgan joylar istalgancha topiladi. Bunday joylarda qishda ham, yozda ham gul o'stirish mumkin.

Bunday joylarni oddiy dekorativ plita va toshlar bilan jihozlanadi. Ularni turli ranglarga bo'yab o'ziga xos originalikka ega bo'lgan yashil burchak tashkil etish mumkin.

Unga o'tkaziladigan gullarning rang-barangligiga erishish bu burchakni yana ham jonlantirib ko'rsatadi.

Yuqorida aytilganlarga yana shularni qo'shimcha qilmoqchimizki, xonalarga o'rnatilgan dekorativ o'simliklar insonlarning psixikasi va asab sistemalariga hamda xona mikroiklimiga ijobiy ta'sir etadi. (haroratni pasaytiradi va namlikni oshiradi), havoning tarkibini yaxshilaydi, uni kislorod bilan ta'minlaydi.

Turli xil rangli matolar va gullar omixtaligi hozirgi kunda bezatish ishlari yaxshi yo'lga qo'yilgan

Dekorativ o'simliklar ta'lim-tarbiyaviy maqsadga ham xizmat qiladi. Intererdagi yashil burchak-bu o'ziga xos laboratoriya bo'lib, unda kishilar o'simliklarni parvarish qilish jarayonida ularning o'sishi, gullashi, ko'payishi, qisqasi hayoti bilan tanishadilar.

Dekorativ o'simliklar ayniqsa o'sib kelayotgan yoshlarimizda tabiatga muhabbat hissini uyg'otadi.

Badiiy bezakda amaliy san'at turlari bilan bevosita bog'liqligi haqida ham gaprib o'tish zarurdir.

Badiiy bezak bilan bir qatorda amaliy san'at ham – keng miqyosda rivojlanayotgan san'atimizning xalq amaliy ijodi turlaridan biridir. Xalq amaliy san'atining turlari haykaltaryoshlik, rangtasvir, arxitektura, raqs va musiqa bilan hamohangdir.

Unda kishining haqiqiy san'atga estetik munosabati yaqqol namoyon bo'ladi.

Bezak san'atining o'ziga xos estetik jihatlarini tushunish uchun uning mavzui, mazmuni, asardagi tiplar, badiiy texnika vositalari diapazonining odatdan tashqari katta miqyosini nazarda tutib qarash kerak.

Bu badiiy bezak o'ymakorligi –monumental, stanokli, predmetli-miqyos va turli xalqlarning milliy kiyimlari, so'zanalar, taqinchoqlar va istirohat bog'lari san'ati, devorlardagi monumental dekorativ rasmlar, vitrina, devoriy gazeta, tabriknomalarning bezaklari hamda mebel buyumlaridagi o'ymakorlik va hokazolardir.

Shakllari bir-biriga o'xshamagan bu asarlarni o'zaro biriktirib turgan jihati ularning asosiy vazifasi, asosiy funksiyasi-insonni qurshab turgan muhitni nafasat vositasida bezashdan iboratligidir.

Shuni ta'kidlash kerakki, dekorativ san'at turli-tuman bo'lsa ham, ularning ko'pchiligi amaliy-foydali obektlarga: liboslar, mebel, o'yinchoqlar, vitrinalar, binolar va hokazolarga badiiy ishlov berish jihati bilan o'zaro bog'lanadi.

Mana shu ma'noda dekorativ-amaliy san'at deyiladi. Biroq bezak san'atiga, yuqorida aytganimizdek, amaliy jihatdan bevosita foydasi sezilmaydigan asarlar ham qo'shiladi.

Masalan, zargarlik buyumlari, turli taqinchoqlar, o'ymakorlik buyumlari va boshqalar.

Bularning hammasi rassomlik yoki haykaltaryoshlikdan farqli ularoq kundalik konkret muhitda, o'zlarining xususiyatlariga kura konkret holatda foydalanilishiga estetik ma'no kasb etadi.

Inson yashayotgan va harakat qilayotgan muhitning nafasat boyligi ana shu muhitga olib kirilgan zeb-ziynat buyumlarining soni bilangina belgilanmaydi. Muhimi shundaki, bu zeb-ziynat elementlari mazkur muhitning

hayotiy sharoitiga moslashib uning ijtimoiy mazmuniga, odamlarning amaliy va ma'naviy ehtiyojlari vujudga keltirgan talablarga nechog'lik javob berishiga qarab ham baholanadi. Nafosat elementlari muhitni shunchaki bezabgina qolmasdan, balki uning badiiy obrazli mazmunini kuchaytirib, oshirib, rivojlantirib ham ko'rsatadi.

Dekorativ san'at mana shu vazifasini san'atning boshqa turlari – arxitektura, rassomlik, haykaltaryoshlik bilan birgalikda bajarsa, uning qimmatini yanada ortadi.

Bezak san'ati asarlarining diqqatga sazovor xususiyati ularning o'z vositalari bilan ma'lum davr doirasida sharoitning badiiy obrazli mazmunini dinamik tarzda o'zgartira olishidir.

Dekorativ san'atning shu xususiyatiga binolar, ko'chalarning bayramona bezatilishi misol bo'ladi. Bu bezatishlar o'sha joylarning odatdagi qiyofasini ma'lum vaqtgacha o'zgartirib turadi.

Bezak san'atining barcha turlariga oid asarlar, shu jumladan, ularga yaqin turuvchi grafik san'at asarlari ham ma'lum darajada mana shunday rolni bajarishi mumkin.

Masalan, bayramona tabriklar yoki tasvir tushirilgan vimpellar bunga misol bo'la oladi.

Har bir tarixiy davr alohida g'oyaviy va ahloqiy tasavvurlarni olg'a surib, kishilar ijtimoiy hayotining alohida ideallarini ifodalash ekan, takrorlanmas dekorativ san'atni vujudga keltirgan.

Bezak san'at asarlarida inson, jamiyat va o'z davrining xarakterli hissiyotlari to'g'risida mavjud g'oyaviy hamda axloqiy tasavvurlarni ifodalash san'atining rostgo'yliги yoki ta'sirchanligining asosiy shartidir.

Mana shu prinsipga amal qilinmasa, badiiy maqsadni hamda shaklni hal qilishda yasamachilik, asarda emotsional qiyofa bo'lmasligi, formalizm vujudga keladi.

Biroq bezak san'atining ta'sirli chiqishi uchun davrni tasvirlashdagi realizm uning birdan-bir sharti emas. Bezak san'at asarlaridagi ko'p jihatlari boshqa asosiy shartlarga ham bog'liq.

Shaklni ifodalashda ishlatilayotgan materiallarning, ko'p hollarda esa usullarning o'ziga xos jihatlari (o'ymakorlik, to'qimachilik buyumlari va boshqalar), o'ziga xos tomonlarini yaqqol ifodalanishi talab etadi.

Bezak san'atda umuman materiallar, ulardagi xususiy jiloning go'zallik sifatleri ayniqsa muhim, ba'zan esa yetakchi o'rin tutadi.

Bu holat bezak asarlar shakllarining o'ziga xos shartli tomoni bo'lib, u asarlar mazmuni umumlashtirilganligi va mavhumligining natijasidir. Ularni ko'pincha so'z bilan ifodalab bo'lmaydi.

Biroq materialning ko'rki bezak san'at asarlari mazmunidagi kamchilikni to'ldirish, uni «bo'yab ko'rsatish» kerak, degan so'z emas.

Ijodiy vazifalarni bunday tushunilsa, har doim asarlarning kompozitsiyasida formalizm, mazmunan qashshoqlikka yo'l beradi.

Bezak san'atda qo'llanadigan materiallarning estetik jihatdan eng kerakli sifatlari-yorqinligi, rangi, fakturasi, hajmi, vazni yoki pishiqliги hisobga olinadi. Bular

yaratilayotgan formalarning aniqlik darajasida, umumiy hajmining mutanosibligi va boshqalarda ko‘rinadi.

Materiallarning mana shu sifatlarni nazarda tutib, ularni to‘g‘ri tanlash asarning shakli va qiyofasini yaratayotganda bu sifatlardan to‘g‘ri foydalanish – mazkur asar beradigan taassurotlarni (masalan, bayramona, sport, o‘yin va badiiy tantanalar) ruhini to‘g‘ri yoritishni ta’minlaydi.

Intererni badiiy bezashda dekorativ - amaliy san’atning yog‘och va ganch o‘ymakorligi, naqqoshlik, dekorativ haykaltaryoshlik, mozaika, vitraj, chekanka va boshqa turlaridan foydalaniladi.

Amaliy bezak san’atining sifatsiz va saviyasiz namunalari, tasviriy san’atning boshqa turlariga bevosita bog‘lanmagan ayrim stendlar, devoriy gazetalar, chaqiriqlar, e’lon portretlar intererning ko‘rinishini buzmoqda.

Badiiy bezash ishlarida amaliy bezak san’ati elementlarini qo‘llashda asosan quyidagilarni nazarda tutish shart.

- qo‘llanilayotgan dekorativ-amaliy san’at namunasi interer xarakteriga mos bo‘lishi kerak;
- o‘quv xonasining vazifasini, unda shug‘ulanadigan o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va idrok etish qobiliyatlarini hisobga olib dekorativ – amaliy san’atga differensial yondoshish lozim (masalan, kichik yoshdagi o‘quvchilar shug‘ullanadigan rekreatsiyalarda tabiatga, o‘rta yoshdagi o‘quvchilar shug‘ullanadigan rekreatsiyalarda yuqori sinf o‘quvchilari shug‘ullanadigan rekreatsiyalarda kosmosga, sportga, mehnatga bag‘ishlangan dekorativ pannolar o‘rnatilishi ularga ma’lum darajada ta’limiy va tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatadi);
- Badiiy bezash ishlarida qo‘llanilayotgan dekorativ-amaliy san’at elementlari mavsumiy, ya’ni vaqti-vaqti bilan almashtirib turiladigan elementlar bilan mos bo‘lishi zarur;
- o‘quv yurtidagi badiiy bezash ishlarida qo‘llanayotgan amaliy san’at elementlari tasviriy san’atning boshqa turlari bilan uzviy bog‘lanishi kerak (rang-

tasvir, haykaltaryoshlik, grafika va arxitektura intererni badiiy bezashda bir-biriga garmonik bog‘lanmasa, hal qiluvchi omil bo‘la olmaydi).

Yuqorida ta’kidlanganidek, intererni badiiy bezashda bevosita uning vazifasidan kelib chiqqan holda ish ko‘rish lozim.

Agar o‘quv yurt muzeyi ko‘rgazmasi va ekspozitsiyalari haqida gap ketadigan bo‘lsa, eng avvalo, undagi fazo bo‘shlig‘i saqlanishi, eksponatlarni tomosha qilish uchun qulaylik tug‘dirilishi lozim. Yana shuni ta’kidlab o‘tmoqchimizki, badiiy bezash ishlarida dekorativ-amaliy san’at elementlarini qo‘llash murakkab jarayon bo‘lib, ko‘r-ko‘rona qo‘llaniladigan elementlar ko‘ngildagidek natija bermaydi. Ular avvalo yuksak badiylikka ega bo‘lib, o‘quv xonalari va intererlarning boshqa qismlarining vazifasiga, rang yechimlariga, undagi jihozlar, mebellar va yoritilganlik darajasiga mos bo‘lishi kerak.

Mamlakatimizda o‘quv yurtlarining intererlarini badiiy bezashda amaliy bezak san’atning naqqoshlik, yog‘och va ganch o‘ymakorligi kabi turlari uning boshqa turlariga nisbatan ko‘proq qo‘llanilmoqda.

Bu tabiiy holdir. Chunki dekorativ-amaliy san’atning xuddi shu turlari qadimdan e’zozlanib, juda ko‘p binolarni bezashda qo‘llanib kelingan.

Bunga Samarqanddagi Registon ansambli, Go‘ri Amir maqbarasi, Buxorodagi Minorai Kalon, Ismoil Somoniy maqbarasi, Xivadagi Islomxo‘ja minorasi, Toshkentdagi Ko‘kaldosh madrasasi, Qo‘qondagi Xudoyorxon o‘rdasi, Shahrisabzdagi Oqsaroy binosi va boshqalar misol bo‘la oladi.

Hozirgi paytda ham ma’muriy, turar joy va boshqa binolarni badiiy bezashda amaliy san’atning yuqorida aytilgan turlari keng qo‘llanilmoqda. Masalan, A.Navoiy nomidagi o‘zbek davlat akademik katta teatri, Toshkent davlat sirki binolari va hokazolar fikrimizning yaqqol dalilidir. Toshkent metrosining «Xalqlar do‘stligi» stansiyasida naqqoshlikdan, ganch o‘ymakorligidan, «Kosmonavtlar prospekti»da dekorativ devoriy suratlardan, «Chilonzor» stansiyasida sopol dekorativ figuralardan, «Alisher Navoiy» stansiyasida dekorativ-amaliy san’atning bir necha turlaridan

foydalanilgan. Bunday ishlarni respublikaning boshqa shaharlaridagi qator binolarda ham ko‘rish mumkin.

Korxona va tashkilotlarni madaniy ma’rifiy muassasalarni badiiy bezashda dekorativ-amaliy san’at turlaridan naqqoshlik ko‘proq uchraydi.

Naqqoshlik ishida yetakchilik rolini o‘ynovchi mustaqil vazifaga ega emas. U faqat badiiy bezash ishlarining badiiy sifatini boyitadigan, bo‘rttiradigan omil bo‘lib xizmat qilishi lozim.

Badiiy bezash ishlarida qo‘llaniladigan naqqoshlik san’ati ham ta’lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega. Unda ishtirok etadigan elementlar tabiat ne’matlari (paxta, barg, gul, g‘uncha, anor, bodom, nok, olma, lola, kurtak va hokazolar)ning stilizatsiyalashtirilgan formasidir.

Bir qarashda dekorativ-amaliy san’at alohida emasdek tuyulsa-da, o‘zining amaliy ishlarida tutgan o‘rni va badiiy xususiyatlari bilan bevosita dekorativ-amaliy san’at hisoblanadigan shunday zamonaviy turlari ham mavjudki, ularsiz intererni tasavvur qilish qiyin. Misol uchun metallarga badiiy ishlov berish, payvandlash, bukish, chekanak qilish, qirqish, bo‘yash va loklash orqali ulardan intererning turli burchaklarida turadigan gullarga taglik, eshik va derazalarga panjara, to‘siq va yoritgich va boshqa bezaklar yasash mumkin.

Bundan tashqari, badiiy bezash ishlarida keramikadan ham keng foydalaniladi. Dekorativ laganlar, turli pannolar, releflar, gultuvaklar, vazalar va hokazolar eng avvallo o‘quvchilarning estetik tarbiyasini takomillashtirishda katta yordam beradi.

Bizga ma’lumki, Interer, asadlar va xonalarni, devorlarni bezash ranglari turli yoshdagilarga turlicha ta’sir etishini hisobga olib amalga oshiriladi. Ko‘p hollarda ana shu ta’sirni bilmaydigan kishilar tomonidan devorlarni bezashda ayrim kamchiliklarga yo‘l qo‘yiladi.

Bu ish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha tadbirlarda badiiy kengash va badiiy bezak mutaxassislarining ishtirok etishi maqsadga muvofiqdir.

Devorlarni bezashda ranglarni o'z o'rnida qo'llash ularning psixologik ta'siriga alohida e'tibor berish lozim. Ranglarni o'z o'rnida qo'llanishi pirovard natijada targ'ibot va tashviqot ishlari sifatini oshirishga qaratilgan bo'lsa, psixologik ta'sirchanlik inson uchun maishiy va ma'naviy qulaylik yarata olishi kerak.

Xonalarini bezash uchun ranglar tayyorlashda ularning yorug'lik qaytarish xususiyatlarini nazarda tutish lozim.

Xonaning shakli, hajmi, unga tabiiy yorug'lik qay darajada tushishiga, sun'iy yoritish xarakteriga qarab devorlarini bezash uchun u yoki bu rangning tayinganligi aniqlanadi.

Ranglarning tayinganligini aniqlash uchun turli ranglarga bezalgan sirtlarning yorug'lik qaytarish koeffitsientlarini hisobga olish lozim.

Devorlarni bezashda qo'llanadigan asosiy ranglarning yorug'lik qaytarish xususiyatlari quyidagicha:

Oq - 85%	Kul rang - 55%
Och sariq- 75%	Yashil- 52%
Och yashil- 65%	Havo rang - 35%
Och ko'k- 65%	To'q qizil- 13%
Sariq - 65%	To'q ko'k rang 8%

Xonalarni bezashda deraza qarshisidagi devorlarning rangini yorug'lik qaytarish koeffitsienti 60%, ko'rgazma vositalar o'rnatilgan devor 50-60%, deraza o'rnatilgan devor 60-70%, poli esa 25-30% bo'lgani optimal hisoblanadi.

Xonalarining shifti yorug‘lik qaytarish ko‘fitsenti eng yuqori bo‘lgan oq rangga bo‘yaladi.

Ranglarning issiq yoki sovuq bo‘lib tuyuluvchi xususiyatlarini to‘g‘ri qo‘llagan holda devorlarni bo‘yash muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamiz iqlimining issiqligini nazarda tutgan holda ko‘proq sovuq ranglarni ishlatish maqsadga muvofiqdir. Bu ranglar xonadagi haroratni «psixologik» pasaytirish xususiyatiga ega.

Devorlarini bo‘yash bilan tabiiy yorug‘lik tushishini hisobga olish bir-biriga uzviy bog‘liqdir. Shimol, himoli sharq, shimoli g‘arb tomonlarda derazasi bor xonalarga qo‘yish nurining bevosita tushmay, osmonning ko‘kintir tusi tushadi. Bunday xonalarni yanada yorug‘ va qo‘vonchli qilish uchun iliq ranglar gammasiga bezash tavsiya etiladi.

Janub, anubi sharq, janubi g‘arb tomonlarda derazasi bo‘lgan xonalarga kun bo‘yi quyoshning issiq nuri tushib turadi.

Shuning uchun bunday xonalarning devorlarini sovuq gammadagi ranglar bilan bo‘yash maqsadga muvofiq koridorlarni, kichik yoshdagi o‘quvchilar uchun muljallangan xonalarni turli ranglarga buyash mumkin.

Bu yoshdagi o‘quvchilarning kuzi tabiatdagi ranglarning xilma-xilligiga o‘rgangan bo‘lib, ular zerikarli ranglarga bo‘yalgan xonada darrov toliqib qoladilar. Bundan tashqari devorlarni haddan ziyod rang-barang qilib bo‘yash ham yaramaydi.

Bolalarning asab sistemasi ranglarga nisbatan o‘ta sezuvchan xususiyatga ega bo‘lib, bunday xonalarda uzoq vaqt bo‘lishi ularning charchashi va kayfiyatlari buzilishiga olib kelishi mumkin.

Bu hol talabalarning ishlari va o‘qishlariga ma’lum darajada salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shuning uchun o‘quv xonalarini devorini bo‘yash juda ma’suliyatli ishdir.

Qo'shimcha ranglarni qo'llashda, ya'ni rang gammasi kontrastini tuzishda ularning yorqinligini juda kuchli qilib olish yaramaydi, chunki bu hol o'quvchi talabalarning psixikasiga qo'zg'ovchi ta'sir kursatadi.

Shu bilan birga ranglar zerikarli bo'lmasligi, ranglarning tuyinganlik darajasi har bir xil bo'lmasligi kerak. ranglarning biriga aksent berilsa, ya'ni u yorqin bo'lsa, ikkinchisi bosiqroq, xotirjam, ya'ni neytral bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Shuni doim yodda tutish lozimki, ranglar spektridagi sarg'ish-yashil rang ko'zni kamroq charchatadi.

Bu ranglar asab sistemasiga nisbatan kamroq salbiy ta'sir etib, tomirlarga normal qon to'planishini ta'minlaydi, eshitish qobiliyatini aktivlashtiradi.

Shunday ekan, xonalarning devorlarini ranglar spektridagi sarg'ish-yashil rang va undan kelib chiquvchi ranglarga bo'yash tavsiya etiladi.

Xonalarning umumiy rangli och, xotirjam bo'lganda xonalarning yoritilganlik darajasi ortadi. Ish jarayonida kishilarning ko'ziga doimiy tashlanib turuvchi devorlar va unga o'rnatilgan shitlar, yon devorlar ham uncha to'q bo'lmagan ranglarga bo'yaladi.

Harakatli dam olish uchun muljallangan xona va koridorlar (rekreatsiyalar) biron tuyinganroq ranglarga bo'yaladi.

Talaba o'quvchilar dam oladigan xonalarni esa shinam och ranglarga bo'yash tavsiya etiladi. Bu joylar yashil burchaklarni tashkil etuvchi dekorativ o'simliklar qo'yish uchun eng qulaydir.

Intereri ham juda muhim tarbiyaviy imkoniyatga ega bo'lgan muhit hisoblanadi va u yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga xizmat qilishi kerak.

Birinchi galda mavjud ta'lim-tarbiya metodlari va hozirgi zamon talablariga javob beradigan darajada badiiy bezatilmagan o'quv yurtlari intererini har tomonlama maqsadga muvofiq deyish mumkin emas.

O'quv yurtlarida ta'lim-tarbiyaning sifati, professor-o'quvchilar va talabalarning yaxshi kayfiyatda bo'lishi, ularning shu binolarda dam olishi hamda salomatligining yaxshilanishiga o'quv yurtlari binosining ichi maqsadga muvofiq bezatilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quv yurtlari intererlari – o'quv xonalari, kompyuter sinflari, kafedralar, institut bo'limlari xonalari, oshxona bo'lishidan qat'iy nazar, yuqorida aytilganidek, ta'lim-tarbiya ishlariga albatta ta'sir ko'rsatadi.

Inson tushunchasiga ta'sir ko'rsatayotgan muhit uning ruhiy olamiga ham, atrofdagi narsalarga munosabatiga ham u yoki bu darajada ta'sir ko'rsatadi.

Shuning uchun kishini qamrab olgan muhitga, shu jumladan, ta'lim muassasalaridagi intereriga ham tarbiyaning ajralmas qismi sifatida qarash lozim.

Intererdagi har bir element dam olish joyidagi kartina ham, xonalarning rangi ham, mebellarning formasi ham, hatto, zinapoyalar ham talabalar psixologiyasiga oz yoki ko'p ta'sir ko'rsatib, ularni atrof-muhitni idrok etishga, go'zallikni tushunishga o'rgatadi.

Intererdagi o'quv xonalarini rejalashtirishda avvalo har qaysi guruh talabalarining mashg'ulotlari boshqa guruhlarga halaqit bermasligiga e'tibor berilishi lozim.

Binolarning joylanishi deyarli bir xil. Shuning uchun ularni jihozlash va bezashda intererlarning o'ziga xos bo'lishiga erishish juda muhimdir.

O'quv yurtida o'rganiladigan fanlarning mazmunidan qa'ti nazar, ta'limning bir necha shakl va metodlari mavjud bo'lib, bular o'quv xonalarining jihozlari va ularning joylashuvini belgilaydi.

Bunda turli omillar qatori talabalarning psixologik – fiziologik xususiyatlari ham nazarda tutiladi. Ta'limning asosiy shakllari kollektiv, grupp va individual mashg'ulotlardir».¹

¹ Паниев А.Д. Интерьер. М.: "Высшая школа" 1997, 102 бет.

Intererlarning zamon talablari darajasidagi jihozlari va badiiy bezaklari talabalarni estetik tarbiyalashda, ularning tasavvuri ham didini rivojlantirishda yordam berishi kerak.

O'quv intererini badiiy bezashda tasviriy san'atning ko'p turlari monumental va dekorativ haykaltaryoshlik, yog'och va ganch o'ymakorligi, mozika va hokazolar keng qo'llanmoqda.

Talabalarning o'zlarini ana shu ishlarga jalb etish eng avvalo ularda o'quv yurt binosiga, undagi jihozlar va bezaklarga ehtiyotkorona munosabatni tarbiyalashda pedagoglarga katta yordam beradi.

Zamonaviy arxitektura namunalari intererdagi barcha elementlar uslubiy birligi bilan ajralib turadi. Intererni garmonik hal qilish undagi elementlarning munosabatini to'g'ri topishga, ya'ni xona, undagi mebel, ranglar, yoritgichlar, bezak elementlari va hokazolarning formalari o'zaro uyg'unligiga bog'liq. Intererdagi barcha elementlar bir xil muvozanatda bo'lmasligi kerak. Chunki bunday holda ular o'quvchilarga salbiy ta'sir ko'rsatish, ularni tez charchatib qo'yishi mumkin. Shuning uchun intererdagi ayrim elementlarni jozibaliroq qilib, qolgan elementlarning unga hamohangligini ta'minlash maqsadga muvofiqdir. Jozibaliroq elementlar binoning (xonaning) asosiy funksional vazifasini aks ettirib turishi kerak.



Matolar va rangli sharlar omixtaligi (2-rasm)



Matolar va gullar omixtaligi (3-rasm)

Bayramona sahna, ko‘chalar yoki bino ichini bezashda turli xil rangli matolardan bezatish yaxshi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib buning ustida malakali dizaynerlar ish olib boradi.

Mutaxassislar tomonidan bayram mavzulariga qarab bir necha chizma eskizlar va namunalar , tayyor bukletlar beriladi tayyorlovchi bezak dizaynerlari esa turli matolardan maxsulotlarini ishlab chiqadi va tayyor holda namoyish etadi.

Ishchi guruh va bezakchi mutaxassislar tomonidan tanlangan ish mahsuloti mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi.

Ochiq maydonlarda o‘rnatilgan bayramona sahnalar, arklar, yasama chodirlarni bezatish ishlari kishilar kayfiyatini oshirish uchun xizmat qiladi.

Bayram kunlari nafaqat sahna maydonchalar balki baramona o‘rnatilgan savdo shaxobchalar, bolalar o‘yin maydonlari, ovqatlanish joylari hatto kishilar dam olish uchun o‘rnatilgan stol, stullar, o‘tirish uchun o‘rnatilgan skameykalar ham turli matolar bilan bezatilishi muhim ahamiyatga egadir.

Floristika — bu soha mutaxassislar ham gullar bilan bayram bezaklarida ko‘p bor ishlatilib kelinmoqda. (4-5-rasm)



Bayram sahnasining gullar bilan bezatilishi (4-rasm)



Bayramona bezatishda gullar bilan matolar omixtaligi (5-rasm)

Respublikamizda o‘tkazilib kelinadigan bayram kunlari aynan:

- O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligi kuni
- Ustoz va murabbiylar kuni
- “O‘zbek tiliga” Davlat tili maqomi berilgan kun
- O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi kuni,
- Vatan himoyachilari kuni,
- 8 mart Xalqaro xotin- qizlar bayrami,
- Navro‘z umumxalq bayrami,
- Xotira va qadrlash kunlarida gullar bilan bezatilishning turli formalari

mavjud bo‘lib bayramga xos va mos ravishda bezatilishi uchun mutaxassislar o‘z mahoratlarini bajarish jarayonida milliylikka ham katta e’tibor qaratishadi.

Bayram kechalarini bezatish ishlarida turli rangli matolardan foydalanib bayramlarni bezatish ishlari ham an’anaga aylanmoqda.

Bayram kunlari stol, ullarni bezatishda chiroyli did bilan bezatish malaka talab qiladi, shunday ekan malakali mutaxassislar aynan shu soha gullar bilan bezatish ishiga yoshlarni jalb etish e'tirof etilmoqda.

Bayram sahnalarini, yo'laklarni, tomosha zallarini bezashda rangli matolar bilan gullarning omixtaligi ko'p bor ishlatilib kelinmoqda. (7-8-rasmlar)

Hozirgi kunda matolar va gullar bilan omixta bezatishlar ham yaxshi natija bermoqda (8-9-10-rasmlar)

Hozirgi kunga kelib butun dunyoda rivojlanib va qo'llanib kelinayotgan "landshaft" bezagi haqida ham to'xtalish joizdir.

Landshaft bezaklari orqali turli bayram ko'chalarini, binolarni yo'laklarni bezatilishi haqida biz ko'p bor kuzatganmiz.

Landshaft bezaklari bir necha turli va turli rangbarang gullar bilan bezatilishi bilan ajralib turadi.

Landshaft bezagining yana bir xususiyati rangli toshlar, shishalar va gullar omixtaligidadir.

Hozirgi paytda mamlakatimizda ham landschaft bezagi yaxshi yo'lga qo'yilgan va barcha shahar markazlari, muassasalar, uylar, binolar atrofini bezatishda yaxshi yo'lga qo'lgan.

- Landschaft (nemischa Land-yer, schaft – manzara. (5-rasm)
- 1) tipologik tabiiy komplekislarni umumlashtiruvchi tushuncha: geologik zamini, relefi, iqlimi, tuproqlari, o'simlik turkumi, hayvonot dunyosi, gidrologik rejimining bir hilligi bilan ajralib turadigan va tabiiy chegaraga ega bo'lgan hudud. Landschaftshunoslikda landschaftning 3 xil tushunchasi mavjud:

1) regional tushuncha, bunda landschaft yer yuzasining tabiiy chegaralangan uncha katta bo'lmagan qismi tushuniladi;

2) tushuncha tipologik birlik bo'lib, bunda Landschaft termini barcha tasnif birliklariga nisbatan qo'llaniladi"

3) umumiy tushuncha, bu holda Landshaft terminini turli katta-kichiklikdagi tabiiy geografik komplekslarga nisbatan qo'llanilishi mumkin.

Maye, tundra, dasht, tog' va hokazo Landshaft turlari mavjud.

Bundan tashqari Geografik va Madaniy Landshaftlar mavjud.

2) me'morlikda – bog'rog'li joylarning umumiy ko'rinishi, manzarasi;

3) tasviriy san'atda – manzara janri.

Landshaftshunoslik – tabiiy geografiyaning bo'limi, turli darajadagi murakkab tabiat va tabiiy-antropogen geosistemani o'rganadi. Landshaftning asosini geografik landshaft haqidagi ta'limot tashkil qiladi. Barcha geografik majmualar – landshaft qobig'i va geografik mintaqalardan tortib eng kichik ya'ni landshaft, joy, mavzegacha bo'lgan majmualar landshaftning tadqiqot obektiga kiradi. Ba'zi tadqiqotchilar landshaftni faqat landshaftni va uning tarkibiy qisimlari bo'lgan joy, mavze, fatsiyalarni o'rganadigan fan deb hisoblaydilar. Ushbu fanning asosiy tadqiqot metodi – yer yuzasida obektiv mavjud bo'lgan landshaftlarni aniqlash, ularni bevosita joyida kuzatish, haritaga tushirish, har tomonlama tavsiflab berishdan iboratdir. Landshaftlar ta'rifi miqdori va sifat ko'rsatkichlariga asoslanadi. Landshaft aniqlagan qonuniyatlar tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni muxofaza qilishga yordam beradi.

Landshaft faniga Rossiyada V.V. Dokuchayev va uning maslakdoshlari L.S. Berg, G.N Visotskiy, A.A. Grigorev nemis geografi Z. Passarge asos solgan. Ular tuproq zonalarini o'rganib, landshaftlarning zonallik qonuniyatini ishlab chiqishgan.

O'zbekistonda Landshaft bilan 1960-yillardan shug'ullanila boshlandi.

Landshaftda hozirgi vaqtda bir qancha ilmiy yo'nalishlar shakllangan.



Lanshaft bezak gullar (5 rasm)



Sahnalarni gullar va matolar bilan bezalishi (6-rasm)



Sahnalarni bayramona bezatilish (7-rasm)



Mato va gullar bilan bezatish. (8-9-rasmlar)

Bayram kunlar arklarning bezatilish

Nazorat uchun savollar

1. Badiiy bezakda qanday gullardan foydalaniladi?
2. Sahnada yoki maydon bezagida qanday o'xshash va farq qiladigan tomonlari

bor?

3.Sahna dekoratsiya tushunchasiga izoh bering...

4.Sahna senografiyasi haqida?

5.Go'ri amir, Shohizinda , Ichan qal'a, Registon maydoni, Mir Arab madrasasi Ismoil Somoniy maqbarasi, Chor Minor Bola hovuz machiti me'morchilik asarlarilarini tahlil qiling.

Mustaqil ish uchun topshiriqlar

1.Tahlagan mavzu bo'yicha sahnaning gullar maketini yasang.

2.Madaniyat va san'at muassaslarida o'zingizga tanish bo'lgan badiiy bezak turi haqida ma'lumot bering.

3. Yoshlar ijodiyot markazida bezak to'garaklarini tahlil qiling.

4.Bayram tadbirlarida gullar bilan bezatish ishlarni amalga oshirishdagi milliylik.

5. Ko'chalarni bayramona bezatishdaga asosiy bezak turlar.

1.3. Bayram bezaklari va spektakl sahnalarida badiiy tasvir prinsiplari.

Teatr tomoshalari maydon makonining professional sahna-quti bilan almashtirilishi o'ynaluvchi senografiyaning dekoratsiya san'atiga aylanishiga olib kelgan va bir necha tizimga bo'lingan, masalan;

Senografiya (sahna dekorsiyasi-sahna bezagi) Jahon teatrshunoslik fanida ssenografiya sohasida yaratilgan tarixiy va tarixiy-nazariy tadqiqotlar, ularda qo'llanilgan metodologiya, ilmiy izlanishlarning natijalari o'zbek ssenografiyasi taraqqiyoti bilan parallel o'tkazish imkonini beradi. Tadqiqotlarda asosan "ssenografiya" atamasi qo'llangan holda sahna bezagi, teatr dekoratsiyasi va ssenografiya san'atining jahon teatr tarixida mavjud uch tizimi belgilab berilgan.

Birinchi tizim - bu "o'ynaluvchi (igrovaya) ssenografiya". Bu tizim barcha mamlakatlar va xalqlarning ham folklor teatriga, ham kasbiy teatriga xosdir. O'ynaluvchi ssenografiyaning eng muhim funksiyasi - uning barcha elementlari bilan (ya'ni, maskalar, liboslar, jihozlarning) aktyorlik san'atida bevosita ishtirokidir.

Aktyor ijrochiligining ajralmas sinkretik komponenti sifatida o'ynaluvchi ssenografiya turli-tuman ifoda vositalari diapozoni kengligi bilan ajrabli turadi.

Teatr tomoshalari maydon makonining professional sahna-quti bilan almashtirilishi o'ynaluvchi ssenografiyaning dekoratsiya san'atiga aynalishiga olib keldi.

ikkinchi tizim- "dekoratsiya san'ati"dir. Muhit tushunchasi bilan chambarchas bog'liq bu san'atning hukmron funksiyasi spektaklning voqealar o'rni tasvirini yaratishdan iborat.

Holbuki, rassom funksiyasi voqea o'rninigina tasvirlash emas, balki spektaklning mazmunini belgilovchi real voqelikning o'zi, dramatik konflikt, mavzu, leytmotivlar tashkil etadi. Bu esa rassom san'atining sahnaviy hatti-harakatning ajralmas komponenti ekanligini anglatadi.

Shu tarzda ssenografiyaning uchinchi harakatlanuvchi ssenografiya tizimi vujudga keladi. Rassom san'ati yana aktyorlik san'atining ajralmas komponentiga aylanib, aktyor ijrochiligiga bog'lanadi, faqat endi xalq teatri sinkretizmi darajasida emas, balki sahnaviy sintez miqyosida namoyon bo'ladi.

Ayni chog'da, harakatlanuvchi ssenografiya yuqorida qayd etilgan boshqa sistemalarning tamoyillariga ham (maydon tomoshalari uslublariga yoki dekoratsiya san'ati shakllariga) murojaat etishi mumkin. Ya'ni u mohiyatiga ko'ra ko'pfunksionalli (polifunksional)dir.

Shunday qilib, sahnaviy bezakda mavjud o'ynaluvchi ssenografiya sistemasi aktyorlik ijrosini organik ravishda ajralmagan elementi sifatida; dekoratsiya san'ati sistemasi spektaklning muhit tasvirini aniqlashda, voqea o'rnini belgilashda, harakatlanuvchi ssenografiya sistemasi sahnaviy harakat mazmuni, dramatik konflikt, spektakl mavzusini ochib berishda faol qatnashib, har biri teatr san'ati tarixida o'z o'rni, o'z funksiyalariga ega bo'lib keldi. Ular teatr bezak san'atining turli bosqichlari bo'lsa-da, hamon yonma-yon, ba'zan birgalikda faoliyat ko'rsatib keladi.

Musiqali teatrlar bilan shug'ullanadigan mutaxassislar fikriga ko'ra, ssenografiya uch ma'noga ega: birinchisi - badiiy soha, ikkinchisi - badiiy bezak, uchinchi - dekoratsiya san'atiga muqobil ijod ko'rinishidir. Dekoratsiyada asosiy e'tibor bezakka qaratilsa, ssenografiyada funkcionallik bosh mezondir. Musiqali teatrdagi dekoratsiya rangtasvirda, ssenografiya esa sahnaviy makonning tashkil etishda ko'rinadi. Dekoratsiya o'z vaqtida voqealar o'tadigan joyning foni bo'lsa, ssenografiya harakat maydonidir. Dekoratsiya tasviriy ravishda bayon etishni, ssenografiya esa tasvirni lo'nda, aniqlik bilan saralashni nazarda tutadi. Dekoratsiya u yoki bu ma'noda muhit tasvirini aynan ko'rsatsa, ssenografiya majoziy umumlashma tasvir yaratadi. Dekoratsiyada surat, ssenografiyada obraz muhim bo'lib, spektakl rejissyori va rassomning individual qarashlari birlashib yaratilgan sahnaviy kompozitsiya sifatida ko'rinadi.

Bugungi kunga kelib, dekoratsiyaning beshta tizimi shakllangan bo'lib, har birining tarkibi topishi va rivojlanishi, boshqa tizimlar bilan aloqalari dramaturgiya, teatr estetikasi, tarixiy davr hamda fan va texnikaning o'sishi bilan bog'liq. Bu "ko'chma yon dekoratsiya" (kulisnaya peredviynaya dekoratsiya), "ko'tarma arkaliyon dekoratsiya" (kulisno-arochnaya podyomnaya dekoratsiya), "pavilyonli dekoratsiya" (pavilyonnaya dekoratsiya), "hajmli dekoratsiya" (obyomnaya dekoratsiya), "proyeksiyalik dekoratsiya" (proyeksionnaya dekoratsiya) tizimlaridir.

20-asr teatrida ssenografiyaning o'nta uslubi qo'llanilganligi aniqlandi. Shulardan biri sahnada real voqelikni ifodalovchi bayoniy (povestvovatel'naya) dekoratsiyadir. Bayoniy dekoratsiyadan ssenografiyada "persiflyaj" deb atalgan butun bir yo'nalish yuzaga keldi. Qadimgi va eski teatr shakllariga murojaat qilgan holda, pesada ko'rsatilgan davr va voqea o'rni qanday bo'lsa, shunday aniq ifodalash bu yo'nalish mohiyatini belgilaydi.

Majoziy (metaforik) dekoratsiyada esa katta umumlashma quvvatga ega bo'lgan majoz-metafora dramaturgik asarning asosiy g'oyasini aniq va obrazli qilib ifodalay oladi. Rassomning asar voqealarini bevosita idrok etishi natijasi sifatida yuzaga

keladigan tasviriy dekoratsiya syujetlari turli-tuman: real peyzaj, interer, shartli ornamentlar va abstrakt manzaralar. Bu turdagi dekoratsiyalar odatda opera va balet hamda musiqali drama spektakllarini bezashda ishlatiladi.

Konstruktivistik dekoratsiya o'z paytida tasviri y dekoratsiyaga qarama-qarshi qo'yilgan. Yassilik o'rnini hajm egallagan. Bu uslubda sahna konstruksiyani joylashtiruvchi maydonga aylanadi, uning ma'nosi aktyorlar bilan aloqaga kirishganda ochiladi. Agar konstruksiya sahna makonining neytral joyida qurilgan bo'lib, voqealar o'sha konstruksiyada vertikal olib borilsa, me'moriy-makoniy (arxitekturo-prostranstvennaya) dekoratsiya butun sahnani egallaydi va makon bu yerda spektakl obrazini yaratishda hal etuvchi komponent sifatida keladi.

Dinamik (harakatchan) dekoratsiyada chiroq ustalari, rassom va sahna mashinisti faol bo'lishi kerak. Ssenografiyaning ma'lum bir tasvirlarni ekranga tushirish orqali bajariladigan proyeksiyali dekoratsiya uslubi makonni fizik jihatdan o'zgartirmagan holda tomoshabinga yaqinlashtirishga imkon beradi.

Zamonaviy teatrd a **o'yinli-improvizatsion** dekoratsiya katta o'rin egallaydi. Bu uslubning kelib chiqishi qadim tarixga, Sharqdagi masxaralar, G'arb shpilmanlari, del arte komediyasi ijrochilari, rus **skomoroxlari san'atiga borib taqaladi**.

Dekoratsiyaning oxirgi uslubi **rampa tashqarisidagi** dekoratsiya bo'lib, voqealar bevosita tomoshabinlar zaliga olib tushiladi. Dekoratsiyaning bu turi real dekoratsiya tamoyillaridan voz kechish yo'lidagi birinchi qadam bo'lib, sahna makonining o'zgarishiga olib keldi. Me'moriy jihatdan sahna va zalga bo'linmagan yagona plastik muhit paydo bo'ldi.

Alqissa, yevropa rusumli yangi o'zbek teatri, bir tomondan, boy tarixga ega bo'lgan an'anaviy teatr bilan bog'liq holda, ikkinchi tomondan, umumjahon teatrining uzviy bir qismi sifatida tarkib topib, rivojlanib kelgan barkamol san'atdir. Uning ssenografiyasi ham jahonda mavjud ochiq maydonlar, amfiteatrlar, sayilgohlarda; binolar ichida, tomoshaxonalarda, ko'shklarda, ayvonlarda, supalarda

ko'rsatib kelingan tomoshalar va spektakllarda ishlatilgan bezatish tamoyillari, mezonlari, uslublari va vositalariga tayangan.

Yuqorida ko'rib o'tilgan umumjahon teatr san'atida ssenografiyaning o'rni, funksiyalariga oid barcha masalalar, teatrning ochiq va yopiq makonini qurish va bezatish tamoyillari, mezonlari, dekoratsiya uslublari, usullari, vositalari - barchasi o'zbek teatriga bevosita taalluqlidir.

Teatr uchun bezaklar tayyorlash texnologiyasi -bezaklar tayyorlash texnologiyasi va texnikasi xususida. Bezaklarning teatrga ko'p yillar xizmat qilishi. Bezaklar tayyorlashning amaliy va iqtisodiy ahamiyati, bezaklarning badiiy sifatining ahamiyati.

Bezaklar turlari, pavilyon bezaklarni tayyorlash jarayoni. Teatrda qo'llaniladigan eshiklar, teatr derazalarining ko'rinishi. Arqonlarning bezak ko'rinishlaridan farqi.

Bezak stanoklari. Hajmli, karkasli bezaklar- bezak stanoklari sahnani bezashda qo'llaniladigan teatr stanoklaridan hisoblanishi. Teatr stanoklarini turli shaklda va hajmda bo'lishi. Past va enli stanoklar, zinalar, zamonaviy yoki klassik spektakllarda bezakli zinalardan foydalanish. Ularni turli ko'rinishlarda tayyorlanishi. Zinalarning turlari. Qattiq bezaklar. Sahna furkalaridan, spektakllarni bezashda foydalanish. Furkalarning tuzilishi va sahnada joylashuvi.

Hajmli, karkasli bezaklarning turlari. Bezaklarni sahnaga olib chiqishdan oldin tamg'alanishi. Teatr mebellari spektakllarni bezab turishi uchun zamonaviy, turli uslubdagi mebellar tayyorlanishi, ixcham shaklidagi mebelning teatr uchun muhimligi.

Liboslarni yumshoq yoki yarim yumshoq bo'lishi. Yumshoq bezaklarning ahamiyati. Ularni tikish va shakl berish usullari. Sahna kiyimlari sahnani berkitib turish uchun xizmat qilishi.

Sahna kiyimlarini tayyorlaydigan mato turlari. Sahna kiyimlarini kabinet usulida osilishi. To'shamalar tayyorlashda yirik iplarlardan foydalanishning sabablari. Sahna ustunlarining yasalishi.

Teatr butaforiyasi- sahna qutisini vujudga kelishi va rivoji.

Teatr butaforiyasini tayyorlash teatr texnologiyasi - Bunga qog'oz qorishmasi, karton, metal, sintetik materiallar va polimerlar, matolar, laklar, bo'yoqlar, mastikalar kabilar ishlatilishi. Quyish, kartonlash, bezak va chilangarlik ishlari, matolarga gul bosish, metal o'yish, zargarlik buyumlari tayyorlash va boshqa ko'pgina ishlar ham butaforiya sohasini qamrab oladi.

Mavjud usul va uslublardan butaforlarni ishlab chiqarish asosini tashkil qiluvchi eng asosiy texnologik jarayonlarni ko'rsatish mumkinligini biz bilamiz. Ularga pape-mashe, metal, plastmassa, sintetik materiallar, mastika va siqmalar kirishi yaxshi natija beradi.

Bu har bir jarayon alohida yoki boshqa mahsulotlar bilan qo'shilgan ravishda yasalishi esa ishning murakkabligini ko'rsatadi.

Pape-mashe usuli quyish, kesish, shakl berish usullari bilan qog'oz qorishmasi, loy, gips kabilardan tayyorlanishi bilan bezash sahna bezaklari ichida murakkab ish hisoblanadi.

Pape-mashe usuli bilan mevalar, idishlar shakli kabilar yasaladi. Ularga tabiiylik bag'ishlash uchun bo'yoq bilan qayta ishlab chiqilishi mutaxassislardan mahorat talab etadigan jarayon.

Teatr butaforiyasini tayyorlashda sim, tunika, burchak metallardan foydalaniladi.

Yelim, un, gips, bor, qog'oz kabilardan tayyorlanadigan plastik qorishmalar mastika deb yuritiladi.

Bundan tashqari yoritish butaforiyasi ham mavjud bo‘lib asosan qandillardan iborat ekanligini ko‘pchilik bilmasligi aniq. Bezaklarga fakturali ishlov berish sahnani bezashda ko‘pdan beri ishlatilib kelinadi.

Bezaklarning badiiy sifati fakturalarga ishlov berish usuli va tayyorlash texnologiyasiga bog‘liqligi ishlarni sifatli bo‘lishini ta‘minlaydi.

Teatr haqidagi tasavvurlar 15- asrning ikkinchi yarmi va 16- asr boshlarida vujudga kelgan. Dastlab yopiq binodagi teatlardan foydalanilgan. Saroy tomoshalari Italiyada keng tarqalgan. Ularni bezashga eng yirik rassomlarni jalb qilingan.

O‘zgartiriladigan bezakli teatlarni vujudga kelishi, oddiy tomosha nomerlari mustaqil janr sifatida ommaviy tomosha ko‘rinishlariga aylanishiga sabab bo‘lgan.

16-17- asrlarda intermediyalar ommalasha boshlaydi. Hozirgi ko‘rinishdagi shtanka ko‘targichlari 19-20- asrlarda vujudga kelishiga sabab bo‘lgan.

Ommaviy bayramni bezai va yoritilish ahvoli unchalik ham ko‘ngildagidek emas.

Ommaviy teatrlarning vujudga kelishida tomoshabinlar muammosi ham asosan teatrlarning bezatilish ishlari yaxshi emas va sifatsiz edi.

Sahna qutisi va uning texnikasi. 17-18- asrlarda Italiya teatriga xos bo‘lgan kulisli quti sahnalarning qurila boshlanishi bezak ishlariga e‘tiborni kuchaytirdi.

O‘sha davrda teatrga dam olish uchun spektaklga kelgan tomoshabinlar uchun elektr yoritgichlarning ahamiyati ham katta edi. Sahnani bezash va yoritish sohalaridagi yutuqlar 19-asrning ikkinchi yarmida sahna shakli, teatr texnikasi va badiiy bezash muammolari umumiy e‘tiborda ekanligi e‘tirozlarga chek qo‘ydi..

Bino ichini alohida xonalarini bayramona tus berib bezatishga rioya qilish kerak bo‘lgan badiiy-tasviriy prinsiplar hamda vositalar umuman o‘quv yurtlarining zallarini, stendlar va ko‘rgazmalarni odatdagidek bezatishdan unchalik farq qilmaydi.

Bunda faqat bezakning dekarativ elementlari mazmuni, shuningdek, ularni badiiy ijro etishning bayramona ruhi ko'zga tashlanib turishi kerak. Binoning tashqarisi, uning maydoni hamda talabalarning chiqishlaridagi bayramona kompazitsiyalar keskin o'ziga xos jihati bilan e'tiborni jalb etishi lozim binoning tashqi qiyofasi uning bayram kunlaridagi birinchi tantanavor nuqtasidir.

Uning bezaklari mazkur bayramning mazmunini aks ettirishi, ixcham hamda chiroyli bo'lib, tomoshabinga bayramning asosiy g'oyasini yetkazishi kerak va bu jixatdan biroz plakatga o'xshashi mumkin.

Bino tashqarisini bezatishda uning joylashgan o'rnini hisobga olish kerak, chunki o'quv yurt mana shu atrof va undagi binolar orasida bayramni ifoda etuvchi asosiy elementlardan biri bo'lib turadi.

Besh qavatli tipovoy o'quv yurtlarining binosi keyingi vaqtda qurila boshlangan uch qavatli «samolyot» tipidagi binolardan afzallik tomonlari bor. Uning yon tomonidagi fasadi deraza o'rinlaridan ozod yassi tekislik bo'lganligi uchun bu joydan bayramona bezaklar osish uchun foydalanish, bu yerga rangli lentalar, matolar, ipga tizilgan bayroqchalarni o'rnatish mumkin. Ammo bu yerda ham bezaklarni o'rnatish uchun dag'al materiallarni maxkamlash murakkabroq ishdir. Bu yerda turli rangli material tortib romga o'rnatilgan hamda deraza tochkalariga joylashtirilib, romga arqonlar bilan maxkamlangan bezak ham asosiy dekorativ element bo'lishi aniq. Mana shu rangli matolar va binoga kiraverishdagi bezaklar, bino markazidagi bayroq bilan birgalikda binoning orasta, bayramona ko'rinishiga hissa qo'shadi.

«Samolyot» tipdagi uch qavatli binolarning fasadida derazasiz devor bo'lmaydi. Ammo bunda ham bezatishning ma'qul shakllarini topish mumkin.

Agar bezakni bino devoridan unga yondashgan bo'shliqqa ko'chirilsa, buni amalga oshirish oson bo'ladi.

Bayramning muhim qismi o'quvchilarning miting bo'ladigan joyga –qishloq markaziga yurishidir. Bu yurish- bayramning kulminatsiyasi hisoblanadi. Shu sababli rassomning ham unga loyiq bezaklar topishi mas'uliyatli ishdir.

Rassom binoni bezatishdagi kabi bu yurishni bezatishda ham yil faslini, mazkur joyning o'ziga xos sharoitini hisobga olishi kerak.

Bu bezaklar turli shakl va ko'rinishdagi elementlardan tashkil topishi mumkin. Mana shu elementlardan ularni har xil tarzda qo'shib foydalanish natijasida turli rang va konstruksiya variantlar hosil qilinadi. Har bir elementning o'ziga xos jihati yangi elementni yuzaga chiqaradi.

Binoni bayramona bezatishning asosiy materiallari sifatida an'anaviy turli rangdan mato, qog'oz va guash ishlatiladi. Yangi materiallardan ham foydalanish mumkin. Ba'zan badiiy jihati unchalik ko'zga tashlanmaydigan, biroq ustalik bilan foydalanilgan materiallar ham yaxshi bezak sifatlarini namoyon eta oladi.

Masalan; faner, karton, polietilen, sim, porolon va boshqa juda ko'p narsalarning bo'laklaridan bezashda yaxshi foydalansa bo'ladi.

Katta fotosuratlar, fotografika, rasmlar, fotomontaj va plakatlar, katta bannerlar bino oldidagi stendli konstruksiyalar, transporantlar, kichik hajmli grafikadan ham foydalanish mumkin. Mabodo bayramona bezatishning mazmun va estetik normalariga mos tushsa, har qanday ijodiy kashfiyot ham shodlik, quvnoqlikni yorqin va ochiq ifodalash vazifasiga xizmat qiladi.

Tarbiyaning ajralmas qismi bo'lmish estetik tarbiyani amalga oshirishda drama to'garagining ham o'ziga xos o'rni bor. Teatrda ixlosmand insonlar bu to'garakda turli kechalarga tayyorgarlik ko'radilar, spektakllardan parchalar tayyorlaydilar.

Tashkilotchilarning bir maqsadga qaratilgan ijodiy mehnatlari ularning spektaklning asosiy mohiyatini ochib berishga o'rgatadi, san'at borasidagi iste'dodlarini kamol toptiradi va rivojlantiradi, shuningdek, ularga topshirilgan vazifaga mas'uliyatli munosabatni tarkib toptiradi.

Bizga ma'lumki muvaffaqiyatli sahnalashtirilgan asarlaridan biri ozarbayjon dramaturgi Said Urdubodining "Andalusning so'nggi kunlari" dramasi asosida yaratilgan spektakl bo'lib (1919, 12 avgust va 1920, 26 martda ko'rsatilgan), sahna madaniyatini o'zlashtirishda teatrning jiddiy ijodiy bosqichga ko'tarilganini namoyish qiladi. Spektakl yangi shahar istirohat bog'i (oldingi Gorkiy bog'i, hozirgi Toshkent hokimiyati hududi) sahnasida o'ynalgan. Spektakl uchun maxsus dekoratsiya ishlangan.

Aniqlashimizcha, dekoratsiyalarni ishlagan avstriyalik rassom Maks Ayxberg ekan. Rassom butun mahoratini ishga solib, asar mazmun-mohiyatini to'g'ri ochib beruvchi dekoratsiya yaratgan. Uning har bir ko'rinish, voqea o'rne va vaqtiga hamohang dekoratsiyalar ishlashi, ularning tez-tez almashinib turishi, ilk bor teatrda nur-shu'lalarning qo'llanilishi o'z samarasini bergan.

1924- yilning 20- iyunida O'lka Namuna teatri tomonidan "Kolizey" binosida ko'rsatilgan M.Uyg'ur talqinidagi "Farhod va Shirin" (Xurshid) spektakli namoyish etildi. Spektakl "Kolizey" sahnasida o'ynalgani bois uni bezatish masalasiga alohida diqqat qilingan. Spektaklning afsonaviy-romantik ruhda talqin etilishida aktyorlik san'ati, maqom musiqasi, ariya va duetlar, umumiy raqs hamda dekoratsiya, liboslar, bezaklar, yoritgichlar muhim o'rin tutgan.

Ammo 1914-1924- yillar oralig'ida spektakllar uchun maxsus dekoratsiyalar kam ishlangan. Truppada hali tayin ishlaydigan rassomning o'zi ham bo'lmagan. Shu bois ko'rinishlar ko'pincha yig'ma dekoratsiyalar bilan shartli ko'rsatilgan.

Dekoratsiyalar asosan omonat qurilib, truppa a'zolari qo'li bilan bir navi yasalgan. Teatrning bisotidagi bir-ikki mavhum orqa parda, dag'al, yog'ochdan pala-partish yasalgan stanok, xontaxta, stol, bir-ikki kursi, artistlarning kundalik hojatiga yarab turadigan tumshug'i uchgan choynak-piyola va boshqa buyumlar deyarli hamma spektakllarda ishlatilaverib, tomoshabinga yod bo'lib qolgan.

Ba'zan dekoratsiyalar rus va tatar teatrlaridan vaqtincha olinib ishlatilgan. Spektakllar sahnaviy bezagida maishiy hayot naturalistik tarzda kiritilgan. Ular sodda, ba'zida primitivligi bilan ajralib turgan.

Usha davrda tarixiy asarlar sahnaviy talqinlariga ham yetarli e'tibor berilgan. Shu haqda gapirganda, Muqimiy nomidagi musiqali drama va komediya teatrida Sobir Abdullaning rejissyor Mannon Uyg'ur sahnalashtirgan "Muqimiy" musiqali dramasi (bastakor T.Jalilov) ko'z oldimizga keladi. Avvalo shuni aytish kerakki, "Muqimiy" spektakli (1953-yil) M.Uyg'urning eng so'nggi sahnalashtirgan asari bo'lib, unda rejissyor, birinchidan, 20-yillarda musiqali dramalar yaratish jarayonidagi tajribalarini eslagan bo'lsa, ikkinchidan, yaqindagina sahnalashtirgan "Alisher Navoiy" spektakli tajribasini ishga soladi.

Asarni sahnalashtirish jarayonida ham matn ustida, ham musiqaning spektakl mantiqiga, vaziyat va qahramonlarning holatlariga mos tushishiga harakat qilinadi. Shuningdek, M.Uyg'ur tasviriy va yoritish vositalariga, qahramonlarning tashqi qiyofalarini tarixan haqqoniy qilib yaratilishiga katta e'tibor beradi. R.Hamroyevning hikoya qilishicha, M.Uyg'ur tashkilotchilaridan birini Farg'ona vodiysiga yuborib, Muqimiy kiyimiga lozim bo'lgan "o'zbekcha qalami chopon"ni toptirib keltirgan.

Rassom G.A.Vizel bilan ishlar ekan, M.Uyg'ur uy jihozlari, hujra eshiklarining naqshlari, qumg'on va oftobalar, xontaxta va tokchalarda kitoblarning qanday taxlanishi, davot va qalamlarning turishi, kavush tuslari, salla turlari, mahsi sog'iga tikiladigan kashtalar kabi mayda detallargacha e'tibor bergan.

Bular hammasi pirovard natijada sahnada tarixiy haqiqatni ro'yobga chiqarishga, aktyorlarda zarur psixofizik holatlar paydo qilib, obrazlar mazmunini ochishga, to'qnashuvlarni asoslashga xizmat qilgan.

Spektakllarni va boshqa tadbirlarni badiiy jihatdan bezatish ularning muvoffaqiyatida muhim rol o'ynaydi. Bunda asosiy o'rinni, shubhasiz, tasviriy san'at o'qituvchisi va tasviriy san'at to'garagi qatnashchilarining spektakllarni badiiy bezash borasidagi faoliyatlari egallaydi.

O'qituvchi yordamida tasviriy san'at to'garagi qatnashchilari dekaratsiyalar, kastyumlar va boshqa dekarativ hamda butaforiya elementlarining eskizlarini tayyorlaydilar. Bu ish jarayonida ular badiiy bezatilgan spektakldagi voqea sodir bo'lgan joylardagi uy-ro'zg'or buyumlari, kiyimlar, me'morchilik elementlarining o'ziga xos ko'rinishlarini o'rganadilar, muzey va spektakllarga boradilar.

Eskizlar tayyor bo'lgandan keyin barcha to'garak qatnashchilari, tasviriy san'at o'qituvchisi va spektakl rejissyori ularni birgalashib muhokama qiladilar. Ma'qullangan eskiz bo'yicha uning muallifi maket yasaydi. Keyin o'qituvchining dekoratsiyani bajarish texnikasiga oid ko'rsatmasi asosida barcha o'quvchilar ishga kirishadilar.

Spektakllarni sahnalashtirishda yuqorida ta'kidlab o'tilgandek, dekoratsiyalarning ahamiyati kattadir. Ular o'zining spetsifik xususiyati bilan spektakldagi obrazlarning tomoshabinga yanada tushunarliroq bo'lishiga yordam beradi.

Teatr bezagi bo'yicha ma'lum tajribaga ega bo'lmagan rassom, shuningdek, dastlabki urinishlari natijasiz chiqqan o'quvchilar ko'p hollarda o'z oldilariga qo'yilgan vazifani hal etishda ba'zi xatolarga yo'l qo'yadilar. Ayni paytda spektakllarni tezlatish haqida ularga tayyor retsept ham berish mumkin emas.

Chunki ular bunda izlanish, mustaqil fikr yuritish imkoniyatidan maxrum bo'ladi. O'quvchilar o'z oldilariga konkret maqsad qo'yishlari kerak. Bu maqsadga erishishda intilayotgan o'quvchilar pesa asosida yotgan dramaturg g'oyasini ochib berishda o'ziga xos badiiy vosita tanlab oladilar. Ularning ishlaridan spektakl rejissyori ham doimo xabardor bo'lib turishi kerak.

Dekoratsiyaning ko'rinishi pesaning asosiy mohiyatidan, harakat o'rinlarining planirovkasidan, tasvirlanayotgan obektlar-ning masshtabi to'g'ri olinganidan, yorug'lik yo'nalishi to'g'ri tanlanganidan, kompozitsion ritmga amal qilinganligidan kelib chiqadi.

Teatr rassomining o'z spetsifikasiga binoan boshqa soha rassomlarining ijodidan farq qiladi. Teatr rassomi ijodining o'ziga xos tomonlarini doimiy harakatda bo'ladigan obektlariga - eng avvalo aktyorlar, shuningdek, yorug'lik, uning ta'siri ostida o'zgarib turuvchi ranglar aks ettiradi.

Bularning hammasi dekoratsiya kompozitsiyasini hal etishda hisobga olinadi. Shuning uchun dekoratsiya pesa mazmunining pesa g'oyasidan va aktyor ijrosidan alohida qism emas, balki butun spektaklning ajralmas bir elementi, pesaning g'oyaviy mohiyatini ochib beradigan vositalardan biri bo'lmog'i lozim.

Sahnalashtirilayotgan pesaning badiiy bezagini tayyorlashga kirishgan talabalar avvalo asar bilan tanishib chiqdilar. Eskiz chizishdan oldin foydalaniladigan jihoz va sharoitlar, ya'ni sahnaning o'lchamlari, uning mexanik va yoritish jihozlari bilan tanishib bu sharoitdan kelib chiqqan holda eskiz ishlashga kirishadilar.



(Ochiq maydonda chiroqlar yordamida sahna bezagi)

Sahna va boshqa jihozlar spektaklni bezatishning u yoki bu formasini tanlashni belgilab beradi. Spektakllarni bezash borasida tajribaga ega bo'lmagan rassom muvaffaqiyatli ishlashi uchun sahna maydonidagi dekoratsiyalar o'rnatiladigan sharoitlarni, bu ishning texnikasini o'rganish, yorituvchi apparatlarni samarali ishlatishi, bezaklarning sahnadan ko'rinishini hisobga olishi kerak.

Spektaklni sahnalashtiruvchi rejissyor bilan rassom pesani sahnalashtirish ishida boshidan oxirgacha hamkorlikda ishlaydilar. Fikrimizning dalili sifatida shuni aytish mumkinki, ularning hamkorligi materialni muhokama qilishdan boshlanadi. Undan so‘ng rassom spektakl dekoratsiyalarining homaki nusxalarini ishlaydi. Uning variantlaridan ma’qulini rejissyor bilan birgalikda tanlab olib rang bilan ishlaydi. So‘ngra ular spektaklning planirovkasini ishlab chiqadilar. Spektakl dekoratsiyasi bilan sahnada spektakl ishtirokchilarining har biri rol ijro etayotgan paytdagi harakat joylari, ularning kostyumlari va grimplarni ham hal etib boradi.

Ularning hammasiga mos, voqea sodir bo‘layotgan davrga mansub bo‘lgan mebel tanlaydilar, sahnaning yoritilishini hal etadilar. Bularning barchasi rassom va rejissyorlarning ijodiy hamkorligida ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi.

Tomoshabinlar zalga kirib, joy-joylariga o‘tiradilar. Ular hali spektaklga hech bir daxli yo‘q boshqacha taassurotda bo‘ladilar.

Chiroqlar o‘chib, parda ochiladi va tomoshabinlar sahnadagi dekoratsiyalarni ko‘radilar. Bu dekoratsiyalar darhol spektakl muhitiga olib kiradi, voqea qayerda va qaysi tarixiy davrda sodir bo‘lishi haqida tasavvur hosil qiladi. Spektaklning sahna muhitini rejissyor bilan birgalikda rassom yaratadi. Pesa muallifi: «Yaxshi jihozlangan xona»,-deb yozadi.

Xonaning jihozlari bu yerda yashaydigan kishilar to‘g‘risidagi dastlabki tasavvurni paydo qiladi. Rassom esa sahnada xonani yaratib, buyumlarni go‘yo pesadagi o‘z egasi haqida gapirishga majbur etadi. Shuning uchun har bir detali sinchiklab tanlanadi. Bezash spektakldagi obrazga bog‘liq holda haqiqiy yoki shartli bo‘lishi mumkin.

Spektaklni badiiy bezatuvchi rassom ishining bir xususiyati shundan iboratki, u dekaraksion san’at vositasida sahnada- pesada sodir bo‘layotgan davrning va undagi sharoitning badiiy obrazini yaratadi.

Yuksak badiiy saviyada yaratilgan dekaratsiya tomoshabinlarni spektakldagi voqealarning harakterini to'g'ri tushunib yetishlari, undagi asosiy narsaga e'tiborni qaratishlari uchun imkoniyat yaratib beradi.

Shu bilan birga dekaratsiya va undagi ayrim elementlar tomoshabinning e'tiborini asosiy voqealardan chalg'itmasligi lozim. Spektaklni muvaffaqiyatli bezash uchun rassom postanovkachi rejissyorga xos ayrim xislatlarga ega bo'lishi lozim, jumladan, u pesadagi obrazlarning ichki dunyosiga kirib borib, o'sha tasavvurlar asosida dekaratsion ishlarni amalga oshiradi.

Sahnadagi kayfiyatni to'g'ri tasvirlash uchun mavjud badiiy vositalardan oqilona foydalanish kerak. Bu vositalar orasida rang muhim ahamiyat kasb etadi. Rang vositasida sahnadagi ob - havo, vaqt va boshqa dekaratsion effektlar tasvirlanadi. Bu borada shubhasiz, o'quvchilarning fantaziyalari ma'lum darajada zaiflik qilishi mumkin. Ular dastlabki paytlarda bunday badiiy ishlarni tasviriy san'at o'qituvchisining ko'rsatmalari asosida amalga oshiradilar.

Dekaratsiyalarni spektakldagi voqea sodir bo'layotgan joy, davrning o'ziga xos xususiyatlarni tasvirlash uchun pesadagi qahramonlar hayotini yaqqolroq tasavvur etish uchun o'sha davrga oid ilmiy tadqiqotlar, badiiy adabiyotlar, kartina, rasm, gravyura, illyustratsiya, portret, fotografiya, kiyim, mebellar hamda boshqa materiallar bilan tanishib chiqiladi.

Dekaratsiyalar muvaffaqiyatli chiqishida uni bajaruvchining tasviriy san'at borasidagi bilim va malakalari yetarli bo'lishi, ayniqsa, ranglar va ular bilan ishlash texnologiyasini puxta o'zlashtirishi talab etiladi. Dekaratsiyalar asosan yelimli bo'yoqlar bilan ishlanadi. Ular qurigandan keyin rangi sezilarli darajada och tusga kiradi.

Ularni ham harorati past va zax bo'lmagan xonalarda quritish kerak. Aks holda bir xil rangga bo'yalgan yuzalarda dog' va boshqa deffektlar hosil bo'lib qolishi mumkin. Shuningdek bir yuzani bir necha marta bo'yash ham yaramaydi. Chunki bo'yoqlar qatlami qalinlashib dekaratsiya osilganda bo'yoqlar yorilib to'kilib ketishi

mumkin. Shuning uchun dekaratsiyadagi ranglarni to'g'ri qo'llash kerak. Sahnada qo'yilayotgan spektakllarning dekaratsiyalarini ishlayotgan o'quvchilar ayrim qiyinchiliklarga duch keladilar.

Jumladan eskizdagi tasvirni sahna dekaratsiyasiga o'tkazishda ba'zi noaniqliklarga yo'l qo'yadilar. Chunki katta sirtni ko'z bilan idrok qilish qiyin. Eskizdagi tasvirni bir necha marta kattalashtirib chizish lozim bo'lsa, kataklarga bo'lib ko'chirish ma'qul. Buning uchun eskiz vertikal va gorizontal paralel chiziqlar bilan tomonlari o'zaro teng katakchalarga bo'lib chiqiladi. Huddi shunday kataklar ma'lum darajada kattalashtirilgan dekaratsiya satxiga ham chizib chiqiladi.

Vertikal va gorizontal chiziqlar nomerlanadi. Dekaratsiya chiziladigan matodagi kataklarning nomerlari eskizdagi kataklarning nomerlariga mos bo'ladi. Hosil bo'lgan kataklarga eskizdagi elementlarni mos joyiga o'tkazish yo'li bilan eskiz talabidagi dekaratsiya hosil qilinadi.

Spektakllarni badiiy bezash jarayonida o'quvchilarda hosil bo'lgan qiziqishlarni teatr hayoti va teatr rassomlari ijodiga bag'ishlangan suhbatlar bilan to'ldirib borish, ularning asarlaridan repraduksiyalar ko'rsatish, muzey va teatrlarga ekskursiyalar uyushtirish yaxshi natijalar berishi mumkin.

Hozirgi kunda masalan o'quv muassasasida amalga oshirilayotgan badiiy bezash ishlarini yanada takomillashtirish masalasiga katta e'tibor berilmoqda. Bu ishlarining barchasi o'quv yurtidagi ta'lim - tarbiya ishlariga ijobiy ta'sir etadi.

Taniqli pedagoglar estetik did bilan bezatilgan tashqi muhitning talabalarga tarbiyaviy ta'sirini ifodalab, uning butun ta'lim – tarbiya jarayonining muhim shartlaridan biri deb hisoblaydilar.

Shuning uchun amalga oshirilayotgan badiiy bezash ishlariga tarbiyaviy tadbirlarning ajralmas qismi deb qaralishi lozim. Mavjud badiiy bezash elementlari dekorativ panno, dars o'tadigan xonalaridagi mebellarning shakllari, doska va

devorlarning rangi, bularning hammasi pirovard natijada bolalar psixologiyasiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi.

Quyida o'quv yurtning devorlarini bo'yashning ahamiyati va o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritamiz.

Ta'lim tarbiya maskanlari eshigiga birichi qadam bosish yoki o'qishga kelish o'sib kelayotgan yoshlar uchun ko'tarinki ruh va eng esda qolarli hayajonli kun bo'lishi kerak.

Bu esa birinchi galda albatta o'quv jarayonning harakteriga va shuningdek, ularni qamrab olgan sof muhitga hamda a'lo darajali yuqori e'tiborga bog'liq.

O'quv binosining ichki va tashqi qiyofasi yoshlar uchun mutlaqo farqsiz bo'lmasligi kerak. Bunda hatto binolarning qurilishi jarayonlarida me'morchilik-loyihalashda ko'rilgan tadbirlar qatori talabalarning o'z qo'llari bilan bezatilgan turli badiiy bezak vositalaridan kerakli darajada unumli foydalanish kerakligini ham nazarda tutish lozim.

Siz bilan bizga ma'lumki, har bir muassasalarning, tashkilotlarning, korxonalarning, madaniy dam olish joylarni ya'ni istirohat bog'lar, teatrlar, konsert zallari, hozirgi kunda ko'p bor tilga olinayotgan hammamiz uchun aziz bo'lgan muzeylar, xiyobonlar, to'yxonalar hamda o'quv maskanlarini bezatish undagi badiiy bezash ishlarini tashkil etishni yaxshi bajara oladigan mutaxassislar kerakligi, bu ishlarni o'rgatish uchun o'zbek tilida maxsus adabiyotlar nashr etilmagani sababli yuqorida ko'rsatilgan barcha joylarda va o'quv yurtlarda badiiy bezak ishlarini to'laligicha amalga oshirilmayapti bu ishlarni amalga oshirish uchun esa yuqorida aytib o'tilayotgan yaxshi mutaxassislar tomonidan yozilgan adabiyotlar va turli xil qo'llanmalar kerakligi haqiqatga aylanmoqda .

Biz o'ylaymizki ushbu fan ana shu sohadagi qiyinchiliklarni bartaraf etishga ham hizmat qiladi, deb ishonamiz. Talabalar ushbu kitobdan olgan yuqori bilimlari orqali kelajakda yetakchi mutaxassis bo'lib badiiy bezash ishlarida ijodiy foydalanadilar.

Ko'rgazmali vositalar orqali badiiy bezakning har xil yangicha shakllari va formalari orqali madaniy ma'rifiy muassasalarning, o'quv yurtlarining, korxona va tashkilotlarning intererlari, xona va zallari, fasadi hamda hovlisini panno, plakatlar va hokazolar bilan bezatishda katta ishtiyoq bilan foydalanadilar va bundan tashqari, devoriy gazetalar, albomlar, e'lonlar, taklifnomalar, bukletlar va hokazolarni tayyorlashda aktiv ishtirok etadilar hamda bu ishlarga boshchilik qiladilar.

Mustaqilligimizning asoschisi, mamlakatimiz birinchi Prezidenti Islom Karimovning hali sho'ro tuzumi hukm surib turgan sharoitda O'zbekistonning mustaqilligini e'lon qilganlarning bu mustaqillikni mustahkamlash yo'lida ko'rsatib kelayotgan qahramonona faoliyati ustivorlikning ajoyib namunasidir.

Aqlli qahramonlik ko'pchilik omma tushunchasida odatdan tashqari noyob, nodir, kam uchraydigan hodisalar, lekin u kundalik hayotda, oddiy sharoitda eng sodda, hamma amal qiladigan ahloqiy qoidalar doirasida ham sodir bo'lishi mumkinligining o'zi ulug'vor ahamiyat kasb etadi.

Bu haqida jahon san'ati tarixida birinchi bo'lib, A.P. Chexov aytgan va yozgan edi.

Chexov orzusidagi qahramonlik, mardlik-ulug'vorlikni kundalik halol mehnatda, ahloqiy aqidalarga doimiy tarzda amal qilishda o'z qadrini topadi.

Ko'rgazmali vositalarning badiiy bezak san'ati orqali ijtimoiy va nafosatli orzular bilan birga, ba'zi ulug'vorlik va pastkashlik, qiymatlari ham tubdan o'zgarib borayotganini badiiy bezak asarlari, rassomlarning panolarga chizilgan asarlari orqali namaoyon qilinar edi.

Bundan 30-40 yil oldin ulkan zavod, fabrikalar korxonalarning ko'piga bo'y cho'zgan trubalari tutunlari hayotdagi ulug'vorlik tarzida in'ikos etiladi.

Badiiy bezak asarlari orqali, rassomlarning afisha, reklamalari orqali insonga bo'ysundirilgan tabiat qiyofasi ijtimoiy ong tarkibiga singdirilar edi.

Bu asarlar orqali inson-tabiat ustidan, shaxs-to‘da ustidan musobaqada ilg‘or uchuvchi, konchi, sut sog‘uvchi, olim, ishchi-xalq ustidan mana shularning hamma-hammasi yaqin kunlardagi bizning ulug‘vorlik orzuimizni namoyon qilar edi.

Tabiat ustidan hukmronlik o‘rniga u bilan hamohang bo‘lish, ayrim ko‘zbo‘yamachilik, ommaviy qaror, yalpi rozilik o‘rniga ijtimoiy faol, tashabbuskor, ijodkor shaxsni shakllantirish burch-vazifalarini ado etish bugungi kundagi ulug‘vorlik orzusining asosiy mazmunini tashkil etish bo‘yicha real asarlar, plakatlar, afishalar, badiiy bezak ishlari kerak bo‘lar edi.

Ulug‘vorlik o‘zining har tomonlama ijodiy ifodasini san’atda topadi, uning barcha turli xil va ko‘rinishlar badiiy bezak ishlarida ko‘rinadi.

Shuning uchun ham badiiy bezak asarlarida ulug‘vorlik mavzusi asosiy tasvir obektlaridan biri bo‘lib xizmat kiladi. Shubhasizki, san’atning turli ko‘rinishlari, ulug‘vorlik tasvirlashning xilma-xil imkoniyatlaridan foydalaniladi, aytish mumkinki, uning ayrim turlari-qahramonlik dostonlari, lirik dostonlar, qahramonlik fojiasi, qahramonlik musiqa asarlari (simfoniya, oratoriya), me’morchilik va yodgorlik san’ati, rassomlarning, badiiy bezak mutaxassislarining ijodlarida ulug‘vorlik mavzusini badiiy o‘zlashtirish jarayonida vujudga kelgandir.

Rassomchilik va badiiy bezak asarlarida ulug‘vorlik me’morchilikda alohida ahamiyat kasb etadi;

Masalan; Misr piramidalari, Samarkand, Buxoro, Xiva shaharlaridagi me’morchilik obidalari, yunonlarning Parfenoni, rimliklarning Kolizey o‘rta asr gotik bosh cherkovlari, rus cherkov me’morchiligining eng yaxshi namunalari, Rossi, Rastrelli kabi me’morlar yaratgan go‘zal binolar mustaqil O‘zbekistondagi geografik majmualari, o‘zlarining salobati, ulug‘vorligi bilan kishini hayratda koldiradi.

Shu narsani alohida ta’kidlab o‘tish joizki, ulug‘vorlik tuyg‘usiga faqat miqyos o‘lchovi bilan erishilmaydi.

Agar ayrim obidalar (Bobil minorasi, Minorai Kalon, Misr piramidalari va sh. k.) o'zlarining miqyoslari ko'lami bilan hayron qoldirsalar, boshqa o'zining alohida nafisligi, nozik ifodasi, hamohangligi, yuksak ruhlanganligi, atrof-muhit bilan uzviy qo'shilib ketganligi bilan alohida ahamiyat kasb etgan.

(Go'ri amir, Shohizinda, Ichan qal'a, Registon maydoni, Mir Arab madrasasi, Ismoil Somoniy maqbarasi, Chor Minor, Bola hovuz machiti va b.) me'morchilik asarlari idrok etilganda insonda o'zgacha ulug'vorlik tuyg'usi vujudga keladi.

Badiiy bezak san'atda ulug'vorlik fojealilik bilan ko'pincha yonma-yon turadi va namoyon bo'ladi, sirasini aytganda, bu ikki estetik kategoriya o'rtasida o'ziga xos dialektik aloqadorlik mavjud bo'lib, unda umumiylik va farqli tomonlari ham bordir.

Navoiy va Shekspir asarlari, shoshmaqom go'zal me'morchilik obidalari bir vaqtning ham ulug'vorlik, ham fojealilik ruhi bilan sug'orilgandir.

Bundan, albatta fojealilik-ulug'vorlik, ulug'vorlik-fojealilikdir degan xulosa chiqarib bo'lmaydi.

Masalan, Samarqandning Registon maydonidagi madrasalar, shubhasiz, ulug'vor bo'lishlari bilan birga hech qanday fojeali his qo'zg'atmaydilar.

Shekspirning Makbet xonim qiyofasi fojeali, lekin u hech ham tomoshabinda ulug'vorlik tuyg'usi tug'dirmaydi.

San'atdagi ulug'vorlik badiiy mazmun va shakl barcha imkoniyatlari vositasida ifodalanadi, lekin bunda hal qiluvchi rolni g'oya o'ynaydi.

Muhim ahamiyatli g'oya yuksak ruhlangan, mukammal shaklning zarurligini yuzaga keltirib, san'at asarining buyuklik darajasini belgilab beradi. Bu holat hayotiy haqiqatni qochishga emas, unga xizmat qilishga da'vat etadi.

Nazorat uchun savollar

1. Sahna qutisi va uning texnikasi?
2. Antik davrda antik teatrlarning bezaklaridagi farqlar?

3.Maxobatli bezaklar...

4.Eskiz nimani bildiradi?

5.Toshkent teatrlaridagi naqsh bezaklari haqida ma'lumot bering?

Mustaqil ish uchun topshiriqlar

1.Bezak turlariga xarakteristika bering?

2. Teatr butaforiyasini tahlil qiling.

3. Yoshlar ijodiyot markazidagi ko'rgazmalar haqida ma'lumot bering?

4.Bayram tadbirlarida bezak ishlarni amalga oshirishdagi milliylik.

5. Binolarni bayramona bezatishda chiroqlarning roli.

6.Sahna dekoratsiyasi

2-bob. Bayram tadbirlarida ko'chalarni bezatishda ko'rgazmalar, bannerlar, afishalar va bayram reklamalari

2.1. Ko'chalarni bezatishda ko'rgazmalar va reklama bannerlaridan foydalanish (bayram ko'rgazmalari, reklamalar, rangli chiroqlar)

Qaysi mavzuda bo'lishidan qattiq nazar ko'rgazmallarni tashkil etishda albatta biz uning turli xil temalarida bo'lishini va ana shu turli xil formalarida har xillikga e'tibor berishimiz kerak bo'ladi bu esa odamlarda bo'lgan qiziqishni yanada oshiradi.

Tashkil etiladigan ko'rgazmalarining asosiy prinsiplari mavjud bo'lib bo'lardan asosiysi o'tkaziladigan ko'rgazmaning mavzusini aniqlash va shunga yarasha rejasini tuzish.Bu masala bo'yicha ko'rgazmani o'tkaziyotgan tashkilot yoki mutassasilar bilan badiiy bezash ustalari yoki shu sohaning mutaxassislari birgalikda ekzpozitsion reja tuziladi.

Eksponatlar yig'ish - o'tkazilishi kutiliyotgan ko'rgazmaning mazmunli va ta'sirli bo'lishi uchun yana bir asosiy masala ko'rgazma uchun eksponatlar (materiallar) yig'ish deb o'ylaymiz.

Ko'rgazmaga qo'yiladigan eksponatlarning, materiallarning qanchalik yangiligi va badiiy bezash sohasidagi mutaxassislarning mahorati ko'rgazmaga kishilarning ko'pchilik yig'ilishini ta'minlaydi.

Ko'rgazma tashkil etish uchun qulay joy tanlash - ko'rgazmalarni tashkil etishda yana bir omil borki, bu ham bo'lsa ko'rgazmalarni tashkil etishda yaxshi odamlar gavjum bo'ladigan joyni yoki binolarni tanlash deb o'ylaymiz.

Kishilar ko'rgazmaga kelar ekan ko'rgazilayotgan yoki namoyish etilayotgan mavzudan nimadir olish kerak.

Buning uchun esa (folklor ans. Xalq sevib tomosha qiladigan san'atkorlar)

Teatr va konsert afishalari, ommaviy madaniy, sport va boshqa

yo'nalishdagi tadbirlar e'lonlarini va reklamalarni joylashtirish - afisha – o'tkaziladigan ommaviy madaniy, sport va boshqa yo'nalishdagi tadbirlar, promo-aksiyalar to'g'risidagi axborotni o'zida mujassamlashtirgan yozuv reklamasining asosiy vositalaridan biridir. Reklamachi aniq nima demoqchi bu panoda aks etishi kerak



Rasmda: Sport reklamasi



Rasmda: Zamonaviy estrada xonandaligi konkursining afishasi

Bayram yoki madaniy tadbir e'lonlari – boshqa yuridik va jismoniy shaxslar hamda jamoatchilik e'tiborini jalb qilish maqsadida aniq yuridik va jismoniy shaxslarga yetkaziladigan qisqa ma'lumot.

Teatr va kontsert afishalari, ommaviy madaniy, sport va boshqa yo'nalishdagi tadbirlar e'lonlarini joylashtirish uchun mo'ljallangan maxsus moslamalarni (keyinchalik maxsus moslamalar) joylashtirish mazkur Tartibga asosan Komissiyaning ishchi organi orqali rasmiylashtirilishi lozim;

- Maxsus moslamalar komissiya tomonidan tasdiqlangan andozaviy namunalarga muvofiq shakl va tuzilishga ega bo'lishi kerak;

- maxsus moslamalarda joylashtirilgan bir marta o'tkaziladigan tadbirlar, ya'ni teatr va kontsert afishalari, ommaviy madaniy, sport va boshqa yo'nalishdagi tadbirlar, turli promo-aksiyalar e'lonlari tashqi reklama hisoblanadi. Ularni joylashtirish uchun Komissiyaning ruxsatini olish talab etilmaydi va tashqi reklamani joylashtirish uchun tarif bo'yicha haq olinmaydi.

- maxsus moslamalar va ularda joylashtirilayotgan teatr va konsert afishalari, ommaviy madaniy, sport va boshqa yo'nalishdagi tadbirlar, turli promo-aksiyalar e'lonlarini tashqi ko'rinishi, estetik holati va mazmuniga qo'yilgan talablarni bajarilishiga maxsus moslamaning egasi javobgardir.

- mazkur tartibga asosan tegishli rasmiylashtirilmasdan o'rnatilgan barcha maxsus moslamalar va ulardan tashqarida o'rnatilgan barcha afisha va e'lonlar beruxsat o'rnatilgan hisoblanadi.

- Toshkent shahrini beruxsat o'rnatilgan afisha va e'lonlardan tozalash Komissiya tomonidan belgilangan mas'ul korxona yoki tashkilotlarga yuklatiladi. Tozalash bo'yicha qilingan barcha sarf-xarajatlar beruxsat afisha va e'lonlarni joylashtirgan korxona va shaxslardan undiriladi.



Rasmda: Saylov bilan bog'liq osma targ'ibot turi

Reklama tashuvchilar bilan birlashtirilgan ko'cha mebeli elementlari deb umumiy yuzasi 5 kv.m.dan katta bo'lmagan reklama panellari bilan jihozlangan shahar yo'lovchi transportini kutish pavilonlari, shahar yo'lovchi transporti to'xtash joylarining ko'rsatkichlari, ko'cha o'rindiqlari, axlat qutilari, ko'cha soatlari, taksofon kabinalari, yo'lovchi harakatini to'suvchi elementlar tushuniladi, basharti reklama paneli konstruksiyaning o'lchami ko'cha mebeli elementi umumiy o'lchamining uchdan bir qismidan katta bo'lmasa hamda reklama maydoni (tomoni) yuzasi o'lchami ko'cha mebeli elementi axborot maydoni (tomoni) umumiy o'lchamining uchdan ikki qismidan katta bo'lmasa (ko'cha mebeli elementida reklama maydoni (tomoni) bilan bir paytda o'zga turdagi axborotni joylashtirish uchun maydon (tomon) mavjud bo'lsa).

Reklama panellari bilan jihozlangan shahar yo'lovchi transportini kutish pavilonlari majburiy tartibda o'rindiq va shahar axborot lavhalari bilan majmuada,

oʻrnatish ishlari yakunlangandan soʻng arizachi tomonidan pavilonga tutashgan hududni obodonlashtirish boʻyicha talablarga rioya etilgan holda oʻrnatilishi kerak.



**2018 yil - “Faol tadbirkorlik, innovatsion gʻoyalar
va texnologiyalarni qoʻllab-quvvatlash yili”**

(Katta hajmdagi osma baner va panolar)

Reklama tashuvchilar bilan birlashtirilgan koʻcha mebeli elementlari, yoritish elementlari tashqi yoritish, elektr taʼminlash tarmogʻiga qoʻshilgan taqdirda elektr taʼminoti masalalari va foydalanilgan elektr quvvati uchun toʻlov masalalari tashqi yoritish tarmogʻining elektr taʼminoti liniyalari (VL va KL) muhofaza zonasiga qoʻyilgan barcha talablarga rioya etilganda, elektr taʼminoti korxonalari bilan kelishilsagina yoʻl quyiladi.

Bayram kunlari binolar devorlarining yuzasida devoriy reklama konstruksiyalarini quyidagi koʻrinishda joylashtirish:

- bevosita devor yuzasiga tushirilgan tasvir (axborot yuzasi);
- devorga mahkamlash elementlari, karkas va axborot yuzasidan iborat konstruksiya;

- devoriy pannolar yakka tartibdagi loyihalar bo'yicha bajariladi;

-devorga mahkamlanuvchi qismlarga ega devoriy pannolar uchun foydalanishda xavfsizlikni ta'minlash maqsadida majburiy tartibda konstruksiyani mahkamlash loyihasi ishlab chiqiladi;

- devoriy panno axborot yuzasining maydoni axborot yuzasi karkasining kattaligi bilan belgilanadi;

- binolarning old devorlarida ularning katta qismini, vitrina va derazalarning oynalarini to'sib qo'yuvchi yirik o'lchamli qalqonli reklama va bannerli reklama tashuvchilarni o'rnatishga yo'l qo'yilmaydi.



Rasmda: Qadriyatlarimizni aks ettiruvchi katta banerdan namuna

O'quv yurtlari hayotida devoriy gazeta, stend yoki ko'rgazmada o'zining yorqin va obrazli ifodasini topish mumkin bo'lgan ko'pgina temalar topiladi. O'quv yurtlarida «Kitob xaftaligi» o'tkazish an'anaga aylanib qolmoqda. Bu ko'rgazmaning qiziqarli va ta'sirchan bo'lishi o'quvchilarga kitoblar: darsliklar, badiiy adabiyot hamda spravochniklarning rolini anglab yetishda yaqindan yordam beradi. Ko'p hollarda bunday kitob ko'rgazmalarini tashkil etishda kitob mahsulotlarini obrazli propaganda qilish malakalarining yetishmasligi sezilib qoladi.

Hattoki, stend yoki vetrinadagi ekspozitsiya materialini to'g'ri kompanovka qilish, e'lon yoki sarlavxalar nima uchundir e'tiborni o'ziga tortmaydigan darajada bo'ladi.

Bunday ko'rgazmalarni jonlashtirishda, ya'ni ularni badiiy jihatdan bezashda bezovchi rassomlar to'garagining a'zolari tomonidan bajarilayotgan ishlar diqqatga sazovordir. Ularning bu ishda qatnashishlari pedagogik kollektivning bolalarni darsliklar va boshqa kitoblar bilan mustaqil ishlashga jalb etish borasidagi ishiga bevosita yordam bo'ladi.

Kitob ko'rgazmalari mazmunan juda rang-barang va ularning eng asosiylari quyidagilar bo'lishi mumkin:

Zamonning dolzarb masalalariga bag'ishlangan ko'rgazmalar.

Buyuk sanalarga bag'ishlangan ko'rgazmalar.

Atoqli kishilarning hayoti va ijodi haqida hikoya qiluvchi ko'rgazmalar.

O'quv jarayoniga yordam beradigan ko'rgazma.

Janrli ko'rgazmalar.

O'quv yurlarida tashkil etiladigan ko'rgazmalarning har biri uchun o'ziga xos original badiiy yechim topish, ko'rgazmadagi asosiy va ma'noviy elementlarni alohida bo'rtirib ko'rsatish muhimdir.

Ko'rgazma ishlarini yaxshi yo'lga qo'yish talabalarning aqliy va jismoniy mehnatga qiziqtirish, axloqiy va estetik tarbiyalash uchun qo'shimcha imkoniyatlarni ochib beradi. Talabalarni estetik tarbiyalashda badiiy ko'rgazmalar tashkil etish shubhasiz muhim ahamiyatga molikdir. Tematik ko'rgazmalarini tashkil etishda bajariladigan ishlar talabalarni estetik tarbiyalash borasida o'z samarasini beradi. Barcha ko'rgazmalar yagona kompleksni tashkil etishi va ular binoda o'zining o'rinli joyini topishi kerak.

Turli bayramlar munosabati bilan tayyorlangan ekspozitsiyalar o'ziga xos tematikaga ega bo'ladi. Nishonlanayotgan bayramlar muhim siyosiy-ijtimoiy va albatta tarbiyaviy ahamiyatga ham molikdir. Bunday tadbirlarni yuksak badiiy

saviyada bezash talabalarni g'oyaviy - siyosiy tarbiyalash uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Ko'rgazmalarning temasi va taxminiy hajmi aniqlangandan so'ng ularning tematikasi va tematik ekspozitsion plani tuzib chiqiladi. Ko'rgazma talabalar e'tiborini o'ziga jalb etadigan, ularga foydali bo'lishini ta'minlashi, uning aktualligi bilan bir qatorda zamonaviyligiga ham e'tibor berish kerak. «Kitob xaftaligi» o'tkazilayotganida kitob yangiliklari, yozuvchi va shoirlar, kitob grafikasi sohasida ijod qilayotgan rassomlar haqida ham ma'lumotlar berish lozim.

Ko'rgazmani tashkil etishda uning aktualligi, zamonaviyligidan tashqari mahalliy sharoit-ko'rgazmaga ishlatiladigan materiallar, shuningdek, badiiy bezash ishlarini amalga oshirish imkoniyatlari ham hisobga olinishi kerak.



Rasmda: Milliy ko'rgazmalar zalidan namuna.

Masalan, boshlang'ich sinflarning o'quvchilariga mo'ljallangan ko'rgazmaning badiiy - obrazlari yechimlari yuqori sinflarning o'quvchilariga mo'ljallangan ko'rgazmaning ana shunday yechimlaridan albatta farqlanishi lozim.



Tematik ekspazitsion reja qabul qilingach bevosita uni bajarilishga kirishiladi.

Bu esa ish jarayonida rejaga mutlaqo o'zgartirishlar kiritilmaydi degan so'z emas.

Rejani amalga oshirishda qiziqarli fikrlar, ko'rgazmaning mazmuniga va ta'sirchanligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan materiallar ham topilishi va ularni qo'llab ko'rgazmaning mazmunini yanada boyitish, uning samaradorligini oshirish mumkin.

Tematik - ekspozitsion reja tuzilgandan so'ng ko'rgazma uchun materiallar yig'ila boshlanadi (ba'zan aksi bo'lishi ya'ni oldin materiallar yig'ib so'ng reja tuzilishi mumkin). Material yig'ishga tashkilotchilar keng o'quvchilar ommasini jalb etadilar.

Tajriba o'quvchilardan, xatto, yuqori sinf o'quvchilaridan tuzilgan bezovchi-rassomlar ham mustaqil ish yuritish qobiliyatiga ega emasligini ko'rsatmoqda. Shuning uchun bu tadbirda ularga bevosita tasviriy san'at o'qituvchisi raxbarlik qilishi kerak. o'quv yurtlar pedagogik amaliyot o'tkazish uchun kelgan pedagogika universitetlari badiiy - grafika fakultetining studentlari va badiiy- grafika o'quv yurtlarining o'quvchilarini bu ishlarga jalb etish yaxshi samara beradi.

Ko'rgazmani tashkil etishning keyingi bosqichlarida duradgorlik kasbiga qiziquvchi va bu sohada ma'lum ko'nimaga ega bo'lgan o'quvchilar ham qatnashishlari kerak. Chunki ko'rgazma uchun planshet, podramnik, gullar uchun yashiklar yasashda o'quvchilarning duradgorlik ko'nikmalariga ega bo'lishi talab etiladi.

Ko'rgazmalar uchun ham to'g'ri joy tanlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda faqat ko'rgazmaning eksponatlari ta'sirchan bo'lishi emas, balki ular umumiy interer bilan mosligiga xam e'tibor berish kerak. Ko'rgazma binoni badiiy jihatdan boyitishi lozim.

Ko'rgazma rekreatsiyada, koridorda, yoshlar xonasi va boshqa biror xonada bo'lishi mumkin. Ko'rgazma stendlarining atrof - muxit bilan estetik bog'lanishini ta'minlash uchun ularni muhitga nisbatan to'g'ri kattalikda va mos rangda bo'lishiga erishish eng asosiy shartlardan biridir. Agar ko'rgazma stendlari devor bo'ylab joylashsa, ularning balandligi va katta-kichikligi xonaning balandligi va katta-kichikligi qarab belgilanishi kerak. Stendlarni ko'rishning qulayligini ta'minlashda kuzatuvchi yoki tomoshabinning bo'ylari ham hisobga olinadi.



Rasm: Qadriyatlarimizni targ'ib qiluvchi osma reklama

Ko'rgazmalarni tashkil etishda oldin ularning maketlarini yasab olish yuqorida aytilgan talablarning bajarilishini oldindan yaqqol tasavvur etish imkonini beradi.

Bir so'z bilan aytganda ko'rgazma uchun, joy tanlashda uning tarbiyaviy ahamiyatini oshiruvchi turli badiiy, pedagogik va psixologik omillarga yetarli e'tibor berish kerak.

Nazorat uchun savollar

1. Tematik - ekspozitsion ma'lumot deganda nimani tushunasiz?
2. Televediniya va muassasalardagi reklama turlarining ahamiyati.

- 3.Ko'rgazmalarning turlari haqida ma'lumot bering?
- 4.E'lon va afishalar to'g'risida ma'lumot bering?
5. Teatr va kontsert afishalari haqida nimalarni bilasiz?
- 6.Reklamalarni bezash haqida ma'lumot bering?

Mustaqil ish uchun topshiriqlar

- 1.Ko'rgazmalar nima uchun tashkil etiladi.
- 2.Ko'rgazmalar zalini bezatishning o'ziga xos xususiatlari.
- 3.Maishiy bezaklar bo'yicha ma'lumotlar bering..
- 4.Madaniyat va san'at muassaslarida o'zingizga tanish bo'lgan ko'rgazmalar haqida manbalaridan birini tahlil qiling.
5. Ommaviy sayllarda ko'rgazmali bezak turlari.
- 6.Ommaviy bayram tadbirlarida ko'rgazmalar amalga oshirishdagi ta'sirchanlik.
7. Ko'rgazmalarni tashkil etish usullaridan namunalar keltiring?

2.2. Madaniy tadbirlarni bezatish ishlarida zamonaviy texnik vositalardan foydalanish.

Biz tug'ilibmizki, yaxshiliklar haqida o'ylaymiz, go'zalliklarga boy his tuyg'ular og'ushida yashashga intilamiz. Go'zallik insonni yaxshilikga boshlaydi, ayniqsa, o'sib kelayotgan kelajagimiz yoshlar bugungi kunni ertangidanda kishi ilg'ab bo'lmaydigan darajada yaxshilikga o'zgarayotganini albatta ko'rib bilib yashaydi.

Bugungi kun yoshlari ham sir emas, ayniqsa inson uchun hayot tarzida eng kerakli bo'lgan dam olishni, ya'ni ertaga bugundan yaxshiroq ishlash uchun, yaxshi o'qishlari uchun, kayfiyati a'lo bo'lishi uchun, ish unumi oshishi uchun, hatto sog'ligi a'lo bo'lishini xohlab yashashlarini, sir emas bekitishdan tortinmaydilar.

Buning uchun biz madaniy ma'rifiy tadbirlar, ya'ni dam olishni tashkil etuvchi mutaxassislarning ishlariga bir nazar tashlashimiz, shu bilan birga ularning bu oson bo'lmagan o'ta qiyin va ma'suliyatli ishlarini naqadar qiyinligini ko'z oldimizdan o'tkazishimiz kerak bo'ladi. Faraz qiling, hammamiz uchun sevimli bo'lgan, ayniqsa

bolajonlarimizning eng quvonchli yil davomida orzuqib kutib yashaydigan kun, bu albatta **“Yangi yil”** bayrami. **“Yangi yil”** bayrami faqat xonadonlarimizda emas, balkim dam olish joylarida, bog‘-u sayilgohlarda, ishxona va korxonalarda, madaniy-ma’rifiy muassasalarda keng ko‘lamda o‘tkaziladi. **“Yangi yil”** tadbirini o‘tkazish uchun juda qimmat bo‘lgan zamonaviy texnika vositalari (katta, kichik hajmdagi ovoz kuchaytirgichlar, har xil rang-barang chiroqlar, nur va tutun tarqatuvchi elektr moslamalar, yonib uchuvchi elektron programmalashtirilgan panolar, maxsus dasturlar orqali ishlaydigan elektro reklama shitlari, turli xil telemonitorlar, JKlar, turli xil pirotexnik moslamalar va rang barang feerverklar, maxsus dastur asosida masofadan turib boshqariladigan ertak qahramonlari.)

Albatta eng asosiysi, bayramlarimizda esda qolarli daqiqalarni hadya etuvchi turli xil zamonaviy texnika vositalari bo‘lib xizmat qiladi. Pirotexnika vositalari va rang barang feerverklar ishlatish va sotish ko‘p joylarda taqiqlanganini bilamiz. Bu degani bu vositalarni ishlatmaslik kerak degani emas, balkim bu vositalarni maxsus do‘konlarda, maxsus ajratilgan joylarda instruksiyasida ko‘rsatilgan qoidalarga rioya etgan holda yaxshisi ana shu vositalarni o‘tkazish uchun maxsus shu dasturga ega bo‘lgan tashkilotlar bilan hamkorlikda, qoidalarni buzmagani holda ishlatish mumkin bo‘ladi.

Madaniy tadbirlarning o‘tilish jarayonlarini yaxshi tashkil etish va qatnashchilarda katta qiziqishni oshirish uchun tashkilotchilar, tadbirlarni bezatishning chiroqlar bilan bezatish shaklini tanlashadi.

Tadbirlarni gullar, sharlar va turli ko‘rinishdagi mato shakllar bilan bezatilishi ham katta yutuqlar keltiradi lekin- rangli chiroqlar o‘tadigan madaniy tadbirning o‘ta qiziqarli bo‘lishini ta’minlaydi.



(Rasmda chiroqlar yordamida sahna bezagi)

Xizmat joylarini, uylarni yangi yilga bezatish bilan bir qatorda, magazinlarning ichlarini, tashqi va bino tomlarini, maydon va ko'chalarni bezatishda turli xil yangi yil forma va shakllardan iborat shishirilgan qorbobo sharlari, shishirilgan qorqiz sharlari, shishirilgan yangi yil archalari va turli xil yangi yil ertak qahramonlari bilan bezatishni tavsiya etamiz.

Shishirilgan yangi yil archalari va boshqa turli xil shakllardan iborat har xil qiyofadagi sharlarni bezak sifatida ko'chalar, maydonlar va binolarni tashqi ko'rinishida ishlatish mumkin.

Binolarni yangi yilga bezak va bezash uchun ofis va savdo sotiq binolarini bezashda ishxona rahbarlari, boshliqlari, shuningdek davlat tashkilotlari bilan kelishilgan holda har yili binolar va ko'chalarni yangicha bezash usullaridan foydalangan holda bezashni taminlab berishadi.

Yangi yilni bezash! Ofis, magazin, bino, shahar ko'chalarini yangi yilga bezatish.

Yangi yilni bezash **madaniy tadbirlarni bezatishda rang tarqatuvchi moslamalardan «Fantom»** Eng ishonchli "Oysimon gul rangini tarqatuvchi", tekst joylarda yaxshi va tez harakatlanadi. Tadbir jarayonida tez va qiynalmasdan joylarini almashtirish mumkin. Ishlash jarayonida ayrim shunga o'xshash moslamalarning 3 tasining ishini bajaradi, ishlab chiqarish firmalariga qarab 1,500 dollardan-5,000 dollargacha sotuvda mavjud. Turli xil ko'ngil ochar tadbirlarni ayniqsa qiziqarli Shou

uchrashuvlarini o'tqazuvchi tashkilotlar uchun juda qulay moslama. Aylanish burchagi 120 gradusni tashkil etadi.



Mana bunday turli xil rang tarqatuvchi moslamalar.

- Rang tarqatuvchi moslamalardan biri «Fantom»

• Eng ishonchli "oy simon gul, va turli xil shakllardan iborat ranglarni tarqatuvchi", mo'jiza deb tan olingan texnik moslama, sahnalarda tekst joylarda yaxshi va tez harakatlanadi. Xordiqiy madaniy dam olish tadbirlarni o'tkazish jarayonlarida tez va qiynalmasdan joylarini almashtirish mumkin. Tomoshabinlarga hech qanday salbiy ta'sir etmaydigan xavsizligi kafolatlangan. Ishlash jarayonida ayrim shunga o'xshash texnik moslamalarning 3 tasining ishini mukammal bajaradi, ishlab chiqarish firmalariga qarab 1,500 dollardan-5,000 dollargacha sotuvda mavjud. Turli xil kungil ochar tadbirlarni ayniqsa qiziqarli Shouv uchrashuvlarini o'tqazuvchi tashkilotlar uchun juda qulay moslama. Aylanish burchagi 120 gardusni tashkil etadi..

Turli xil rang tarqatuvchi texnik moslamalardan biri - **Martin Pro Mania EF1i** -Mania EF1i – Juda samarali bo'lib o'z ichiga 8-xil rangni olgan, moslamaga dinamik ishlov berilgan, juda chiroyli gafik chizma usulida rang tarqatish xususiyatiga ega, tez aylanish xususiyatiga ham egadir, ranglarni aniq va ravon tarqatadi, yengil

ishlangan bo‘lib yuqorida tanishib chiqilgan «Fantom» moslamadan ko‘p bo‘lmasada narx jixatidan qimmatroq, sotuvda topish qiyin emas.



Rasmda. Chiroqli bezatish moslamalar

Maniya EF1– texnik moslama Juda samarali bo‘lib o‘z ichiga 7-xil rangni olgan, moslamaga dinamik ishlov berilgan, juda chiroyli grafik chizma usulida rang tarqatish xususiyatiga ega, tez aylanish xususiyatiga ham egadir, ranglarni aniq va ravon tarqatadi, engil ishlangan bo‘lib yuqorida tanishib chiqilgan «Fantom» moslamadan ko‘p bo‘lmasada narx jixatidan qimmatroq, sotuvda topish qiyin emas

Yana bir kompyuterlashgan chiroq nurlarini tarqatuvchi texnik moslama (Martoo Bill).

– Bu moslama juda samarali bo‘lib o‘z xizmatiga 8-xil rangni olgan, moslamaga dinamik ishlov berilgan, juda chiroyli nurli shakllardan iborat grafik chizma usulida rang tarqatish xususiyatiga ega, tez aylanish xususiyatiga ham egadir, ranglarni aniq va ravon tarqatadi, yengil ishlangan bo‘lib yuqorida tanishib chiqilgan moslama katta bo‘lmasada narx jixatidan qimmatroq, sotuvda topish qiyin emas. Tarqatayotgan nurlar kishining ko‘ziga umuman zarar etkazmaydi.

Zamonaviy tutun tarqatuvchi (Dimmashini aparati) - Antari Z 800



Turli xil kontsert dasturlarida ko‘proq ishlatiladigan zamonoviy texnik vositalardan yana biri tutun tarqatuvchi generator Antari Z800, 750Vt elektr quvvatini oladi, 85 kub.m/min.ishlash qobidiyatiga ega, bakida 1l.suv bilan ishlaydi **Antari F-80Z** “Alfa” tutun tarqatuvchi-mashina 700 Vt, elektr quvvatini oladi, 70 kub.m/min. ishlash qobidiyatiga ega, bakida 0,8 litr suv bilan ishlaydi.

Yana bir chiroqli bezak moslama, ACME LED-245 - LED proyektori.

Aylana oyga o‘xshash gul simosida turli xil rangli lazer nurlarini tarqatadi. Ishlash sifati o‘ta a’lo darajada ikki yo‘lakda ishlaydigan maxsus dasturga ega. Bunday rangli proyektorlar ko‘proq kechki ko‘ngil ochar xordiqiy tadbirlarda ishlatiladi va kishilarning kayfiyatini ko‘tarish bilan bir qatorda kishilarda tadbir yuzasidan yaxshi ta’surot qoldirishi hamda boshqa chiroq nurlarini tarqatuvchi proyektorlardan farq qiladi. Elektr quvvati 250 vt bilan ishlaydi.Eng asosiysi kam energiya sarflaydi va ko‘p issiqlik tarqatmaydi. Ishlash muddati deyarlik cheksiz hatto lampalarini ko‘p muddatga almashtirmasa ham bo‘ladi.

Texnik ma’lumot:

Rangdiodlari: 2 x 46 bo‘lib har tomonidan (16 ta qizil, 15 ta yashil, 15 ta ko‘k ranglar tarqatadi.)

Rangdiodlarining ishlash muddati: 100 ming soat.

Rang tarqatib turuvchi chiroq shaklidagi moslamalar; ko‘proq yangi yil va katta sayillarda bayramlarda ishlatiladi.

Turli shakllardagi chiroqchalar kishilarning kayfiyatini ko'tarish uchun g'aroib bo'lishi yaxshi natija beradi....misol uchun o'simliklar, daraxtlar, suvda, bino karkazida, sim yog'ochlarda va xok...ularni ko'chalarda bino tashqarisida yoki ichkarisida o'rnatish mumkin.

Bularni o'rnatish va ishlatishda albatta mutaxassislar jalb etilishi shart.

Elektr quvvati bilan ishlaydigan bayramona chiroqlar katta bog'lar ya'ni tabiat qo'ynida xam katta foyda keltiradi.



Madaniy tadbirlarni badiiy bezashda ishlatiladigan yana bir texnik moslama- oynali CHAUVET MB-16 sharlari haqida ko'p gapirish shart emas deb o'ylayman. Bunday sharlar ko'proq kechki ko'ngil ochar xordiqiy tadbirlarda ishlatiladi.

Yoshlarimiz sir emas, o'zlarining bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishlarida turli ko'ngil ochar xordiqiy tadbirlarda ishtirok etishadi.

Bunday sharlar turli xil rangli chiroqlar ta'sirida ishlaydi. Tadbir o'tkaziliyotgan auditoriyadagilarni deyarlik o'ziga qarata oladi.

Oynali sharlarning 8,10, 12, 14, 16, 18, 20 diametrlik turlari mavjud.

Motorining ishlash qo'vvati minutiga 1-2 va 5-6 aylanish hajmiga ega.

Madaniy xordiqiy tadbirlarni bezatish uchun ishlatiladigan zamonaviy texnik vositalar tarkibiga kiradigan aylanma proyektorlarning biri **ASME IM- 1200SZ-MSR** bu aylanma nur tarqatuvchi moslama masofadan turib boshqariladi.

Ishlash hajmi 22 kanalda ishlaydi, chiroq nurlarini tarqatuvchi lampasi 1200 vt da ishlasada ko‘p elektr quvvatini olmaydi. Ishlash jarayonida moslama ichiga joylashagan sovitish tizimi o‘rnatilgan vaqtiga qarab avtomat tarzida ishga tushadi. Aynan madaniy tadbirlarni texnik tomondan bezatish jarayonida mutaxassislar tomonidan yaxshi sifatli texnik moslama deya e’tirof etilgan.

Moslama turli vaqtda istalgan sahna ko‘rinishi harakatlanish usullari bilan turgan joyning o‘zida aylanish xususiyatiga ega. Ishlash jarayoni tinimsiz ko‘pi bilan 22 xil boshqaruv kanalida turli ranglar oqimini tarqata oladi.

Madaniy tadbirlarda ishlatilishi jixatidan qulay bo‘lgan havo texnik moslamalarni ishlatish ommalashmoqda, o‘zicha osmon o‘zra rang tarqatuvchi moslamalarni o‘z qo‘limiz bilan ham yasashimiz mumkin.



(Yasama osma matoli bezak chiroqchalari)

Havo sharlari bizga ma’lumki o‘zoq Xitoydan kelgan. Bir qiziq holat agar havo sharlarini o‘zing qo‘ling bilan yasab osmonga havoga uchirsang albatta falakdan o‘zingga yaxshi tilak tilashing kerak deyishadi - Xitoyliklarda bo‘ holat odatiy kundalik bir ko‘rinishni aks etadi lekin yaqinroq olib qarasiyz minglab kishilar yaxshi niyatlar - oilam tinch bo‘lsin, bola chaqam sog‘ omon bo‘lsin, urush bo‘lmasin, osmonimiz musoffo bo‘lsin, o‘tganlarning ruxiga, to‘g‘iladigan chaqaloqqa, betob kishining sog‘ayishi va shunga o‘xshash turli tilaklar tilab havo sharlarini turli ko‘rinishda, turli ranglarda yasashadi va havoga uchirishadi.

Bizda xam bu narsa yo‘lga qo‘yilgan masalan, bitiruv kechalari, yangi yil, Navruz bayramlari, tug‘ilgan kunlarda lekin bunday havo sharlari bilan ishlash katta bir an’anaga aylanmagan undan shunchaki qiziq bo‘lgani uchun foydalanamiz.

Osma hafo sharlari qilinishi jixatdan oddiy yonmaydigan qog‘ozdan yasaladi, tagiga yonib turuvchi maxsus yasama pech, (gorelka) yonganda gumbazda issiqlik harorati paydo bo‘lishi bilan havoga ko‘tariladi va yonib turgan kichkina olovcha havoda chiroyli manzarani osil qiladi.

Ochish muddati qiziq bor yo‘g‘i 20 minut bo‘ladi. Lekin shu qisqa vaqt ichida yerdan 200 metr tepalikka ko‘tariladi. Ana shu qiziq manzarani bezak vositasi o‘rnida katta kenglikda minglab kishilar tomosha qilishadi bunday havo sharlari qizig‘i borgan sari ko‘rinishi maydalashi boradi va oxir oqibat bir kichkina yonib turgan nuqtani tomosha qilasiz va tilagingiz amalga oshdi deb qabul qilasiz va bundan xursanda bo‘lasiz.

Korparativ bayramlarda ko‘pchilik bo‘lib korxona xodimlari shu tariqa havo sharlari uchirsa bu jo‘da katta qiziqarli manzara bo‘ladi.

Bunday havo sharlari feyerverklar va salyutlar turiga yaqin lekin narxi jixatdan arzon va qulay.

Nazorat uchun savollar

1. Ayromenamenlar deganda nimani tushunasiz?
2. Ochiq yoki bino bezagida qanday o‘xshash va farq qiladigan tomonlari bor?
3. Dekoratsiyalar qachon paydo bo‘lgan va qayerda?
4. Grafika nima?
5. Multmediya asoslari orqali bezak.

Mustaqil ish uchun topshiriqlar

1. Bolalar bayram bezagi bo‘yicha ma’lumot bering?
2. Madaniyat va san’at muassaslarida o‘zingizga tanish bo‘lgan badiiy bezak manbalaridan birini tahlil qiling.

3. Ertak qahramonlarining bezak turiga ahamiyati.
4. Bayram tadbirlarida bezak ishlarni amalga oshirishdagi mahorat.
5. Konsert dasturlarini bezatishdagi asosiy bezak turlar.

2.3. Ko`ngil ochar tadbirlar va bayramlarda badiiy bezash ishlari.

Bayramlarni ayniqsa bolalar bayramlarini bezashda azaldan ishlatilib kelinayotgan turli rangli havo sharlar ham bayram bezaklarida bezash ishlarida yaxshi va mohirona ishlatilib kelinmoqda.

Doimiy harakatda bo`ladigan shishirilgan havo yuborgichlar bilan ishlaydigan, o`zining g`ayri - tabiiy ko`rinishi, tinimsiz turli qiyofaga o`zgarishi bilan kishilarda kulgi qo`zg`atuvchi, raqsga tushuvchi va nomini har xil aytish mumkin ("aeromen", "airmen", "aeyrm) va hokazalar....

Ayromenamenlar - havo orqali shishirilgan shaklli o`yinga tushuvchi, odamda kulgi qo`zg`atuvchilar deb nomlanadi. Bunday shakllardagi ayromenamenlar bayram kunlari ko`proq ko`chalarni stadionlarni maydonlarni bezatishda yaxshi natija beradi.

Raqsga tushuvchi, kulgi qo`zg`atuvchi ayromenamenlar kishilarda o`zining turli xil qiziq, qiziqarli harakatlari bilan tomoshabinlarning kayfiyatini bayramona ko`tarilishiga xizmat qiladi.

Ayromenamenlarning balandligi 4-6 metr bo`ladi va ularni 10 minutda o`rnatish mumkin va hech qanday maxsus ma'lumot yoki kasb talab etilmaydi.



(Rasmda sport bayramlarida ko'chalarni bezab turuvchi kulgi qo'zg'atuvchi ayromenamenlar)

To'liq termini ingliz tilidan olinan bo'lib---air- vozdushniy, i man – chelovek (demak havo odamchalar) degani to'g'riroq...

Ayromen – konstruksiya jihatidan maxsus matodan tikiladi. Balandligi 4-8 metrgacha bo'ladi, havo yuborgichlar orqali ichiga tagidan havo yuborish yo'li bilan ishlaydi....,u o'zining haqiqiy kishilarga o'xshash harakatlari bilan o'ziga tomoshabin ayniqsa bolajonlarni jalb eta oladi...

Ayromenlarni jinsini qanday aniqlash mumkin-mutaxassislarning fikriga ko'ra-qiz bola ayromenlarni bo'yi pastligi va 5-metrgacha hamda yubkasidan ajratishadi, aksincha o'g'il bola, ya'ni erkak ayromenamenlarni bo'yi balandligi va yubkasiz....

Yana bir bayram bezak vositasi ayromen kastyumlar: kami bilan 600 grammi tashkil etadigan havo kastyumlarining o'ziga yarasha bayramona kayfiyat ko'taruvchi xususiyatlari bo'lganligi uchun ham hozir eng foydali bayram bezak vositasi sifatida e'tirof etilmoqda.

Bayramlarni tashkil etish turli kino olish jarayonlarida, teatr tomoshalarida, tug'ilgan kunlarda, studiya va to'garakalarda, aksiyalar, reklamalar, ayniqsa bolalar

bayramlarida, karnavallarda, maskaradlarda, turli hordiqiy ommaviy bayram tomosha va sayllarda ko‘plab ishlatilmoqda.



(Rasmda bolajonlar bayramini bezatuvchi ayromen kastyumlari)


Bunday ayrokiyimlar ko‘proq disney personajlaridan olinadi.

Masalan: Mikki Maus, Tigrulya i Vinni, Tom va Jerri, Kitty, bob laqabli kuchukcha, Minion, Kungfu Panda, Sher Aleks. Karlson, Timsoh Gena va Cheburashka, Fiksiki, Barboskini, va albatta Masha va Maymoqvoy Personajlarning ovozlarini yozib olib fonogrammadan foydalansak ++ deylik-tomoshabinda yanada qiziqish oshadi va tadbirni o‘tkazishda hayajonli ham kuchli ta’sir etishiga shak shubxa yo‘q.....Bundan tashqari-yurak ko‘rinishda, qalam, kitob, va hokoza. Barcha personajlarni harakatga keltiruvchi mutaxassislarni **animatorlar** deydi. Bizga ma’lum hatto katta bayram tadbirlarini ochilish jarayonida hamda mehmonlarni kutib olish va kuzatish jarayonlarida animatorlarning ishi ko‘zga tashlanadi.



Yana bir ayrokiyimlar mavjud, bu sharqona chiroqlar yordamida kiyish mumkin bo'lgan kapalak, qo'sh yoki kosmik odamchalar shaklini beruvchi maxsus dasturda yonib uchib, ishlashi mumkin bo'lgan moslamalar va ayrokastyumlar ko'pi bilan 3-7 kunda tikib tayyor holga keltiriladi va sotuvga chiqariladi. Ayrokostyumlarni maxsus ko'rinishda o'zingiz xohlagan razmerda ham tiktirishingiz mumkin.

Salbiy ahamiyatga ega bo'lgan "ommaviy madaniyat" ning bir turi deb qaralayotgan qo'rqinchli ayrokastyumlar va maskalarni ishtirokchilar kiyishdan oldin personajning chiqaradigan ovozlarini o'xshata bilash bilan bog'liq masalalarga katta e'tibor qaratishadi. Masalan ovozni o'xshatish orqali kishilarda qo'rqish hissini oshiradi.



Yuqorida so'z yuritilgan hollarni biz hammamiz uchun sevimli bo'lgan yangi yil bayrami misolida olaylik.

Yangi yilning eng kulminatsion jarayoni bu bizningcha bolajonlar uchun kerak bo'lsa biz kattalarni ham gohida o'ynoqi yoshligimizni yodga soluvchi - "Archa bayramidir" - deb o'ylaymiz.

Albatta bu archa bayramida bolajonlarimiz archa atrofida o'yin kulgi og'ushida bo'lar ekan bolalikning, yoshlikning eng beg'ubor kunlarinig shohidi bo'layotgani ko'z oldimizda namoyan bo'ladi. Osmono'par qilib bezatilgan "Archa" atrofida ertak qahramonlari bilan o'ynar ekan rang-barang chiroqlarning yonib -o'chib turishidan tortib, ovoz kuchaytirgichlar orqali taralayotgan musiqa bilan oshna bo'ladilar.

Ayniqsa, Yangi yilga zavq bag'ishlovchi texnik vositalarning rangli fontanlar, rangli projektorlar, ayniqsa bayramga o'ziga yarasha zavq bag'ishlovchi feyerverklarning, osmon-u falakda rangbarang joziba bilan kishilarni rom etayotgan salyutlar va turli xil pirotexnik vositalar bayramning kulminatsiyasi bo'lib xizmat qiladi.

Yangi yil bayramida biz shahar aylanar ekanmiz, ko'chalarning, ayniqsa sayilgohlarning, dam olish xiyobonlari, hatto do'konlar, ishxonalar, o'quv dargohlari, bog'cha va maktablar hatto xonadonlarimizning yangi yil kiyimini kiyishi o'zgacha inson kayfiyatini ko'taradi, go'zal chiroyli did bilan bezatilganligini ko'rib xursand bo'lasan kishi. Daraxtlarga, devorlar va ustunlarga chiroyli qilib o'rnatilgan rangbarang miltillab turuvchi chiroqlar, yangrab turuvchi kuy qo'shiqlar, elektro panoramalar va hokazalar bayramdan dalolat berib turadi.

Do'konlar, ishxonalar, ko'chalarda o'rnatilgan archalar va maxsus dastur bilan ishlovchi "Qor bobo" va "Qor qizlar" eng yangi texnik bezash vositalarni ko'rib xursand bo'lasan.

Korparatif bayramlarni o'tkazish va ularni bezatish ishlari.

Bayramning asosiy vazifalaridan biri;

*Korxona va tashkilot ishchi xodimlarini doimiy **ma'naviy** va **moddiy** rag'batlantirish.

* Korparativ dam olish - **korparativ madaniyatning** asosiy turi bo'lishi shart.

* Korparativ madaniyat bu asosiy madaniy xordiqiy dam olish bo'lib rahbariyat tomonidan oldindan o'ylangan lekin ishchi xodimlar tomonidan kutilmagan turli tuman uyinlar va xatto tammadi qilish shakllari va ko'rinishlarini topish, kerakli maqsad uchun mutaxassislarni topish ular bilan turli ko'rinishdagi shartnomalarni imzolashdan iboratdir.

* Maroqli va maqsadli dam olish bilan birga kompaniyalarning kelajigi, uning prestiji, yuksalishi, daromad manbalarini izlab topish va uni izchillik bilan ish faoliyatga ishlab chiqarishga tadbiriq etish.

Korparativ tdbirlarning turli yo‘nalishlari mavjud:

Masalan:

- 1.«Korxonada inqirozga qarshi boshqaruv»
2. «Kompaniya yutuqlari siri»
- 3.«Kompaniya aksiyalari» - biznesni rejalashtirish texnologiyasi
- 4.«Bir jamoa bo‘lib»
- 5.«Kompaniyaga 25 yil» (HR-menedjer)
- 6.«Biznes g‘oyamiz»
7. «Kompaniya va biznes hamkorimiz»

Bizga ma‘lumki bayram tadbirlari ko‘p

Madaniyat va san‘at olamida hammaga ma‘lum va begona bo‘lmagan hatto yaqin kunlarga kungil ochar tadbirlar bo‘lmish konsert-shou, oqshom, banket, tomosha va hokozalar haqida to‘la qonli xabarlarga ega bo‘lsakda nimalarnidir yoddan chiqarayotgandekmiz.

Bugungi kunga kelib dunyoning rivojlangan davlatlari o‘zining ichki tashqi siyosati bilan bir qatorda fan sohasida, iqtisodiy rivojlanishi, o‘sishi, moliyaviy barqarorlikka erishish yo‘llarini qidirmoqda va unga javob topish jarayonlariga erishishmoqda ham.

Ayniqsa hozirgi zamonaviy ibora biznes-tijorat, savdo singari iboralar ko‘plab uchramoqda.

Biznes qilish jarayonida yuqori cho‘qqilarni zabt etish uchun bilim, tafakkur va albatta ishbilarmonlik, uddaburonlik ham kerak ekanligi sir emasdek lekin

reklama, kompaniya pro aksiyalar kompaniyaning kelajigi bo'lajakdagi yutuqlari to'g'risidagi tushunchalarni ko'rgazmalar orqali namoish eta bilishi.

O'zining kelajagiga yuksalishiga be farq kompaniya va korxonalar ishlab chiqarish sohasida yuqori marralarga erishish yo'lida o'z korxonalarining aksiyalarini, tadbirlarini va bayramlarini o'tkazib kelishadi.

Kompaniya prodyuserlari va xomiylari bayramlarga bag'ishlangan bayram tadbirlariga homiylik qilish jarayonida kompaniya ishchi xodimlarini rag'batlantirish jarayonida ularni yaxshi dam olishini ham inobatga olishlari kerak.

Bunga: konsert dasturlari, turli qiziqarli o'yinlar, musobaqalar, ko'rgazmalar, turli aksiyalar, raqs turi bilan bog'lik uyinlar, har xil nominatsiyalar –sovg'alar – mukofatlar va hakoza....

Eng asosiysi korporativ bayram kishilarning kayfiyatini ko'tarishi bilan bir qatorda kompaniyaga foyda keltirish masalasi bu holatda turli ko'rinishdagi reklama, ko'rgazmalar, stendlar, proaksiyalarning o'rni beqiyosdir.....

Bugungi kunga kelib korxonalar bilan bog'liq korporativ bayramlarni o'tkazish ananaga aylanib ulgurdi .

*** Ko'z o'ngimizda chiroyli qilib bezatilgan ofes yoki korxonani keltiraylik:**

* Tadbir jarayonida boshqa kompaniyalar va tadbirkorlar bilan muzokoralar olib borish rejalari tuziladi.

* O'zining biznes rejasini bezatilgan holda ko'rgazma holda ko'rsatish.

* Oldindan tayyorlangan soha mahsulotini banerlar orqali namoish etish.

* Mavzuga oid mahsulotlar majmuasidan iborat albomlar, bukletlar, ko'rgazmalar va dastur rejalari targ'ibot qilish.

* Har bir korxona o‘zining ish mahsulotlarini reklama orqali xaridorini oshirish, ko‘proq ommani jalb etish deb biladi:

* Masalan to‘rizimni tashkil etish fermalar yoki kompaniyalar o‘zlarining ish faoliyatining eng yuqori xizmat turi nima va nima bilan, qanday xizmat turlarini amalga oshirish mumkinligi , boshqa fermalardan ularning yutuqlari va serviz xizmatining faoliyati ekanligi uning ish faoliyati haqida ma’lumotlar berish deb baxolaydi...

* Bundan tashqari korxonaning korporativ bayram kunlarini korxonada ishlayotganlar uchun haqiqiy kungil ochish, yaqinlari bilan ish faoliyatidagi yutuqlarni birga nishonlash, bir birlarini tabriklash imkonini beradi. Korxonada ishlayotganlarning kayfiyati ko‘tarilishi bilan yangi ish kuniga to‘liq kuch bilan ishlash imkonini yaratadi, ish unumdorligi oshadi.

* Korporativ bayramlar nimaga yana kerak; asosiysi jamoa a’zolari bunday tadbirda tanishadi, bahslashadi, kungil yozadi, o‘ziga kerak bo‘lgan yangiliklardan xabardor bo‘ladi, kishilar biri birlarini ko‘radi va ko‘rsatadi.

* Korxonaning ichki faoliyatiga qaraydigan bo‘lsak korparativ bayramlarni asosan korxonaning tug‘ilgan kuni ya’niy tashkil etilgan kun deb baxolash mumkin yoki yangi yil arafasi o‘tgan yildagi yutuqlarni sarhisob qilish va birga bayramona baholash...

* Korparativ bayramlar umumiy yig‘ilish yoki shunchaki ish faoliyati bilan bog‘liq rejali yig‘ilishdan tubdan farq qilishi kerak aks holda korxona ishchilari bu bayramga boshqacha ko‘z bilan qaraydilar aksincha chiroyli qilib bezatilgan maydon yoki korxonaning ko‘rinishi bayramona kayfiyatni yanada oshiradi.

Bayramlar bezagi bo‘lmish feyerverklari haqida -bayramlarda, ommaviy katta tomosha sayllar, xordiqiy ko‘ngil ochar konsert shou dasturlari va tomoshabob chiqishlar va hok.larda ishlatilgan. Feyrverklar eng tomoshabinni o‘ziga jalb

etadigan, tomosho jarayonida hammani o'ziga maftun etishi bilan boshqa bayram bezak turlaridan tubdan farq qiladi.

Feyerverklar dunyoni ostun ustin qilolgani yo'q, lekin insonlarni hayratga solish bo'yicha katta salohiyatga ega bo'lgan eng ta'sirchan jozibali texnik vosita sifatida madaniy tadbirlar va bayramlar tarixidan joy olgan desak bo'ladi.

Osmonda o'ziga yarasha xavoning, imqlimning qanday xolatida bo'lishidan qattiq nazar falakda, yerda o'zining xaqiqiy sirlarini xayratga soluvchi kuchi bilan bizni xayratga solishida davom etmoqda.

Bugungi kunga kelib uning turlari shakllari ko'paymoqda.

Biz bilamiz inson qo'li bilan yaratilayotgan bu sirli mo'jizadir.

Feyerverklarning vatani Xitoy deb aytiladi. Xitoyliklar feyerverklarni ilohiy ishlar uchun ya'ni ruhlarni, jinlarni qo'rqitish va ularni haydash uchun maxsus ovoz chiqarish usulida ishlatishgan degan ma'lumotlar bor.

Ungacha esa yashil bambuk daraxtining shohlaridan maxsus yasalgan ichiga ovoz chiqaruvchi poroxlardan foydalanishgan.

Ular o'zlarining milliy an'ana va marosimlari, odatlarida ishlatishgani sabablik uni diniy feyerverklar deyishgan va kiyinchalik bu diniy marosimlar kuchayib ketmasin deb ayrim kishilarnigina ishlatish va tarqatishga ruxsat berishgan.

Xullas ishlatish va ishlab chiqarishda davlat siyosati tomonidan cheklanish bo'lganini bilsak bo'ladi.

Mamlakatimizda o'tkazilib kelinayotgan bayram tadbirlarda zamonaviy texnik vositalarning o'rnini judda katta. O'tkaziladigan madaniy tadbirlarlar qiziqarli, zavqli, hajonga boy, tomoshabinlar diqqatini o'ziga singdira oladigan bo'lishi uchun eng zamonaviy texnik vositalardan foydalanishga e'tibor borgan sari kuchaymoqda va yangilanmoqda.

Yaqindagina madaniy tadbirlarni texnik vositalar yordamida o'tkazish uchun eng oxirgi ishonchli texnik vositalardan foydalanish ko'zga tashlanayotgandek edi. Bugunga kelib shunday imkoniyatlar amalga oshmoqda. Zamonaviy texnik vositalarning turlari, formalari va turli xil shakllari haqida so'z yuritsak.

1. Balandlikka uchadigan feyerverklar (katta ommaviy tadbirlarda ishlatiladi.)

2. Raketalar (ochiq maydonlarda ishlatiladi.)

3. Bayramlarda ishlatiladigan katta hajmdagi salyutlar.

4. Binolar ichida ishlatiladigan manzarali feyerverklar.

5. Uy sharoitida kichkina bayram tadbirlarda ishlatiladigan paqqilog'ichlar va turli xil rangli yaltiroq qog'ozlar tarqatuvchi texnik moslamalar.

Bayramlarda ishlatiladigan salyutlar.

1. Bayram tadbirlarda ishlatiladigan salyutlar.

2. Maxsus otish vositasida, shu soha mutaxassislar yordamida ishlatiladi. Balandlikda turli xil rang barang mayda yonuvchi ximik moslamalar bilan ishlanadigan.

3. Ma'lum bir balandlikga chiqqanda ishga tushadi va o'zidan turli xil rangli yaltiroq qog'ozlarni tarqatadigan.

4. Yerga bug'doy sepilgandek tashlanganda kichchik yonib o'chuvchi turli xil ranglar bilan o'ziga jalb etadigan texnik moslamalar.

5. Sahnalarda ishlatiladigan maxsus salyutlar.

Uchuvchi feyerverklar.

Uchuvchi feyerverklar turli xil bo'ladi.

Tungi bayram tadbirlarida balandlikka uchirish mumkin bo'lgan feyerverklar, u o'zidan chiqariyotgan chiroq ranglari bilan kishilarning e'tiborini o'ziga tortadi.

Kunduzgi madaniy tadbirlarda ishlatiladigan moslamalar turli rangli yaltiroq qog'ozlardan iborat bo'ladi.

Kamalak simon, nurli shakllardan iborat feyerverklar.

Feyerverklar 12- asrda Xitoyda kashf etilgan yevropa davlatlari orasida Italiyada kashf etilgan va ilk namoyish 1538-yilda aristokratlar, saroy xizmatchilari, zadogonlar tomonidan uyushtirilgan bazmlar, ko'ngil ochar kechalarda, sayillarda va turli xil qabul ma'rosimlarda ishlatilgan.

Rossiyada esa feyrverklarning ustulari 1545- yillarda Masofaga otish bo'yicha maxsus artileriya polki tomonidan zalb otish borasida rekord o'rnatgan.

1674- yil Ustyugda juda katta bayramlar uchun maxsus feyerverklar ishlab chiqarila boshlagan.

Feyerverklarning vatani Xitoy deb aytiladi. Xitoyliklar feyerverklarni ilohiy ishlar uchun ya'ni ruhlarni, jinlarni qo'rqitish va ularni aydash uchun maxsus ovoz chiqarish usulida ishlatishgan degan ma'lumotlar bor.

Ungacha esa yashil bambuk daraxtining shoxlaridan maxsus yasalgan ichiga ovoz chiqaruvchi poroxlardan foydalanishgan.

Ular o'zlarining milliy an'ana va marosimlari, odatlarida ishlatishgani sabablik uni diniy feyerverklar deyishgan va keyinchalik bu diniy marosimlar kuchayib ketmasin deb ayrim kishilarnigina ishlatish va tarqatishga ruxsat berishgan. Xullas ishlatilishi va ishlab chiqarilishi xukumat tomonidan qattiq nazoratga olinganligini bilsak bo'ladi.

Feyerverklarning ayrim texnik xolati - o'rtacha tezlik , bilan ishlaydigan feyrverklar- Bu feyrverklar, ishlash jarayonida balandligi 50-60 metrga yetadi. Bu toifali feyrverklarga rim shamlari ham kiradi , bu toifali feyrverklar ko'proq uylarda

kichkina mdaniy ma'rifiy tadbirlarda ishlatiladi(kata kichikligi 25mm dan 50 mm gacha ishlatiladi).

Rim shamlari – Bu turdagi pirotexnik vositalarning tarixi ancha uzoq bo'lib ular zodagonlarning bayramlarida ilgaridan ishlatilgan ,tepaga qarab bir necha bor otish yo'li bilan amalga oshiriladi va otish jarayonida o'z izida chiroyli rangli yo'llar qoldirishi bilan ajralib turadi.

Feyrverklar-o'z ichiga turli xil pirotexnik yonuvchi moslamlardan iborat bo'lib ular tarkibiga yonuvchi massa va paxta bo'lakchalari kiritiladi.Tadbirlarda juda chiroyli rang tarqatib tez o'chish xususiyatiga egadir.

Balandlikga moslangan feyrverklar, salyutlar.



(Rasmda bayram feyrverklari va salyutlar)

Katta bayram kunlari ishlatib kelingan havo sharlari 1824 yil dunyoga kelgan bo'lib uni olim Maykl Faradey ixtiro qilgan. U vodorod bilan bog'liq ixtirolarining birida bunga qo'l o'radi. Lekin bungacha yumoloq ichiga havo to'ldirilgan katta hajmdagi havo sharlarida kishilar bayram kunlari bayramlarni va dam olish kunlarda Rim shahrini bezatish borasida ishlata boshlagan.

Lekin Maykl Faradeyning ixtirosi dunyoga tez tarqala boshlangan va bunday dumoloq shakldagi havo sharlari karnavallarni bezash va ko'chalarni bezashdek ishlarda ishlata boshlangan.Bunday dumoloq havo sharlari ilk hayvonlarning terilaridan qilingan bo'lsa xuddi shunday texnologiyalar asosida kiyinchalik kauchuk va rezinadan ishlangan va bolajonlarning sevimli o'yinchog'iga aylangan.

Hozirgi kunda ham sharlarning umumiy ko‘rinishi o‘zgarmagan dumoloq shaklda ishlatilib kelinadi.

Nazorat uchun savollar

1. Ayromenamenlar deganda nimani tushunasiz?
2. Bayram feyrverklari va salyutlar to‘g‘risidagi tushunchangiz?
3. Rang tarqatuvchi moslamalardan «Fantom» haqida tushuncha bering
4. Kulgi qo‘zg‘atuvchi ayromenamenlar haqida nimalar bilasiz?
5. Ayrokiyimlar?
6. Zamonaviy tutun tarqatuvchi moslamalar?
7. Multmediya asoslari orqali bezak?

Mustaqil ish uchun topshiriqlar

1. Bayram feyrverklari va salyutlar bo‘yicha ma’lumot bering?
2. Madaniyat va san’at muassaslarida o‘zingizga tanish bo‘lgan badiiy bezak manbalaridan birini tahlil qiling.
3. Ertak qahramonlarining bezak turiga ahamiyati.
4. Bayram tadbirlarida bezak ishlarni amalga oshirishdagi mahorat.
5. Zamonaviy tutun tarqatuvchi moslamalar.
6. Katta bayram mushaklari haqida ma’lumot bering

3-bob. Ommaviy bayramlarni bezatishning o‘ziga xos xususiyati.

3.1. Ommaviy tomosh maydonlari sport va ko‘ngil ochar tadbir va bayramlarda badiiy bezash ishlarining o‘ziga xos xususiyatlari.

Mamlakatimizda o‘tkazilib kelayotgan bayramlar va ko‘ngil ochar tadbirlarni o‘tkazilishida tadbirlarning bezash ishlariga katta e’tibor berilishi o‘tayotgan bayramlarning saviyasi, ta’sirchanligi qolaversa yoshlar orasida katta tarbiyaviy ahamiyati katta ekanligini e’tirof etishimiz kerak.

Xalqimiz orasida qadimdan urf bo'lgan an'anaga ko'ra, ommaviy bayramlar va sayl tomoshalarda bezak san'ati va musavvirlar ijodiy mehnati muhim o'rin tutgan.

O'rta asrlarda o'lkamiz bo'ylab safar qilgan mashhur sayyoh Klavixox ham Temuriylar davrida o'tkazilgan sayilgoh va maydonlarning rango-rang qilib bezatilishi, bayramona kayfiyat baxsh suvchi bezak san'atiga ixtisoslashgan musavvirlar ijod qilganliklarini kuzatishgan. Hirot miniatyura maktabining yetuk vakili Behzod, ulug' Alisher Navoiy dahosidan bahra olgan iste'dodli musavvir Moniy va boshqa ijodkorlar navro'z sayillari va hosil bayramlarida sayilgohlarni bezash ishlaridagi amfiteatr ishtirok etishgan.

Ommaviy tomoshalar bilan bog'liq ana shu ezgu an'ana istikdoldor yillarida ham izchil davom ettirildi. Bugungi kun bayramlarida ishtirok etuvchi musavvir shunchaki oddiy rassom yoki bezak ustasi emas, balki tadbirni sahnalashtiruvchi rejissyorning talqinlari va mizanssenasiga mos tasvirlarni o'ylab topib, sayilgohni teatrlashgan tomosha mohiyatiga monand holda bezatuvchi ijodkordir. Teatr rassomidan farqli o'laroq Ommaviy bayram musavviri katta qamrovda va keng masshtabda ijod qiladi, chunki u ishlayotgan material kichik bir sahnani emas, balki tomoshabinlar bilan o'ralgan muhtasham amfiteatr yoki sayilgoh maydonini bezatishni taqozo etadi.

Shunday katta qamrovdagi maydonni rejissyor maqsadi va talqinlariga mos ravishda bezatish uchun ommaviy bayram va tomosha rassomi ayni paytda ham arxitektor, ham dizayner, ham bezak ustasi-dekorator, ham musavvir- muhandis sifatida faoliyat ko'rsatishi talab qilinadi.

Ommaviy bayram va tomoshalarda tadbir o'tkaziladigan joyni bezatuvchi rassom- bilan ishlashda rejissyor quyidagilarga e'tiborni qaratishi lozim bo'ladi:

- 1) Bezatuvchi rassom tavsiya etayotgan bezatish vositalari ssenariya mohiyati va tadbir g'oyasiga qanchalik mos bo'lishi;
- 2) Tomosha maydoni yoki amfiteatrdagi bezak vositalari muayyan ramziy timsol ma'nosida qo'llanilishi va tadbirning o'tishida ma'lum badiiy-estetik vazifani bajarishi;
- 3) Rassom tavsiya etayotgan bezak usullari va vositalari tadbirning umumiy

qurilmasi - kompozitsiyasi bilan yaxlit tizimni tashkil etishi.

Bezakchi rassom muayyan ommaviy bayram tomoshasini tashkil etishda ishtirok etar ekan, avval, tadbir oʻtadigan joy - makonning tuzilishini yaxshi idrok etishi, ssenariy gʻoyasi va rejissyor talqinidan kelib chiqqan holda sayilgoh yoki amfiteatrni bezatish mexanizmini ishlab chiqishi kerak. Bunda dekoratsiyalar tanlash, ularni joylashtirish, shiorlarni bezatish, turli epizodlar bilan bogʻliq sahna koʻrinishlarining oʻziga xos bezaklarini yaratish orqali rejissyor maqsadiga uygʻun ravishda ijod qiladi.

Ommaviy bayram va teatrlashgan tomoshani tashkil qilish hamda oʻtkazish jarayonida ishtirok etayotgan dekorator, chiroqchi, liboschi, fon guruhlar rahbarlari va boshqa barcha ijodiy guruhlar rejissyor va rassomning talqinlarini amalga oshirish uchun xizmat qiladilar. Bezakchi rassomning bayram va tomoshalarni sahnalashtirish jarayonidagi asosiy vazifalari quyidagilardan iborat qilib belgilanadi:

- ommaviy tomosha yoki bayram tadbiri boʻlib oʻtadigan joyni

jiddiy oʻrganib chiqish;

- bayram ssenariysi bilan tanishib chiqib, uning mohiyati va

goyasini puxta oʻzlashtirish;

- ssenariyda koʻzda tutilgan kompozitsiyani tadbir mavzusi va gʻoyasidan kelib chiqqan holda ommaviy bayram tomoshasi boʻlib oʻtadigan sayilgoh (yoki maydon)ning qamroviga mos ravishda talqin qilib, tadbir sahnasining umumiy koʻrinishi aks etgan xomaki eskizlarning

chizmalarini tayyorlash;

- ommaviy bayram tadbiri boʻlib oʻtadigan joyni bezatish borasida ishlab chiqilgan eskizlarni rejissyor koʻrigidan oʻtkazish va uning takliflarini hisobga olgan holda qayta ishlab, asosiy eskizni tayyorlash asnosida bezak jarayonini boshlash. Kompyuter texnologiyalari asosida bezatish usullari rivoj topgan hozirgi zamon ommaviy bayramlarida har xil texnik vositalar, pnevmatik

uskunalar, sharlar, lazer nurlari hamda bayram tadbirlarining tomoshaviyligini oshirishga xizmat qiluvchi boshqa turli xil effektlardan samarali foydalanish bezak ustasi faoliyatini yanada kuchaytiradi.

- Mamlakatimizda o'tkazilib kelayotgan bayramlar va ko'ngil ochar tadbirlarni o'tkazilishida tadbirlarning bezash ishlariga katta e'tibor berilishi o'tayotgan bayramlarning saviyasi, ta'sirchanligi qolaversa yoshlar orasida katta tarbiyaviy ahamiyati katta ekanligini etirof etishimiz kerak.

Bayramlarni bizatishda ko'proq nimlarga e'tibor berish kerak bo'ladi.

- Bayram joyini va kunini aniqlash;
- Bayramning asosiy tabrik qismi;
- Bayram kuni o'tkaziladigan ko'ngil ochar o'yinlar;
- Shov-chiqish, kontsert;
- Pirotexnik vositalardan foydalanish sifati;
- Ovoz va ranglar mujassamligi;
- Sahna va ko'chalarni bayramona bezash;
- Bayramni professional darajada olib borish;
- Rasmga, videoga olish;
- Salyut va feyerverklardan oqilona foydalanish va hok.

Bayram tadbirlarining bezash ishlarini birinchi navbatda asosiy ishni sahnani joylanishi yoki tadbirning bo'ladigan joyini ya'ni obektini aniqlashdan boshlash kerak bo'ladi.

- chunki tadbirning qayerda qaysi vaqtda o'tkazilishi katta ahamiyatga ega.
- **Birinchidan** tadbir ochiq havoda bo'lsa ya'ni ko'chada bo'lsa sahna va tadbir o'tadigan maydonlarning bezash vositalari va formalari, bezash shakllarining katta -kichchikligi, arzon -qimmatligiga, sifati va hokazolarga hatto kafolatlanishiga ham e'tibor berish kerak.
- **Ikkinchidan** aksincha bayramlar yoki ko'ngil ochar tadbirlarni yopiq joylarda bino ichida yoki yopiq zallarda o'tkazishga to'g'ri kelsa unda butunlay

boshqacha baddiy bezash ishlarining turli xil forma va shakllaridan, metodlaridan foydalanamiz.

- Ochiq maydonlarda, sport maydonlarida, ko'chalarda o'tkaziladigan bayram bezaklarida biz ko'proq qatnashuvchilarning o'zliksizligi, ularning ko'pligi xatto tomoshabinlarning turli xil yoshda bo'lishini e'tiborga olishimiz kerak, demak bezak vositalarining kattaligi, ko'pligi, turli xilligiga va albatta birinchi navbatda qatnashchilarda xursandchilik kayfiyatini oshirishga hamda o'tkazilgan bayram bezagining rang barangligi bir necha yillar ularning eslaridan chiqmaslik vazifasini bajarishi kerak bo'ladi.

- Bayram uchun maxsus ichiga gel yuborilgan havo bilan tuldirilgan turli xil shakllardagi do'konlar, bolalar uchun o'ynash maydonchalari, ovqatlanish joylari, bolajonlar bilan ularning ota onalarining kayfiyatlari bayramona bo'lishlari uchun turli xil rangli, turli xil shaklli, katta kichik hajmdagi ertak qaxramonlaridan iborat havo bilan to'ldirilgan maxsus bayramona sharlar ventilyatorlar (havo yuborgich) dan foydalangan holda ishlatiladigan qurilmalardan foydalanish ham bayram tashkilotchilarining ishini yengillashtiradi.

- dekoratsiyalar sahnalar yoki har xil qurilmalarni bor yo'g'i bir necha minut ichida ishga tushirish mumkin.

- Havo yuboriladigan dekoratsiyalarni ishlatish ularni o'rnatish uchun judayam malakali mutaxassis bo'lishi shart emas chunki uni o'rnatish oddiy har kimning ham qo'lidan kelaveradi.

- Havo dekoratsiyalari chidamli bo'lib u tez yorilish va dami chiqib qolishdan kafolatlangan.

- Havo orqali shishirib ishlatiladigan dekoratsiyalarning garantiyasi bir yil dan ortiq bo'lib bir necha yillar ishlatish imkoniyati bor, ularni xoxlagancha shishirish va kerak bo'lganda damini chiqarish mumkin xohlasangiz yuz martadan ortiq ham uni yig'ib yoki qayta ishlatish mumkin.

- .Havo orqali shishirib ishlatiladigan dekoratsiyalarning yana bir afzalligi ular havoga chidamli bo'ladi. Xoh qor sovug'i, yomg'ir, jazirama issiq quyosh nurlariga ham bardosh bera oladi.

- Sahna dekoratsiyasida turli xil (figurali) shakllardagi –havo orqali o‘ynaydigan (Ayromenaminlar) tomoshabinlarda kulgi va kayfiyat ko‘taruvchi turli shakldagi, pastki qismidan havo yuborish orqali o‘ynaydigan har xil shakllardagi va turli xil qiyofadagi personajlardan sahnani, sahna oldini, bayram, tadbir o‘tadigan maydonlarga o‘rnatish bayramlarning qiziqarli, esda qolarli bo‘lishi turgan hol.
- Kishilarda kulgi qo‘zg‘atuvchi Ayromenaminlarning o‘lchovi 4 metrdan 7 metrgacha bo‘ladi. Ular beriliyotgan havo orqali o‘z harakatlari bilan odamlarda kulgi qo‘zg‘atuvchi harakatlari bilan kulgi qo‘zg‘atuvchilar ham deb ataladi
- Bayram tadbirlarining bezash ishlarini birinchi navbatda asosiy ishni sahnani joylanishi yoki tadbirning bo‘ladigan joyini yaniy obektini aniqlashdan boshlash kerak bo‘ladi.

Nega bu holatga asosiy e‘tiborni qaratish zarur? Chunki tadbirning qayerda, qaysi vaqtda o‘tkazilishi katta ahamiyatga ega.

Birinchiidan tadbir ochiq havoda bo‘lsa, ya’ni ko‘chada bo‘lsa sahna va tadbir o‘tadigan maydonlarning bezash vositalari va formalari, bezash shakllarining katta - kichikligi, arzon -qimmatligiga, sifati va hokozalarga xatto kafolatlanishiga ham e‘tibor berish kerak.

Ikkinchiidan, aksincha bayramlar yoki ko‘ngil ochar tadbirlarni yopiq joylarda bino ichida yoki yopiq zallarda o‘tkazishga to‘g‘ri kelsa unda butunlay boshqacha badiiy bezash ishlarining turli xil forma va shakllaridan, metodlaridan foydalanamiz.

Ochiq maydonlarda, sport maydonlarida, ko‘chalarda o‘tkaziladigan bayram bezaklarida biz ko‘proq qatnashuvchilarning uzliksizligi, ularning ko‘pligi hatto tomoshabinlarning turli xil yoshda bo‘lishini e‘tiborga olishimiz kerak, demak bezak vositalarining kattaligi, ko‘pligi, turli xilligiga va albatta birinchi navbatda qatnashchilarda xursandchilik kayfiyatini oshirishga hamda o‘tkazilgan bayram bezagining rang barangligi bir necha yillar ularning eslaridan chiqmaslik vazifasini bajarishi kerak bo‘ladi.

Sahnalarni turli xil bezash materiallaridan oddiy yog'ochdan, tez va onson yig'iladigan har xil temir moslamalardan, turli xil faneralardan va eng onsoni ichiga hafo yuborilgan oddiy yelimli mato materiallardan qurish mumkin.

Albatta sahnani yaxshi mustahkam qilib yasash uchun yaxshi (bezakchi rassom) dizayinist, yaxshi ma'lumotli tashkilotchi va malakali konstruktor kerak bo'ladi.

Masalan: qovoqdan yasalgan bayramona xordiq uylarini ko'rib chiqaylik;

Yaxshi kayfiyatni bayram kuni ko'tarish uchun dam olishni tashkil etayotgan mutaxassis yangilik yaratish va shu yangilik bilan (orginal) yagona g'oya bilan kishilarni kayfiyatini ko'tara bilaman degan tushuncha bilan ish faoliyat yuritish kerak bo'ladi. Agar o'zining mukammal g'oyasi bo'lsa o'ziga ishonsa u qancha mablag' ketadi va qancha foyda ko'raman degan beznis reja bilan faoliyat olib borsa ishi omadli keladi lekin bo'la bulguncha qib ko'raychi biror naf chiqarmikin degan fikr mulohaza yuritsa unda ishga qo'l urmagani maqul.

Yuqorida bir tadbirkorning g'oyasi keling shu masala yuzasidan fikr almashaylik... Katta qovvoq shaklidagi qo'rilma nima qilinsa kishilar e'tiborini o'ziga tortadi...nimalarni ishga solish kerak??? Qanday usul va sharoitlar qilish mumkin??? Kattalar

Bayram tadbirlarda rangli yaltiroq qog'oz parchalarini tarqatuvchi texnik moslamalar ham hozirgi kunda baramlar va ko'ngil ochar madaniy hordiqiy konsert dasturlarining saviyasini oshirish uchun xizmat qilmoqda.

Bunday texnik moslamalarning 100 ortig'i mavjud bo'lib ularning barchasini madaniy tadbirlarda ishlatish uchun maxsus ruxsati bor tashkilotchilar tomonidan amalga oshirilishi ko'zda tutilgan.

Mamlakat bayram tadbirlarida davlatimizning ulug' bayramlari va ayrim sana bayramlarida salyutlar, feyrverklar, pirotexnik vositalar ham bayram bezaklari turiga kiradi va kishilarda katta qiziqish uyg'otadi.



(Bayramlarda ishlatiladigan bezatilgan qovoq qaxvaxonalar)

Ko'chada, ochiq havoda qo'riliyotgan sahnalarning bezagiga, sahna oldi bezagiga umuman tadbir bezagini qilishda yoshlarning dam olishlari uchun turli qulayliklar ham yaratilishi kerak bo'ladi.



Ichiga maxsus yel yuborib damlangan rangli katta bayram sahnasi



Bayram kunlari bino ichini bezatish vositalari

Bayram uchun maxsus ichiga yel yuborilgan havo bilan tuldirilgan turli xil shakllardagi dukanlar, bolalar uchun o'ynash maydonchalari, ovqatlanish joylari, bolajonlar bilan ularning ota onalarining kayfiyatlari bayramona bo'lishlari uchun turli xil rangli, turli xil shaklli, katta kichchik hajmdagi ertak qahramonlaridan iborat havo bilan tuldirilgan maxsus sharlar ventilyatorlar (havo yuborgich) dan foydalangan holda ishlatiladigan qurilmalardan foydalanish ham bayram tashkilotchilarining ishini yengillashtiradi.

1). Ichiga havo yuborib qo'riladigan dekoratsiyalar sahnalar yoki har xil qurilmalarni bor yo'g'i bir nechadaqiqa ichida ishga tushirish mumkin.

2). Havo yuboriladigan dekoratsiyalarni ishlatish ularni o'rnatish uchun judayam malakali mutaxassis bo'lishi shart emas chunki uni o'rnatish oddiy harkimning ham qo'lidan kelaveradi.

3). Havo dekoratsiyalari chidamli bo'lib u tez yorilish va dami chiqib qolishdan kafolatlangan.

4). Havo orqali shishirib ishlatiladigan dekoratsiyalarning garantiyasi bir yil dan ortiq bo'lib bir necha yillar ishlatish imkoniyati bor, ularni xoxlagancha shishirish va kerak bo'lganda damini chiqarish mumkin xohlasangiz yuz martadan ortiq ham uni yig'ib yoki qayta ishlatish mumkin.

5). Havo orqali shishirib ishlatiladigan dekoratsiyalarning yana bir avzalligi ular havoga chidamli bo'ladi. Xoh qor sovug'i, yomg'ir, jazirama issiq quyosh nurlariga ham bardosh bera oladi.

Sahna dekoratsiyasida turli xil (figurali) shakllardagi –havo orqali o'ynaydigan (Ayromenaminlar) tomoshabinlarda kulgi va kayfiyat ko'taruvchi turli shakldagi, pastki qismidan havo yuborish orqali o'ynaydigan har xil shakllardagi va turli xil qiyofadagi personajlardan sahnani, sahna oldini, bayram, tadbir o'tadigan maydonlarga o'rnatish bayramlarning qiziqarli, esda qolarli bo'lishi turgan hol.

Kishilarda kulgi qo'zg'atuvchi Ayromenaminlarning o'lchovi 4 metrdan 7 metrgacha bo'ladi. Ular beriliyotgan havo orqali o'z harakatlari bilan odamlarda kulgi qo'zg'atuvchi harakatlari bilan kulgi qo'zg'atuvchilar ham deb ataladi.



(Bayram bezaklaridan ayromenamenlar kulgi



qo'g'tuvchilar)



(Havo bilan damlangan shakldagi bezak vositalari)

O'zbekim sharlari bilan bayramlarni bezash ishlarini amalga oshirish ishlari -

Eng esda qolarli, ma'qul va qulay bezash turlaridan biriga kiradi.

Biz sharlar bilan bezash turini tanlab xato qilmaymiz chunki bu bezash turi kishilarda juda katta hayajonlarni va qiziqishni o'yg'otishi bor haqiqat.

Zamonaviy dunyoda havo sharlarini bilmaydigan, u bilan tanish bo'lmagan inson bo'lmasa kerak.

Biz hozir atom asrida yashayotgan bo'lsak ham bunday chamamda oddiy deb qaralyotilgan havo sharlari haqida va uning kelib chiqishi haqida bilib qo'ysak arziydi.

Hammamizning ham yoshligimiz havo sharlari bilan o'tgan ayniqsa tug'ilgan kun, bayramlarni bunday g'ayriy tabbiy,ko'rinishi jozibali bo'lgan ranglari bilan, o'zining shakl tamoillari bilan barchani o'ziga rom etaoladigan havo sharlarining paydo bo'lishi hammaga qiziq bo'lsa kerak.

Hozirgacha ichiga gel yuborilgan rangbarang havo sharlarini biz osmonga uchirilishini va bayramlarda to'la qonli ishlatilishini yaxshi bilamiz.

Havo sharlaridan turli shakl va formalar yasalishi, bolajonlar yaxshi qiziqib qabul qila oladigan turli kurinishdagi ertak personajlarini taxlashimiz so'zimizning isboti dir

Birinchi bo'lib bayramlarda, turli xil tadbirlarida havo sharlari bilan bezash yevropa davlatlarida qo'llanilgan. Havo sharlari bilan intererlar va ko'chalarni bezash yaxshi natija birgan.

Yevropa davlatlarida bunday havo sharlarining turli xillari ommaviy ravishda ishlab chiqarilganligi boisi aynan yevropa davlatlari bayramlarida, tadbirlarda ishlatishgani sir emas.

Bayramlarni havo sharlari bilan bezash kishilarning ko'nglini ochish bilan bir qatorda katta hayajonlarga bog'laydi.

Hordiqiy tadbirlarni sharlar bilan bezash boshqa bezash turlaridan arzon tursada lekin o'sha qimmat, murakkab bezash turlaridan o'zining bezak ustinligi bilan yuqori tursa turadi hech ham kam emas.

Sharlar bilan bezash, o'tkaziladigan tadbirlarning qanday sharoitda, qanday joyda bo'lishidan qattiy nazar o'zining ixchamligi, yengil va qulayligi bilan ishlatish yoki bezatish ishlarida noqulaylik olib kelmaydi.

Eng zamonoviy texnologiyalar bilan ishlangan havo sharlari ko'chalarga, binolarga, sahnalarga boshqacha bir bayramona his tuyg'ularni hadya etadi.


Katta kichik, umuman turli hajmdagi havo sharlaridan iborat bezaklar bayramga o'zgacha sho'xlik bag'ishlaydi.

Turli xil xordiqiy tadbirlarni, bayramlarni bezashning ayrimlariga alohida to'xtab o'tish joiz deb o'ylaymiz.

Bayram tadbirlarini sharlar bilan bezatish.



Bayram kunlari ko'chalar, binolar va to'yxonalarni havo sharlari bilan bezatish



Turli shakldagi bayram sharlari bilan bezatish



Qadimgi gretsiyada greklar o'zlarining quvonchli kunlarida hamda mehmon kutish marasimlarida (shox qabullarida) rangli havo bilan to'ldirilgan sharlardan foydalanishganlar.

Bunday sharlar e'tibor bering hayvonlarning ichki organlaridan albatta ichak va shunga o'xshash maxsulotlardan foydalanishganligi haqida ma'lumotlar bor.

Lekin shunga qaramay ilk rezenalardan qilingan havo sharlarni birinchi bolib yaratilgan sharlarni ishlatish va ularni ko'ngil ochar-hordiqiy tadbirlarda ishlatilishi mumkinligini Londondagi Korolevskiy Unversetiti professori Mixaelem Faradoy 1824-yilda eksperiment tariqasida ichiga vodorod ishlamasi solingan rezenali sharlarni laboratorida sinab ko'radi.

Ilk bor 19-asrda kauchikli rezinali sharlar Angliya hayotiga kirib kela boshlagan.

Birinchi bo'lib sharlarni ishlatish va ularni ko'ngil ochar-hordiqiy tadbirlarda ishlatilishi mumkinligini Londondagi Korolevskiy unversetiti professori Mixaelem Faradoy va Egmenlar eksprement tariqasida ichiga vodorod ishlamasi solingan rezenali sharlarni laboratorida sinab ko'radi

Bayramlarda havo sharlari bilan bezatish va turli shakldagi ichiga havo yuborilgan ertak qaxramonlari hamda shakllar bolajonlarda katta bayramona kayfiyatni oshiradigan bezatish vositasi bo'lib hozirgi kungacha ishlatilib kelinadi.

Bayram kunlarida bolalar bog'chasi yoki bolalar honalarini havo sharlari bilan bezatishda ham katta mahorat kerak emas.

Havo sharlari va osma sharlar bugungi kun uchun yangilik emas.

Madaniy tadbirlarning qiziqarli va esda qolarli bo'lishi uchun bezatishning bu turi ko'p mablag' talab etmaydi, bezash jarayonida o'ta xavsiz bezatish vositasi hisoblanadi.



Tug'ilgan kun yubileylarni bezashda birinchi navbatda biz joyga e'tibor berishimiz kerak bo'ladi.

1. Yubileylarga bag'ishlangan kun qayerda bo'lishi katta ahamiyatga ega.

(To'yxonada, uyda, ish xonada, tabiat manzarasida, katta sahnada va hok.)

2. Yubileylarga bag'ishlangan tadbirning o'tkaziladigan vaqti.

(Kunduzi, kechasi.)

3. Yubileylarga bag'ishlangan tadbirga taklif etilganlarning yoshi va soni.

(Bezash shakllarining qaysi turidan foydalanish aniqlanadi.)

4. Yubileylarning bezak turlaridan qaysi bir shakliga bi farq emasligi.

(Bezash vositalarining gullar, sharlar va boshqa turlarini tanlash imkonini beradi.)

Hozirgi kunda yubiley bayramlarida sharlar yordamida sahna fondiga katta qilib 50,60,70 yosh deb yozib qo'yish o'rinli ishlatilmoqda.

Tadbir oxirida zamonaviy o‘simlik simon feyrverklar ishlatilmoqda.

Ommaviy va sport tadbirlarini sharlar bilan bezash- Madaniy-ommaviy bayramlarning turlari- konsertlar, sport musoboqalari, xalq sayillarini bayramona bezashda sharlarsiz tassavur qilish qiyin.

Ayniqsa, bayram yakunida rejissura tili bilan aytganda bayram finishida (kulminatsiyasi) turli xil feyrverklardan foydalanish bilan bir qatorda, 500 dan 1000 donagcha va kerak holda undan ko‘p miqdorda turli xil sharlarning hili bir joyga jamlanib tadbir oxirida tepadan sohib yuborilishi bayram qatnashchilari va ishtirokchilarida katta zavq bag‘ishlashi kuzatilgan jarayondir. Bayramlarda katta hajmdagi bayram bezaklaridan iborat turli panolarsiz ham bayram bezagini tasavur qilish qiyin.

Hozirgi kunda bayram kunlari ko‘p va ularning har birining o‘ziga xos bezatish usul va shakllari tartib qoidalari bor bunday usul va shakllarni bilish ham zarur masalan: Uylarimizni bayramga bezatish uchun 9 tavsiya bilan tanishtirish o‘rinlidir:

Agar uyda archa uchun joy yo‘q bo‘lsa yoki shunchaki siz archa sotib olishga ulgurmagan bo‘lsangiz, daraxt shohidan archa yasashingiz mumkin. Kattaroq ignabargli daraxtning bir shohini devorga osing-da, istaganingizdek yasatavering.

2. Uy burchaklaridan ham unumli foydalaning. U yerga kichik hajmdagi archani qo‘yiib, kichik o‘yinchoqlar bilan bezating.

3. Archa o‘yinchoqlaridan faqatgina archani bezatish uchun emas, uyni bezatish uchun ham foydalaning. Dumaloq archa o‘yichog‘ini yaroqsiz kompyuter diskiga maxsus yelim yordamida yopishtiring, so‘ng ilgichini olib tashlang. Ichiga yangi yoki sun‘iy gullardan solib, stol ustiga qo‘ying.

4. Oshxona derzasiga esa o‘z qo‘lingiz bilan yasagan yorqin rangdagi qor parchalarini yopishtiring, ignabargli daraxt shohi yordamida bezakni yakunlang.

5. Uyingizda doimiy osig'lik turadigan zerikarli suratlarga ham Yangi yil quvonchini ulashing. Bu juda oson, shunchaki ignabargli daraxt shoxlaridan surat tepasiga osib qo'ying.

6. Stol va stullarga ham qizil yoki boshqa rangdagi yorqin tasmadan shunchaki kapalak shaklida boylab qo'ysangiz bas. Shugina bilan e'tiborli uy bekasi ekanligingizga va Yangi yilga hafsala bilan tayyorgarlik ko'rganingini namoyish etasiz.

7. Uyingizda zinapoyalar bo'lsa, ularni o'z didingiz va imkoniyatingizga qarab bezating. Nafaqat bolalaringizga, balki mehmonlaringiz va qo'shnilaringizga ham Yangi yil kayfiyatini ulashasiz.

8. Yangi yil Qorbobosiz bo'lishi mumkin emas. Istasangiz, tayyor Qorbobo shakllarini sotib oling yoki o'zingiz yasang. Agar muzlatkichigiz qorday oppoq bo'lsa, ayni muddao. Rangli qog'ozlardan kichkintoyingiz bilan birgalikda Qorboboning ko'zini, burnini, og'zini, sharfini qirqib oling-da, yopishtirib chiqing. Ishonavering, bu sizga ham, bolangizga ham olam-olam quvonch bag'ishlaydi.

9. Ma'lumki, doim Yangi yil arafasida qor yog'ib, bizni quvontirmaydi. Lekin kuyinmang, axir paxta yordamida sun'iy qor yasab, uydan chiqmay ham qishdan zavqlansak bo'ladi.

Yana bir masala ko'rgazmalarni sharlar bilan bezash ishlariqa e'tibor qaratamiz: Sharlar madaniy hordiqiy tadbirlarda ishlatiladigan badiiy bezak vositalaridan turli ko'rinishdagi ko'rgazmalarda ham foydalanish katta ahamiyatga ega.

Ko'rgazma qiluvchi vositalarni temasiga qarab bezatish ishlarini amalga oshirish mumkinligini alohida takidlab o'tishimiz kerak.

Ko'rgazmaga kelgan qatnashchilar ko'rgazmadan biron bir yangilik olishlarida yaxshi oqilona bezatilgan binolar ko'rgazma zallari kishilarning kayfiyatini kutarishi kerak bo'lgan darajada bezak vositalari bilan bezalishi kerak.

Yosh bolalar uchun tashkillashtiriliyotgan ko'ngil ochar bayram tadbirlarda sharlar bilan bezash- o'zbekim sharlari bilan bolalar bayramlarini bezashda ko'proq bez bolalarning yoshi va ularning qanchaligiga e'tibor berishimiz kerak va albatta bayram turiga.

Agar bolalarning bayrami bo'lsa ko'proq biz bezak ishlarida ertagona qarashimiz kerak va shunga o'xshash (perzonajlar) ertak qahramonlarini eslatishi katta ahamiyatga egadir.

Bayramda bolalar sharlar bilan bezatilgan ertak qahramonlarini ko'rib ularda bayramga qiziqish oshishi turgan gap.

Kitoblarda o'qigan ertak qahramonlarini ko'rgan bolalar o'zlarida vatanga muxabbat, tabiatni sevishdek hissiyotlarga ega bo'ladilar.

Bayram kunlarini sharlar bilan bezashdagi maslaxatlar.

- 1.Madaniy-xordiqiy ko'ngil ochar tadbirlarni, bayramlarni sharlar bilna bezashda o'z ishining mutaxassisi bo'lgani yaxshi.
- 2.Tadbirlarni sharlar bilan bezashda tadbir bo'ladigan joy aniqlanishi kerak.
3. O'tkaziladigan bayram qatnashchilarinig yoshi, soni aniq bo'lishi kerak.
- 4.Bayram, tadbirning o'tkazilish vaqti.
- 5.Sharlar bilan bezashdi milliylikga e'tibor berish.
6. O'rnatiliyotgan shar bezaklarning baland yoki pastligini e'tiborga olish.
- 7.Bezatish ishlarida ishlatiladigan sharlarning sifatiga e'tibor.

8. Sharlarning ranglari bayram mavzusiga bog‘liqligi.

9. Sharlarga yoziladigan so‘zlarning to‘g‘riligiga e’tibor.

10. Sharlarning mavsumga chidamligi.

11. Sharlarning joylashish xavsizligiga e’tibor.



Bayramga oid bino, sahna, zallarni sharlar bilan bezash.



Ochiq havoda o‘tkaziladigan bayramlarda sharlarni havoga uchirish.



Bino ichida o‘tgaziladigan bayramlarni sharlar bilan bezash.

Respublikamizda turli xil xalq tomosha bayramlari o‘tkazilib kelinmoqda bunday bayram tadbirlari ochiq havoda bo‘lishini hisobga olsak bezatishning turli shakllaridan foydalanish talab etiladi.

Umuman olganda madaniy tadbirlarni ularning turlari, shakllaridan qattiq nazar badiiy bezatish ishlarisiz tasavvur qilish mumkin emasligi bor haqiqat.

Nazorat uchun savollar

1. Jozibali Salyut va feyerverklar haqida gapirib bering?
2. Sahnada yoki maydon bezagida salyutlar feyerverklardan foydalanish?
3. Rim shamlari tushunchasiga izoh bering...
4. Elektron tablo nima?
5. Reklama JKElar haqida ma’lumot bering?

Mustaqil ish uchun topshiriqlar

1. Xohlagan mavzu bo‘yicha sahna bezagini ishlang?
2. Ochiq havoda o‘tgaziladigan bayramlarni sharlar bilan bezash?
3. O‘zbekim sharlari bilan bayramlarni bezash ishlarini amalga oshirish ishlari.
4. Kulgi qo‘zg‘atkichlar haqida ma’lumot bering?.
5. O‘rta asrlarda o‘lkamiz bo‘ylab safar qilgan mashhur sayyoh kim?

3.2. Madaniy tadbir dekoratsiyalari, teatr va bayram maskalari.

Dekoratsiua - (lotinchada decorare –(ukrashat)-bezatish, fransuzlar decor, ispanlar – decorado va -- zamonoviy sahna va spektakllarni bezatish.

Sahnada qo'yiladigan spektakllarning mazmuniga qarab obrazlarini ochib berishdir.

Bizga ma'lumki Gretsiyada, Italiyada teatr faoliyati rivojlangan va artist va aktyorlar ko'chalarda turli xil chiqishlari orqali kishilarning maroqli dam olishlari uchun shart sharoit yaratganlar, tomoshabinlarning kungli ko'tarilgan, yaxsh dam olishgan va albatta tomoshabinlar yaxshigina mablag' ham sarflashgan.

Aktyor va artistlar ko'chalar, bog' xiyobonlarda, dam olish joylarida turli toifali kishilarni ko'nglini olish, kayfiyatini ko'tarish uchun rangbarang chiqishlar qilganlar chiqishlarning ta'sirchanlikni oshirish maqsadida esa ilk sahna yoki artistlarning chiqishlari bilan bog'liq bo'lgan qo'l bola sahnalar va ularga mos zamon talabi darajasidagi dekoratsilar paydo bo'la boshlagan.

Dekoratsiya bu bo'ladigan tadbirning yoki spektaklning asosiy mazmunini ochib beradigan kishilarning asosiy e'tiborini o'ziga jalb etadigan jarayon hisoblanib chizma yoki tabbiyat mujizalari orqali amalga oshirilgan.

Masalan: Muqimiy nomidagi musiqali drama va komediya teatrida Sobir Abdullaning rejissyori Mannon Uyg'ur sahnalashtirgan "Muqimiy" musiqali dramasi (bastakor T.Jalilov) ko'z oldimizga keladi.

Avvalo shuni aytish kerakki, "Muqimiy" spektakli (1953-yil) M.Uyg'urning eng so'nggi sahnalashtirgan asari bo'lib, unda rejissyor, birinchidan, 20-yillarda musiqali dramalar yaratish jarayonidagi tajribalarini eslagan bo'lsa, ikkinchidan, yaqindagina sahnalashtirgan "Alisher Navoiy" spektakli tajribasini ishga soladi.

Asarni sahnalashtirish jarayonida ham matn ustida, ham musiqaning spektakl mantiqiga, vaziyat va qahramonlarning holatlariga mos tushishiga harakat qilinadi.

Shuningdek, M.Uyg'ur tasviriy va yoritish vositalariga, qahramonlarning tashqi qiyofalarini tarixan haqqoniy qilib yaratilishiga katta e'tibor beradi.

R.Hamroyevning hikoya qilishicha, M.Uyg'ur tashkilotchilaridan birini Farg'ona vodiysiga yuborib, Muqimiy kiyimiga lozim bo'lgan "o'zbekcha qalami chopon"ni toptirib keltirgan.

Rassom G.A.Vizel bilan ishlar ekan, M.Uyg'ur uy jihozlari, hujra eshiklarining naqshlari, qumg'on va oftobalar, xontaxta va tokchalarda kitoblarning qanday taxlanishi, davot va qalamlarning turishi, kavush tuslari, salla turlari, mahsi sog'iga tikiladigan kashtalar kabi mayda detallargacha e'tibor bergan.

Bular hammasi pirovard natijada sahnada tarixiy haqiqatni ro'yobga chiqarishga, aktyorlarda zarur psixofizik holatlar paydo qilib, obrazlar mazmunini ochishga, to'qnashuvlarni asoslashga xizmat qilgan.

Sahna dekoratsiyasi faoliyatida juda e'tiborli bo'lish kerak; masalan bo'lajak mavzuni ochib berishda 80-90 % ni bezatish ishlari oladigan bo'lsa, tomoshabinlarning diqqatini o'ziga qaratish bilan birga qo'yilayotilgan mavzuni ochib berish masalasi ham yechim topadi degan xulosani qo'yish mumkin.

Dekoratsiyalarni amalga oshirish albatta tadbir bo'ladigan joyga bog'liq bo'lgan, masalan sahna aylanma, to'rt bo'rchakli, uch burchakli va yasama damlangan ko'cha sahnalari hisobga olingan.

Ayniqsa, "Jazoir, mening vatanim!" spektakli dekoratsiya bezaklari, jihozlar va liboslarning vazifasi haqidagi taassurotlarni o'zgartirib yuborgan asarlardan biri bo'ldi.

Aynan dekoratsiya Dar-Sbitarda istiqomat qiluvchi insonlarning xarakterlari, munosabatlarini ocha boshlaydi. Zotan, rassom H.Ikromovning konstruksiya uslubida ishlagan dekoratsiyasi, ya'ni zinalar va balkonlar, deraza-yu eshiklar bilan to'lib toshgan, chumoli uyasini eslatuvchi katta xonadon tasvirini yaratadi. Bunda

adolatsizlik, jabr-zulm, qashshoqlik ostida ezilgan jazoirlik kambag'al, beva-bechoralar yashaydi.

Rassom izlanishlari rejissyor A.O.Ginzburg talqiniga mos tushib, spektaklning ta'sir kuchini oshirib yuborgan. Yuzaki qaraganda, hayotning ikir-chikirlarigacha naturalistik aks ettiruvchi bo'lib ko'ringan dekoratsiya, liboslar voqealar davomida katta umumlashma, simvol darajasiga ko'tariladi. Katta xonadon jabrdiyda xalqning hayotini in'ikosi bo'lgan, bamisoli quduq tubidagi hovliga, zindonga aylanadi.

Pirimqul Qodirovning romani ham, dramasi ham "Yulduzli tunlar" deb atalgan va shu bilan gap umuman o'tmish haqida borishiga ishora qilingan bo'lsa-da, aslida maqsad xalq oldida, tomoshabin ko'z o'ngida Boburni shaxs sifatida oqlashdan iborat edi. Sahnada o'ng tomonda tepadan g'azallar o'rami tushib keladi. Avansahnada nayzalar. Sahnada Bobur umrining uch fasliga ishora qiluvchi uch charxpalak. Osmon to'la yulduzlar.

Yuqorida ko'shkda og'ir betob Bobur (YO.Ahmedov) o'g'li taxt vorisi Humoyunga (T.Mo'minov) umr daftari bo'lmish "Boburnoma"ni tortiq qiladi. Humoyun "Boburnoma"ni ko'ziga surib o'qiy boshlaydi. Bobur esa o'tmishini eslab ketadi.

Ayrim sahna bezaklarini amalda ko'rib chiqamiz: Masalan;




Korporativ bayram sahna dekoratsiya bezagi,



Teatr va Shou dasturiga sahna bezagi,



Bolalar uchun maxsus sahna dekoratsiya bezagi,



Sahnada uy xonasi sahna dekoratsiya bezagi.



Bog'chalarda maxsus dekoratsiya sahna bezagi.

Azal azaldan teatrlar (tomoshaxonalar, dam olish joylar, qaxvaxonalarda, (qirol va amaldorlar) saroylari sahnalarda obraz yaratishda artis va aktyorlar kamchilik bo'lganligi va uning ustiga aktyor va artistlarni asosan erkaklar tashkil etgaligi uchun obraz yaratishdagi yoki sahna chiqishida teatr maskalari, ayrim hollarda niqoblar ishlatilgan buning sababi albatta aktyor yoki artistlar bir necha obrazli (ko'rinishda) yoki rolda chiqishlari haqida ma'lumotlarni g'arb manba'larida shunga asosiy sabab bo'lgan deyiladi.

Bunday xalq oldiga chiqishda tomoshabin olqishini olishda mehnat bilan bir qatorda aktyorlardan professionallik talab etilgan, shunga bo'lsa ajabmas maskalardan haqiqiy niqob sifatida foydalanishganligi.

Ayrim ma'lumotlarda aktyor va artistlarni ko'pchilik artist yoki qisqaroq qilib aytadigan bo'lsak masxaroboz, luttivoz, yengil tabiatli deb salbiy qaralganligida hamdir deyiladi.

Siz bilan bizga ma'lumki masxarobozlar, qiziqchilar ham aynan shu sabablik masxarobozlar va qiziqchi klounlar deymiz o'zlarining emidjini (ko'rinishini) kulgili holatga keltirib juda mohirona yuzlarini bo'yash, usti boshlarini ham antiqa kiyganlar ne sabab bo'lgan tomoshadan kiyin ana masxaroboz ana qiziqchi, i ana luttivoz deb odamlar qo'li bilan ko'rsatishganliglari shunday ayrim salbiy tushunmovchiliklar sabab ham, ko'cha kuyda kishilar tanimasin deb ko'rilgan degan ma'lumotlar bor.

Bayramlar, xalq tomosha sayillari, katta dam olish konsert dasturlari va katta kungil ochar xordiqiy tadbirlarda maskalar (niqoblar)dan foydalanish qaysidir ma'noda kishilar tanimaslik uchun qo'llanilgan bo'lsa yana bir sababini artist va aktyorlar uchun bor mahoratlarini tomoshabinga taqdim etishlari, ijro vaqtida kishilardan uyalmaslik, baribir meni bugun shu antiqa maskada yoki niqobda hech kim tanimaydiku degan sabablik ham maskalar ishlatilgan bo'lsa men yanglishmayman deydi buyuk estrada komik aktyori (Arkadiy Raykin).

(Mashhur hind aktyori va rejessyori Rash Kapur “Mening ismim Masxaroboz” filmida o‘ynaganimdan men ming afsusdaman, kiyinishim, ko‘rinishim, yurishlarimni, harakatlarimni ko‘plab haqiqiy professional masxarobozlardan o‘rgansamda ular aytgan barcha ko‘rsatma va topshiriqlarni a’lo darajada bajarganim bilan o‘zim rejissyor bo‘lib turib kiyin bir narsani faxmladim qanchalik yuzni bo‘yamang, qancha masxaroboz kiyimini kiy mang baribir masxaroboz bo‘lib to‘g‘ilish kerak ekan.... va bunday yirik rolni manimcha aktyor emas albatta masxaroboz o‘ynash kerak))

Niqoblar haqida gapirar ekanmiz biz ularning ichidagi “ommaviy” madaniyat turlariga mansub turli xil salbiy ko‘rinishdagi niqoblarni kuzatishimiz mumkin masalan turli yirtqich hayvonlar ko‘rinishidagi, arvohlar timsolida va hokozalar;

Axloqsiz bu ko‘rinishdagi niqoblarning asil maqsadi kishilarni qo‘rqitish uchun xizmat qilsa xayosiz niqoblarning turli ko‘rinishdagilari bizning mafkuramizga, ma’naviyatimizga mentaliteimizga qarshi xizmat qiladi, bunday ko‘rinishdagi niqob va maskalar yurtimizda ham paydo bo‘lishi achinarli hol.



Bunday salbiy ko‘rinishdagi niqoblardan kimlardir shunchaki hazil, shunchaki o‘yinku deb foydalanish oqibatini siz bilan biz bilamiz va bunga albatta salbiy qaraymiz yo gapim noto‘g‘rimi.....

Maskalar haqida yana to‘xtalsak: teatr va bayram maskalar, niqoblar bir biridan deyarlik farq qilmaydi.

Bugungi kunda mutaxassis bezakchi rassomlar tomonidan ishlatiladigan maskalar mavjud bo‘lib ular ko‘proq Braziliya va Venetsiya mamlakatlarida bayram kunlari chiqishlarda ishlatiladi.

Endi maskalarning yana bir turi mavjud ular mavsumiy dala yig‘in terimida, fasllar almashishida va diniy marosimlarda ishlatiladi.

Shundan ko‘rinib turibdiki maskalar; mavsumiy bayram, karnaval, masxaraboz qiziqchi va shou dasturlarida ishlatiladigan turlari mavjud.

Ayrim hollarda rassomlar maxsus qimmat oltin, kumushdan yasalgan maskalar haqida ishlamalar berib ularni maxsus soha ustalariga yasatishgan. Bunday qimmat maskalarni kishilar qo‘llarida olib yurgan holda ishlatgan, sababi aniqku bu maskalar axir oltin, kumushdan yasalgan va juda qimmat narxlangan.



Teatr maskalari: Yangi yil bayramlari va turli kungil ochar xordiqiy tadbirlarda maxsus yasaladi.

Ular “Maska-pati”, “Maski -shou” deb yuritiladi.



Bunday maskalar qadimdan teatr sahnalarida chiqish uchun ishlangan.

Maskalarning qiziq bir ko‘rinish ham mavjud ular -biri yig‘lash ko‘rinishda g‘amgin bo‘lsa,

- ikkinchi bir turi kulib turuvchi ko‘rinishda bo‘ladi va bunday maskalarning chiqishidan sahnada tomoshabin tomonidan birini g‘amgin, ikkinchisini xursandchilik kayfiyatida qabul qilishi bilan qiziqarli.

Bunday maskalar ko‘proq Yaponiya teatrlarida va maxsus diniy marosim bayram kunlarida ishlatilgan.



Ertak qaxramonlari uchun yasalgan maskalar 2-xil ko‘rinishda bo‘ladi:


-rassomlar tomonidan chizib yasalgan maxsus qoliblarda ishlanadigan,,

-ustalar tomonidan qo‘l mexnati bilan yasaladigan yagona nusxada bo‘ladi.



Bolajonlar uchun bayram maskalari maxsus karton qog‘ozlardan ishlanadi va bezakchi rassomlar tomonidan ranglar beriladi.

Maskalar bolalarning ko‘z ungiga haqiqiy ertak qaxramoniga aylanishi kerak aks holda maksalarning tasirchanlik kuchi yo‘qoladi.



Maskalarni ko‘proq biz bolajonlarning bayramlari kuni ko‘poq uchratamiz bu tabiiy chunki bolalar qiziquvchan bo‘ladi, ularning xursandchiligi olam olam bo‘ladi.

Bugungi kunda ham bizga ma’lumki teatr, sahna dekoratsiyalari va bezaklariga katta ahamiyat berilishi zarurligi sezilmoqda, buning uchun sohaning haqiqiy fidoilari bosh qotirishi kerak.

O‘tkaziladigan tadbir va spektakl namoyishlari bezak rassomlari, dekoratsiya ustalarining izlanishi rejissyorning esa mahorati bilan izchil bog‘lanishi shart aks holda tomoshabin soha mutaxassislarini kechirmasligi aniq.

Teatr dekoratsiyalari qadimiy Gretsiyada paydo bo‘la boshlaganligi haqida ma’lumotlar keltirish mumkin.

O'sha paytlarda eng qulay va katta sahna dekoratsiyalari bo'lib sahnaning fondida joylashtirilgan va spektakllar uchun xizmat qilgan masalan: spektakllarning mazmuni va mavzusiga qarab dekoratsiyalarda asosan bir xil katta ko'chalar, maydonlar, ko'p qavatli uylar aks ettirilgan va spektakllar uchun xizmat qilgan. O'sha sahna fondagi qo'yilgan bahaybat sahna dekoratsiyalar yordamida spektakl tomoshalari qo'yilgan va tomoshabinga taqdim etilgan.

Sahnaning old qismi esa turli razmerda va turli ko'rinishda katta pardalar bilan bezatilgan va suxondan boshlovchilar spektakl haqida tushunchalar birib borgan.

Kiyinchalik tomoshabinlarning talab va istaklari kuchayib borishida hamda yaratilayotilgan dekoratsiyalarning yangi shakllari paydo bo'lishi hamda o'zgara borishi natijasida spektakl namoyishining boshidan oxirigacha doimiy turuvchi bir xil ishlangan dekoratsiyalar tomoshabinlarning e'tiboridan qola boshlagan sababi oddiy birxillik tomoshabining joniga tekkanligi deb baxolanadi.

Borib borib spektallarning dekoratsiyalari tez-tez o'zgaradigan bo'la boshladi. Tomoshabinlar orqali shunday qattiq talablar sahnalarning ko'rinishi va shakllarini ham o'zgartirishga asos bo'la boshladi va tomoshoboblik oshdi, tomoshabinning talabi esa yanada borgan sari talabi osha bordi chunki asosiy sabab tomoshabin yaxshi dam olishi xordiq chiqarishi uchun katta mablag' to'laydi.

Kiyinchalik esa sahnalarning turli ko'rinishdagi shakllanishi natijasida masalan: aylana; uch burchak; to'rt bo'rchak va hakoza. Dekratorlarga bir muncha onsonlik tug'dira boshladi; masalan: sahnada spektaklning bir ko'rinishi tugashi bilan pauza bo'lmagan ikkinchi ko'rinish uchun dekoratsiyalar birinchi ko'rinish tugamasdan oldindan jixozlangan.

Nazorat uchun savollar

1. Dekorativ o'simliklar haqida ma'lumot bering?
2. O'tkaziladigan bayram tadbirini bezashda bezak rassomining asosiy funksiyasi?
3. Sahna dekoratsiyasining asosiy shakllariga nimalar kiradi?...

4.Ssenariyda bezak ishlari olib borish kimning zimmasiga biriktiriladi?

5.San'at muzeyi haqida ma'lumotlar bering?

Mustaqil ish uchun topshiriqlar

1.Tahlagan mavzu bo'yicha sahna dekoratsiyasi bo'yicha ma'lumotlar bazasini yarating?.

2. Rassom H.Ikromovning konstruksiya uslubida ishlagan dekoratsiyasi haqida ma'lumot bering?

3. Rassom G.A.Vizel haqida nimalarni bilasiz?

4. "Landshaft" bezagi haqida ma'lumotlar bazasini yarating?

5. Binolarni bayramona bezatishda landshaftli bezak..

3.3. Madniy tadbirlarni badiiy bezashda ishlatiladigan materiallar.

Quyida badiiy bezash ishlarida foydalaniladigan asbob-uskunalar (ish qurollari) va materiallarning ayrimlari haqida to'xtalamiz.

Badiiy bezash ishlarida tasviriy san'atning ko'p turlari jumladan, grafika va chizmachilik mashg'ulotlarida keng foydalaniladigan «Konstruktor» qalamlari ishlatiladi. Bu qalamlarning qattiq, yumshoqligi va har xil turlari qo'llaniladi.

Badiiy bezash ishlarining deyarli ko'p qismi – e'lonlar, devoriy , fotogazetalar va boshqalar qog'ozga ishlanadi. Badiiy bezash ishlarida qog'ozning turli turlari qo'llaniladi.

– yuqori sifatli qog'oz bo'lib , unga uzoq muddat saqlanadigan ishlar bajariladi masalan: badiiy ko'rgazma ishlari.

– tush va guash bilan ishlashga mo'ljallangan qog'oz,

– suv bo'yoqlar bilan ishlashga mo'ljallangan qog'oz,

– ommaviy ishlar uchun tayyorlangan qog'oz.

-penopliyn bezak ishlarida ishlatiladi,

-rangli yaltiroq qog‘ozlar,

-yelimli rangli qog‘ozlar va xok...

Bu qog‘ozlar «GOST»ga muvofiq ishlab chiqariladi. o‘quv yurtlarida e‘lonlar, chaqmoqlar va hokazolarni yozishda maxsus papkaga solingan 12-formatdagi akvarel, chizmachilik va rasm chizishga mo‘ljallangan qog‘ozlardan ham foydalanish mumkin.



Rangli qog‘ozlar: Rangli qog‘ozlar ishlatish jarayoniga qarab turli xil bo‘ladi.

1. Yaltiroq qalin qog‘ozlar –bunday turdagi qog‘ozlar ko‘proq sahna bezaklari o‘chiq maydonlarni bezatishda yaxshi natija beradi. Yaltiroq qog‘ozlardan turli shakllar va yozuvlarni chiqarishda ishlatamiz ularning eng avzallik tomoni tunda o‘tkazilayotgan bayram tadbirlarda o‘zining yaltiroqligi, sifatligi bilan boshqalaridan ajralib turadi.

2. Oddiy rangli qog‘oz - oddiy rangli qog‘ozlar havoskor bezatuvchilar uchun mo‘ljallangan. Oddiy rangli qog‘ozlardan ko‘proq bayram sovg‘alarini o‘rab turli shakllar berish uchun, gullarni o‘rash uchun va yosh bolalarga turli bezatish ishlarini amalga oshirish uchun tavsiya etiladi. Chunki bu qog‘oz turi unchalik qimmat turmaydi.

Yana bir xususiyati, bunday qog'ozlardan turli xil applikatsiya ishlari amalga oshiriladi. Applikatsiyalar o'zining yorqinligi bilan ko'zga yaqqol tashlanadi va bu usul hamma o'quv yurtlarda foydalanish uchun qulay va osondir.

Applikatsiyalar kichik va o'rta yoshdagi o'quvchilar bilan ishlashda ayniqsa qiziqarli va unumli bo'ladi.

Oddiy qog'ozlardan taklifnomalar ham tayyorlash mumkin lekin bu ishiga jiddiy e'tibor berish va har safar ijodiy yondoshish kerak. Chunki o'tkaziladigan tadbirlar uchun bir xil taklifnomalar tayyorlanaversa, bu ishning qizig'i qolmaydi. Bunday taklifnomalar talabalarning esidan chiqib ketadi va ularni saqlab qo'yish hech kimni qiziqitirmaydi.

Odatda bayram kechalariga, yubiley, tantanalariga taklifnomalar tayyorlanadi. Ularning 2 yoki 4 betli, o'lchamlari 6x9, 6x10, 6x12 sm bo'lishi ma'qul. Taklifnomalar bundan katta bo'lsa, ularni saqlash qiyinlashadi.

3. Gulli qog'ozlar- gulli qog'ozlar asosan bayram kunlarida bayram bo'ladigan joylarni, uylarni, ishxonalarni, o'quv maskanlarini bayramona bezatish ishlarida ishlatiladi.

Bunday qog'ozlar katta hajmdagi bezatish ishlarni amalga oshirishda ham ishlatiladi sababi qog'ozning boshqa qog'ozlarga qaraganda hajmi katta bo'ladi va sotib olish bahosi ham qimmat emas.

4. Yelimli maxsus rangli qog'ozlar- bunday qog'ozlar asosan yaltiroq bo'lib bayram kunlarida turli yozuvlarni ishlab chiqishda ishlatilsa yaxshi natija beradi.

Qog'ozlar. Qog'ozlar turli xil o'simlik va daraxtlarning massalari va sellyulozasidan tayyorlanadi. Qog'ozning ishlatilishiga qarab turli xil qo'shimcha to'ldirgichlar va ximiyaviy ishlanmalar beriladi. Qog'ozlarga oq tus beradigan, silliq, zichlik holatini ta'minlaydigan qator ishlovlar berilib, asosan yozish-chizish uchun eng yaxshi navlari tayyorlanadi.

Qogʻozni birinchi boʻlib Xitoyda eramizning 2-asrida ishlab chiqilgan. Xitoylilar bu yangiliklarini 6-asrgacha sir tutib keldilar. 6-asrdan shu usulda Yaponiyada ham qogʻoz ishlab chiqarila boshlandi. 8-asrdan boshlab qator Osiyo mamlakatlarida, 10-asrdan Yevropada va Rossiyada qogʻoz ishlab chiqarish boshlandi. 17-18 asrlarda Gollandiyada qogʻozni mashinalarda ishlab chiqarish boshlandi.

Hozirgi kunda jahonda qogʻozning 600 dan ortiq turini ishlab chiqariladi. Qogʻoz oʻzining chidamliligiga koʻra yogʻoch, shisha va ayrim nemetall materiallar bilan rakobatlashmoqda. Ammo qogʻoz yozuv-chizuv sanʼati va faoliyatining asosiy materiali boʻlgan holda, uning oq, pushti, koʻk, havorang, qizil, sariq ranglarda koʻproq ishlab chiqariladi.

Qogʻozlar ikki oʻlchovda (eni va uzunligi boʻyicha) tayyorlanib, uning shu oʻlchamlari boʻyicha formatlari belgilanadi.

Rasm va chizmalar chizish uchun qoʻllaniladigan qogʻozlar P-formatdan (oʻlchami 297x210 mm.) boshlanib, 12- (oʻlchami 297x420 mm.), 22- (oʻlchami 594x420 mm.), 24- (oʻlchami 594x841 mm.) formatgacha tanlanadi. Qogʻozlarning buralish, egilish, sinish, ezilish, xoʻllanish, oʻziga rang olish va ushlab turish holatlariga koʻra klassifikatsiyalanadi. Qogʻozning eng yaxshi, sifatli sortlari oʻqish, yozish, chizish, tasvirlash va matbuot uchush belgilanadi.

Rasm chiziladigan qogʻozlar notekis, qalam va boʻyoqni yaxshi oladigan, yaxshi xoʻllanadigan holatda va ok rangda boʻladi. Shu talablardagi qogʻozlar maktab va oʻquv yurtlarining rasm fanlari uchun albom, papka, format holatida (pachkali) qilib tayyorlanadi.

Albomning muqovasini har xil materialdan: faner, rangli tunukalar (mis, latun, alyuminiy, ruxlangan temir), organik oyna, plastmassa va boshqalardan tayyorlash mumkin. 4-5 mm qalinlikdagi faner

Badiiy bezash ishlarida oʻchirgʻichning ikki xili ishlatiladi. Yumshoq oʻchirgʻichlar grafit qalam bilan chizilgan chiziqlarni, qattiq oʻchirgʻich esa tush

hamda Siyoh bilan yozilgan yoki chizilgan yozuv va chiziqlarni o'chirishga mo'ljallangan.

Qattiq o'chirg'ich maydalangan shisha kukuniga, yumshoq o'chirg'ich esa maydalangan marmar kukuniga faktis suyuqligi arashlashtirib tayyorlanadi.

To'g'ri to'rtburchak shaklida ishlab chiqarilayotgan turli o'lchamdagi (№1, №2) o'chirg'ichlarni o'rtasdan (diagonal bo'yicha) qirqib ishlatish ancha qulay.

O'chirg'ichlar keraksiz chiziqlarni yaxshi o'chirishi, ya'ni yumshoq bo'lishi uchun 1-2 kun benzinga yoki 3 - 4 kun kerosinga solib qo'yish kerak. Ularning har ikkisi ham topilmasa, moybo'yoqlarni eritish uchun ishlatiladigan №2 suyultiruvchi eritmadan ham foydalanish mumkin. o'chirg'ichlar aytib o'tilgan muddatda shishib, yumshoq holatga keladi. Ularni yaxshilab artib 1-2 soat (undan benzin yoki kerosinning hidi ketguncha) suvda qaynatiladi. Bunday ishlov berilgan o'chirg'ichlar yumshoq bo'ladi va qalam chiziqlarini yaxshi o'chiradi. Ma'lum vaqt o'tgandan keyin yana xuddi shunday ishlov berilgan yangi o'chirg'ich olinadi.

Shuningdek, guash, bilan bo'yalgan fonga ham tush bilan yozish yaramaydi. Chunki tush qog'ozga singiy olmay yorilib, keyin esa ko'chib ketadi. Qog'ozga tush bilan yozilgan harflar qurigandan keyin yorilib ketsa, demak tush quyilib qolgan. Uni suyuqlashtirish uchun bir necha tomchi suv qo'shish mumkin. Agar suyultirilgan tush qog'ozda yoyilib ketsa, unga biroz shakar yoki glitserin qo'shish kerak.

Turli rangdagi tushlardan aerografik usulda sepish yo'li bilan har xil afisha, e'lon, chaqriq, devoriy gazeta va boshqa ko'rsatmali agitatsiya ishlarining yuqori ta'sirchanligiga ayni vaqtda yuqori darajadagi estetik talablarga javob berishiga erishish mumkin.

Shuningdek, aerografik usul bilan ishlash badiiy bezash ishlarining kichik formalarining yuksak badiiyligini ta'minlashda juda qo'l keladi. Lekin aerograf va boshqa bo'yoq purkash uchun ishlab chiqarilgan qurollarni ishlatish uchun ma'lum amaliy ko'nikmaga ega bo'lish va bu borada texnika xavfsizligini bilish talab etiladi.



Guash ham suvda eriydigan bo‘yoq bo‘lib, uning asosiy tarkibiy bog‘lovchi moddasi dekstrin va glitserindir. Guashlar bilan bo‘yalgan sirtlar qurigach rangi biroz ochlashadi va jilosiz baxmalsimon tusga kiradi. Guash bo‘yoqlar shisha, tunuka va plastmassa idishlarda kichkina plastmassa idishchalarda nabor holida (6,12,24,44 xil) va pastasimon bo‘ladi.

Guash bo‘yoqlari bilan ko‘rgazmali agitatsiya vositalarini: e‘lonlar, chaqiriqlar, chaqmoqlar, devoriy gazeta va hakazolarni badiiy bezashda akvarel bo‘yoqlar va fluoressent guashlarni qo‘shib ishlatish yaxshi samara beradi. Badiiy bezash ishlaridagi ayrim element va yozuvlarga yorqinroq ifodalashda fluoressent va lyuminessent guashlarni boshqa ranglarga qo‘shmay ishlatish kerak. Aks holda ulardagi yorqinlik darajasi pasayib ketadi. Bu bo‘yoqlar ultrabinafsha nurlarida yarqirash xususiyatiga ega bo‘lib, badiiy bezash ishlaridagi aksent berilayotgan elementning yaqqol ko‘zga tashlanishini ta‘minlaydi.

Shuningdek, badiiy bezash ishlarida anilinlar (nil bo‘yoqlari) ham ishlatilib, ular asosan fotonlarni, mato, taxta, fanellarning rangini maqsadga muvofiq holga keltirishda qo‘llanadi. Suvda eriydigan bu bo‘yoqlarning xarakterli xususiyati shundaki, u materiallarning fakturasini berkitib yubormaydi, aksincha, uni yanada aniqlashtiradi.

Emulsiyali bo‘yoqlar yozuv va boshqa badiiy bezash elementlari tushiriladigan yuzalarni gruntlashda ishlatiladi. Bu bo‘yoq guash, akvarel, anilin va tempera bo‘yoqlari bilan yaxshi qorishadi. Uni suv bilan eritiladi.

Tempera bo'yoqlari ham moybo'yoqlari ham tush bo'yoqlariga oson aralashadi. Ularni ishlatishda turli texnik usullar qo'llanishi mumkin. Intererda uzoq vaqt turadigan vitraj, panno va hakazolarni badiiy bezashda emulsiyali bo'yoqlardan tashqari moybo'yoqlardan ham foydalaniladi. Moybo'yoqlarni eritish uchun shisha idishlarda ishlab chiqarilayotga №1,2,3,4 erituvchi suyuqlik, lok, skipidar va boshqa erituvchilardan foydalanish mumkin. Bu bo'yoqlar oldindan gruntlangan sirtlarga ishlatiladi.

Yuqorida aytilgan bo'yoqlardan badiiy bezash ishlarida foydalanishda turli shakldagi mo'yqalamlarga murojaat etiladi.

Mo'yqalamlar asosan uch xil bo'lib, yumaloq (akvarel bo'yoqlarda ishlatish uchun) yapaloq (moy bo'yoqlarda ishlatish uchun) va oval shaklida bo'ladi.

Akvarel bo'yoqlarda ishlatish uchun yumshoq mo'yqalamlar qulay bo'lib, ular asosan suvsar, olmaxon, kolonokning junidan tayyorlanadi.

Akvarel bo'yog'i. ----italyancha - suvda eriydigan bo'yoq ma'nosini bildirib, uning tarkibiga tabiiy bo'yoq kukuni va bog'lovchi moddalar, ya'ni daraxtlar yelimi kiradi. Akvarel o'z nomiga sodiq qolib, suvda juda yaxshi eriydi. Akvarel bo'yog'i g'oyat tiniq, toza va ravshandir. Akvarelda oq rang bo'lmaydi, uning o'rnida bo'yoqlarning tiniq, nozik, yupqa qatlami qo'llaniladi. Yoki oq yuzaning o'zi qoldiriladiki, bu tasvirdagi oq rang o'rnini ifoda etadi.

Narsani o'ziga qarab rasm ishlashni ko'proq qalamda olib borilsada, narsalar rangi, narsalar rang, shakl va soyalarini realistik tasvirlarini yaratishda akvarel asosiy tasvirlash vositasi hisoblanadi. Tematik rasmlarda esa barcha faoliyat faqat akvarel bo'yog'ida olib boriladi»

bo'yoqlardagi ranglar tipikligi va yorqinligi bilan ajralib turadi. Akvarel bo'yoqlar tush, guash va boshqa bo'yoqlar bilan yaxshi qorishadi. Akvarel bo'yoqlarni asosan Rossiyada badiiy bo'yoqlar zavodi ishlab chiqaradi. Ular

«Neva», «Malyutka» deb va boshqa nomlarda, yarim quruq holatda plastmassa va qogʻoz qutichalarda hamda yarim suyuq holatda tyubiklarda boʻladi.



Akvarel boʻyogʻi qadimgi Misrda paydo boʻlib, keyinchalik Xitoy, Yaponiya, Yunoniston, Italiya va Yevropa mamlakatlariga tarkaladi.

Oʻrta Osiyo, jumladan Oʻzbekiston hududida yashagan xalqlarda akvarel va boshqa boʻyoqlardan juda qadimdan foydalanganligi maʼlum.

Feodalizm davrida akvarel va rangdan asosan naqsh va miniatyura sanʼatida foydalanilib, kitob bezatishda va uylarni naqshlashda koʻproq ishlatilgan. Keyinchalik, akvarel bilan ishlash rassomlar ijodida, monumental dekorativ sanʼatda, maktab va muassasalarni bezatishda, oʻquvchilarga rasm chizishni oʻrgatishda keng foydalanila boshlandi. Hozir maktablarda maktabgacha va maktabdan tashqari muassasalarda bolalarni rasm chizishga oʻrgatishda asosiy rangtasvir vositasi boʻlib akvarel boʻyogʻi hisoblanadi.

Akvarel boʻyogʻi bilan rasm ishlashga oʻrganishda, uning oʻziga xos tasvirlash uslublari boʻlib, bu maxsus mayin umshoq, moʻyqalam (kistlar), boʻlishini talab qiladi. Moʻyqalamlar uchli, uchsiz – burchakli va yoysimon qilib qirqiladi. Oʻrganish davri uchun har uchalasidan boʻlishi maqsadga muvofiq boʻladi

Moʻyqalamlar har xil boʻlib, ularning dastasidagi raqamlar jun qismining yoʻgʻon ingichkaligini bildiradi. Akvarel bilan ishlatiladigan yumaloq moʻyqalamlar uchli

bo'ladi. Bu esa katta yuzalarni bo'yash uchun ham, mayda detallarni ishlash uchun ham qulaylik yaratadi.

Moy bo'yoqlar, tempera va guash bo'yoqlar bilan ishlashda yapaloq mo'yqalamlardan foydalaniladi. Shuningdek, fleytslardan turli fakturali fonlar tayyorlashda ham foydalanish mumkin. Undan tashqari kattayuzalarni gruntlashda paralon valiklarni ham keng qo'llanadi.

Mo'yqalamlarni ishlatish jarayonida ulardan to'g'ri foydalanish kerak. Ayniqsa akvarel mo'yqalamlarini ishlatayotganda ularni junli tomoni bilan idishga solib qo'yish yaramaydi. Chunki ularning uch qismi qiyshayib, vaqtincha ishga yaroqsiz bo'lib qoladi. Ularni maxsus tayyorlangan, o'yiqchalari bo'lgan taxtachaga dastasining temir qismi bilan yoki stol ustiga yunglari stolga tegmaydigan qilib qo'yish kerak. Yapaloq mo'yqalamlarni ishlatib bo'lgandan keyin formasi bo'yicha qog'ozga o'rab qo'yish kerak. Agar moy bo'yoqlar bilan ishlangan bo'lsa, ularni avval kerosin (yoki boshqa shu ishga yaroqli eritma) da tozalab, keyin sovunlab yuvib qo'yiladi. Uzoq muddat ishlatmay saqlab qo'yiladigan mo'yoqalamlarni selofon xaltachada naftalin solib saqlanadi.

Badiiy bezash ishlaridagi yozuvlar sifatli va bir xil chiqishi uchun trafaretlardan keng foydalanish tavsiya etiladi. Trafaret selluloid va tagidagi harf tushirish uchun belgilangan chiziqlar ko'rinib turadigan turli shaffof plastinalardan tayyorlanadi.

Trafaret tayyorlashda harflarning konstruktiv tuzilishidagi ayrim o'xshashlilardan unumli foydalanish kerak, ya'ni trafaretda alfavitdagi hamma harflarning tasvirini qirqish shart emas. Trafaretni ishlatish qulay bo'lishi uchun teksda ko'proq uchraydigan harflarni bir qator, kamroq uchraydigan harflarni va boshqa belgilarni ikkinchi qatorga tushiriladi. Trafaret bilan tekst tushirilayotganda bo'yoqlar oqib ketmasligi uchun yungi yupqa va kalta mo'yqalam yoki gubka ishlatiladi. Trafaret bilan yozish uchun bo'yoqlarni quyuq qilib olinadi. Harflarning o'rtasidagi tirqishlarini ushlab turish uchun qoldirilgan joylardan yuzaga bo'yoq o'tmay, harflar uzuk bo'lib tushadi. Bu joylarni keyin kichik mo'yqalam bilan birlashtirib chiqiladi.

Trafaret bilan tekis tushirilayotgan paytda trafaretni yuzaga qattiq bosib turish kerak. Uni ishlatib bo'lgandan keyin albatta tozalab yuvib qo'yish shart.

Normograf ham xuddi shu usul bilan tayyorlanadi. Faqat uni ishlatishda yuzaga qattiq bosilmaydi, aksincha, maxsus moslama yordamida tekst tushirilayotgan yuzadan biroz ko'tarib turadigan qilinadi. Normograf orqali tekis tushirishda bo'yoq to'ldirilgan shisha naychalar bilan harflarning konturlari chizib chiqiladi. So'ngra ularning ichini mo'yqalam bilan to'ldirib chiqiladi. Normagraflar odatda qalinligi 0,5 mm materiallardan tayyorlanadi.

Trafaretni oddiy chizma qog'ozidan ham tayyorlash mumkin. Lekin u uzoq muddat ishlatishga yaramaydi. Shuning uchun qog'ozdan yoki kartondan tayyorlangan trafaretlarning bir tomonini alif yoki lak bilan qoplab qo'yilsa uzoq muddat ishlatish mumkin. Ular yordamida moybo'yoqlarda ham harflar tushirish mumkin. Bunday trafaretlar yordamida nitroemal bo'yoqlarida yozuv tushirladigan bo'lsa, trafaretning alif berilgan yuzasiga PVA yelimi surtib, qo'yiladi trafaretlarni kleyonkalardan ham tayyorlanadi. Lekin ular ma'lum vaqt o'tgandan keyin burishib qoladi. Bunday paytlarda ularni tozalab yuvib, faner yoki orgalit orasiga tarang qilib uzoq bostirib qo'yilsa, yana avvalgi holatiga qaytadi.

O'lcham jihatidan katta harflar uchun trafaret tayyorlaganda alfavitdagi barcha harflarni kirqish maqsadga muvofiqdir. Chunki katta o'lchamdagi trafaretlar tayyorlash aytarli qiyinchilik tug'dirmaydi. Buning uchun qalin kartondan shablon (andaza) qirqib olinadi. Bu shablon «O» harfi ko'rinishida bo'lib deyarli barcha harflarning (J,M,F,SH bundan mustasno) o'lchamlarni belgilash uchun xizmat qildi.

Tekst harflari qalam bilan yozuv tushiriladigan yuzaga belgilab olinadi. Uning ustidan rezina yelimi surtilgan kalka yopishtirib chiqiladi. Bu kalkadan belgilangan harf chiziqlari ko'rinib turadi. Shu chiziqlar bo'yicha kalkani o'tkir skalpel bilan qirqib chiqiladi. Harflarning o'rtalaridagi tirqishlarni qoldirish uchun o'sha joylarning kalkasini qaytadan yopishtirib qo'yiladi. Natijada harflar chiziqlarining o'rni ochilib qoladi. U yerdagi rezina yelimlarini o'chirg'ich bilan tozalab tashlanadi. Shundan

so'ng juni kalta mo'yqalam yoki gubka bilan kerakli rangdagi bo'yoq surtiladi. Bunday trafaretni aerografik usul bilan ham to'ldirish mumkin. So'ng kalka ko'chirib olinadi. Va qolgan rezina yelimlari tozalab tashlanadi. Natijada yuqori sifatli tekst hosil bo'ladi.

Badiiy bezash ishlarida hajmli harflar ham ishlatiladi. Bunday harflar kartondan, fanerdan (lobzik bilan) arralanadi hamda penoplastdan qirqiladi va devoriy gazeta, sinf burchagi, mashg'ulotlar jadvali va hokazolarda qo'llanishi mumkin.

Shuniham ta'kidlash kerakki, bunday harflarning o'lchamlari katta yoki kichik bo'lishi ham mumkin. Shunga ko'ra ularni to'g'ri joylashtirishga, kompozitsiya chiroyli chiqishiga harakat qilish kerak. Bunda harflar o'z effektini yo'qotmasligi shart.

Hajmli harflardan o'z o'rnida foydalanish, ularni faqat devoriy gazetalarning yoki boshqa badiiy bezaklarning nomlarini yozishdagina qo'llamay, katta harfli (shriftli) pannolarda, shiorlarda turli ranglarga bo'yalgan holda ham ishlatish mumkin. Bunda tayyorlangan mazkur harflarni kerakli joylarga mayda mixlar bilan yopishtirish mumkin.

Badiiy bezash ishlarida foydalaniladigan hajmli harflarni tayyorlash uchun penoplast juda qulaydir. Odatda penoplastdan turli o'lchamdagi (10 sm dan 50 sm gacha) harflar tayyorlanadi. Penoplastning ba'zilar yumshoq bo'lib, mayda harflarni qirqishda birmuncha qiyinchilik tug'iladi. Penoplast oq bo'lganligi uchun har qanday fonda yaxshi ko'rinadi. Hatto, oq fonda yorug'-soya hisobiga uni bimalol o'qish mumkin. Lozim bo'lsa, penoplast harflarni badiiy bezash ishlaridagi umumiy koloritga bo'ysundirish uchun alyuminiy yoki bronza poroshogidan tayyorlangan rangga, asosdagi umumiy ranga ham bo'yalishi mumkin. penoplastdan harflar tayyorlash uchun elektr dazmol yoki elektr pita spiralidan yasalgan qurilmadan foydalaniladi. Bunda elektr kamaytirgich orqali tok o'tkazilgan spiral simi qizib penoplastni eritib qirqadi. Bu plastinkaning qalinligi bir xil bo'lib chiqadi. Simni yuqorilatib yoki pastlatib penoplast plastinkalarini turli qalinlikda qirqish mumkin.

Hosil bo'lgan plastinkalardan o'tkir skalpel bilan harflar qirqiladi. Penoplastni qirqish uchun temir arradan yasalgan pichoq juda qulay bo'ladi. Chunki u yupqa materialdan tayyorlanan, ayni vaqtda bukilib ham ketavermaydi.

O'quv yurtidagi «A'lochilar», «Bizning faxrimiz» va boshqa stendlarning sarlavhalarini yozishda metall lentadan tayyorlangan harflardan ham foydalanish mumkin. Bu qovurg'asimon qilib yasaladi va stendga «Moment», «EPO» supersement va №88 yelimlar bilan yopishtiriladi.

O'quv yurtlarda bayram va boshqa tantanali kunlar munosabati bilan turli shior va chaqiriqlar yoziladi. Bunday chaqiriqlar asosan matoga yoziladi. Buning uchun matoni yog'och ramkaga tortiladi va jumlaning uzun-qisqaligi, harflarning balandligi, shiorning necha qator bo'lishi belgilab olinadi. Bunda yozuv qatorining tagida yuqoridagiga nisbatan ko'proq joy qolishini hisobga olish kerak. Shunda qatorlar muvozanati saqlanadi. Yozuv bir tekis chiqishi uchun lineykadan emas, balki bo'rga yoki bo'yoq kukuniga ishqalangan ipdan foydalanish kerak. Bunda ipni ramkanin ikki yon qirrasida belgilab ustidan o'tkazib ramka chetlariga tortiladi, keyin uning o'rtasidan yuqoriga tortib turib qo'yib yuboriladi, shunda matoda ipning izi qoladi.

Matoga yozish uchun emulsiya bo'yog'i ishlatiladi yoki bir litr suvga bo'r kukunini qo'shib quyugligi qaymoqdek bo'yoq tayyorlab olinadi. Bu qorishmaga 50 g suyultirilgan duradgorlik yelimi yoki PVA yelimi aralashtiriladi. Ayrim hollarda matoda mo'yqalam yoki fleytsning yaxshi sirg'alishi uchun qorishmaga oz miqdorda guash bo'yog'i ham qo'shiladi. Yozuv maxsus ishlov berilgan va kerakli o'lchamdagi yapaloq mo'yqalamlarda bajariladi.

Tekstni yozishga kirishganda yetarli amaliy ko'nikmasi bo'lmaganlar qalam bilan harflarning o'rnini belgilab oladi. Teksdagi harflarning umumiy sonini hisoblab chiqiladi va o'rtadan boshlab ikki tomonga taqsimlab chiqiladi. Tekstni yozishda bo'yoqlarni ehtiyot qilib ishlatish kerak. Chunki keraksiz joyga tomgan bo'yoq tomchisini ketkazish juda qiyin. Harflarni yozayotganda ularni yuqori boshlanish chiziqlariga tekislab qog'oz qo'yib, shu qog'oz ustida yozishni boshlansa, harflarning

yuqori chetlari tekis chiqadi. Huddi shuningdek qilib pastki tomonlarini ham tekis chiqarish mumkin. Yog‘och ramkasiz matoga yozish biroz qiyin bo‘ladi. Uni polga mayda mixlar bilan tortib yoziladi. Yozganda ham pol bilan mato orasiga polni ifloslantirmaslik uchun gazeta va boshqa keraksiz qog‘ozlar to‘shaladi. Badiiy bezash ishlarida qo‘llanadigan materiallar juda xilma-xil bo‘lib, ularning hamma to‘g‘risida to‘liq ma’lumot berishni lozim topmadik. Badiiy bezash ishlariga qiziquvchi o‘quvchi talabalarni ana shu ishlar uchun kerakli materiallar haqida tasviriy san’at o‘qituvchisidan kerakli ma’lumot va ko‘rsatmalar olishlari mumkin.

O‘qituvchi rangshunoslik asoslariga tayanib, o‘quvchi talabalarni yosh va texnik imkoniyatlarini hisobga olib, ularga munosib shakldagi rang va rang hodisalari haqidagi muhim tushunchalarni berishi, bilim, ko‘nikma va malakalarni singdirishda osondan qiyinga, soddan murakkabga o‘tish prinsipini qo‘llashi lozim.

Hozirgi paytda madaniy-hordiqiy tadbirlarni badiiy bezatish ishlarida kompyuter texnologiyalardan foydalanish yaxshi yo‘lga qo‘yilgan.

Kompyuter orqali tanlab olingan mavzu bo‘yicha materiallar tanlab olinadi va ular ustida mutaxassislar ish olib boradilar.

Katta-kichik hajmda bo‘lgan bannerlar, panolar, elektro-shitlar, chiroq quvvati bilan ishlaydigan turli rusmdagi reklama hamda targ‘ibot va tashviquot vositalarini o‘z ichiga olgan turli mavzularda bo‘lgan bezash ishlarida rangli, rangsiz plenkalar, matolar, sovplast mahsulotlari yaxshi bezash vositasi hisoblanadi.

Bugungi kunda tasvirlash san’atning hamma turlari uchun qo‘llaniladigan o‘quv-texnik qurollar: qog‘oz, qalam, o‘chirg‘ich - rezina, akvarel, guash, flomaster, pastel, tush, ko‘mir tayoqchasi, bo‘r, kist - bo‘yoq, mo‘yqalami, loy va plastilinlar, plakat va xarf yozish perolari, sharikli, avtomat va oddiy yozuv ruchkalaridan iborat bo‘ladi. Bulardan tashqari, bo‘yoqlarni eritish va qo‘shish uchun suv (stakan yoki bankada tayyorlanadi), politra (qalin, karton qog‘ozlardan yoki nafis taxtalardan tayyorlanadi), plakat perolarni tozalab turish uchun bint-lattalar bo‘lishi lozim.

Tasvirlash va bezatish san'ati uchun ishlatiladigan yuqoridagi o'quv-texnik qurollarga alohida talablar qo'yiladi.

Qog'ozlar. Qog'ozlar turli xil o'simlik va daraxtlarning massalari va sellyulozasidan tayyorlanadi. Qog'ozning ishlatilishiga qarab turli xil qo'shimcha to'ldirgichlar va ximiyaviy ishlanmalar beriladi. Qog'ozlarga oq tus beradigan, silliq, zichlik holatini ta'minlaydigan qator ishlovlar berilib, asosan yozish-chizish uchun eng yaxshi navlari tayyorlanadi.

Qog'ozni birinchi bo'lib Xitoyda eramizning 2- asrida ishlab chiqilgan. Xitoylilar bu yangiliklarini 6- asrgacha sir tutib keldilar. 6-asrdan shu usulda Yaponiyada ham qog'oz ishlab chiqarila boshlandi. 8- asrdan boshlab qator Osiyo mamlakatlarida, 10-asrdan Yevropada va Rossiyada qog'oz ishlab chiqarish boshlandi. 17- 18 asrlarda Gollandiyada qog'ozni mashinalarda ishlab chiqarish boshlandi.

Hozirgi kunda jahonda qog'ozning 600 dan ortiq turini ishlab chiqariladi. Qog'oz o'zining chidamliligiga ko'ra yog'och, shisha va ayrim nemetall materiallar bilan rakoblashmoqda. Ammo qog'oz yozuv - chizuv san'ati va faoliyatining asosiy materiali bo'lgan holda, uning oq, pushti, ko'k, havorang, qizil, sariq ranglarda kuprok ishlab chiqariladi.

Qog'ozlar ikki o'lchovda (eni va uzunligi bo'yicha) tayyorlanib, uning shu o'lchamlari bo'yicha formatlari belgilanadi.

Rasm va chizmalar chizish uchun qo'llaniladigan qog'ozlar P-formatdan (o'lchami 297x210 mm.) boshlanib, 12 - (o'lchami 297x420 mm.), 22- (o'lchami 594x420 mm.), 24- (o'lchami 594x841 mm.) formatgacha tanlanadi. Qog'ozlarning buralish, egilish, sinish, ezilish, xo'llanish, o'ziga rang olish va ushlab turish holatlariga ko'ra klassifikatsiyalanadi. Qog'ozning eng yaxshi, sifatli sortlari o'qish, yozish, chizish, tasvirlash va matbuot uchush belgilanadi.

Rasm chiziladigan qog'ozlar notekis, qalam va bo'yoqni yaxshi oladigan, yaxshi xo'llanadigan holatda va oq rangda bo'ladi. Shu talablardagi qog'ozlar maktab va o'quv yurtlarining rasm fanlari uchun albom, papka, format holatida (pachkali) qilib tayyorlanadi (rasm.....).

Qalam. Rasm chizishda qo'llaniladigan qalamlar asosan yumshoq, rangli holda bo'ladi. Qalamlar ikki xil: qattiq va yumshoq holda tayyorlanadi. Qattiq qalamlar «Q» harfi bilan «Qattiq» ma'nosini anglatib, Q-1, Q-2, Q-3 va xokazo nomerlarda belgilanadi. Yumshoq qalamlar «M» - «YU» harfi bilan "Myagkiy-yumshoq" ma'nosini anglatib, yu-1, yu-2, yu-3 va YUYU, QYU hokazo nomerlarda belgilanadi. «Q» markadagi qalamlar qattiq va rangsiz bo'lsa, "»YU» markadagi qalamlar esa yumshok va rangi to'q bo'ladi.

Qalamni ishga tayyorlashning sifati, uni ish faoliyatini samarali bo'lishini ta'minlaydi. Qalamning marka va adreslari yozilmagan uchi tomonidan: 20-25 mm. ochilib, undan 5-8 mm. grifiti, qonun shaklida chiqariladi. (rasm).

Rangli qalamlar – maktabgacha va kichik maktab yoshdagi bolalarni rasm chizishga o'rgatishda alohida vosita bo'lib hisoblanadi. Shu boisdan pedagogika kollejarining maktabgacha tarbiya pedagogikasi va boshlang'ich sinf o'qituvchilari tayyorlaydigan bo'limlarida rangli qalamlar bilan ishlash va ularni qo'llanishi bo'yicha mashqlar o'tkaziladi. Rangli qalamlar komplekt holida bo'lib, ular 6, 9, 12, 18 rangdagi qalamdan tashkil topadi. Rangli qamlarning grafitlari ancha yo'g'on, yumshoq bo'ladi (yumshoqligi 2YU-4YU da bo'ladi). Shu boisdan rangli qalamlar grafiti 3-4 mm. uzunlikda ochiladi. Pedagogika o'quv yurtining maktabgacha tarbiya bo'limida rangli qamlardan naqshlar chizishda, manzarani va meva-sabzovotlar rasmi ishlanganda, shuningdek, badiiy bezash ishlarida qo'llaniladi.

Rangli qalamlar izini rezinada o'chirish ancha qiyin. Shu boisdan qamlardan foydalanishda birinchi marotaba bosmay, benurroq kilib ishlanadi. Rangli qalam, grafiti yog'li, gaz eziluvchi va mo'rtligi yuqori bo'ladi. Shu boisdan rangli qalamni

bosmay, ehtiyotlab ishlatiladi. Rangli qalamni yana bir xususiyati uni o‘chirish oddiy qora qalamdan ancha qiyin, shuningdek, o‘chirilgan o‘ringa ikkinchi marotoba tortilgan qalam rangi yaxshi o‘rnamaydi.

Ko‘mir tayoqchalari rasm ishlash vositalaridan biridir. Ammo u qog‘ozga yaxshi yopishmaydi, kukunlari to‘kilib ketadi, lekin u bilan tushirilgan qog‘ozdagi tasvir ko‘rinarli, tasvirga o‘ziga xos joziba beradi. Uni qog‘oz yuzidan quruq latta va rezina-o‘chirgich bilan osongina o‘chirish mumkin. Ko‘mir tayoqchadan foydalanishda, kattaroq formatda yoki rulon qog‘ozlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Rasm chizishda ishlatiladigan qalamtasvir vositalaridan yana biri - pasteldir. Pastel ham ko‘mir tayoqcha shaklida bo‘lib, yo‘g‘oi sterjen shaklida, turli rangdagi grafitdan iboratdir. Pastel, rangli bo‘r yoki rangli qalamlar kabi notekis qog‘ozda yaxshi yopishadi. Shunga qaramay u ham rangli -qalam kabi qog‘ozga yomon yopishadi, ko‘mir rangi kabi yaxshi iz qoldiradi. Uni o‘chirish ham rangli qalam kabi qiyinroq, sababi u ham rangli grafitdir.

Tasvirlash vositalaridan yana biri flomasterlar bo‘lib, ular asosan dekorativ bezash ishlarida, ayrim rangli etyudlar va xomaki tasvirlar ishlashda qo‘llaniladi. Flomaster yog‘li va spirtli bo‘yoqqalam bo‘lib, u rasm va chizmachilik uchun chiqarilgan qog‘ozlarga yaxshi yopishadi. Flomaster bilan tushurilgan tasvirdagi xato va kamchilikni tuzatish ancha mushkul, chunki uni o‘chirgichlar ololmaydi, lezviya bilan qirqib bo‘lmaydi, chunki flomaster bo‘yog‘i qog‘ozga singib ketadi. Shuning uchun ham badiiy bezatish ishlarida chiziqlar avval qalam bilan och rangda chizib, iz qilib olinadi va so‘ngra flomaster bilan chiziqlar ustidan zaruriy tasvirlar chiziladi.

Nazorat uchun savollar

- 1.Badiiy bezakda ranglar uyg‘unligi nima?
- 2.Katta ochiq maydonlarda bezak ishida ranglar mujassamligi?

3.Oq qor, (qizil-----),(kuk-----),(yashil-----) mosligini ayting?

4.Multimediya bezak nima?

5.Ommaviy baram bezagi bilan muassasa bezagi jarayonlari biri biriga yaqin hisoblanadimi?

Mustaqil ish uchun topshiriqlar

1.O‘zingiz istagan bayram bezagini tahlil qiling?.

2.Madaniyat va san’at muassaslarida bayram bezaklari haqida ma’lumotlar bering?

3. «Moment», «EPO» supersement va №88 yelimlar haqida ma’lumotlar bering

4.Ko‘chalarni bayramona bezatishning o‘ziga xos jixatlar.

5. E’lon nima, afisha, reklama biri-biridan farqlari.

“Madaniy- tadbirlarni badiiy bezash” fanidan test savollar.

1. Madaniy tadbirlarni badiiy bezash fani nimani o‘rgatadi?

- A) San’at sirlarini.
- B) Madaniy faoliyatni.
- S) Badiiy bezash to‘g‘risidagi kerakli ma’lumotlarni..
- D) Bezak shakllarini

2. Badiiy bezakda milliylik deganda nimani anglaysiz?

- A) O‘zbekona mentalitni.
- B) Sharqona bezakni.
- S) Badiiy bezak ishlarida milliy vositalardan foydalanishni..
- D) Zamonoviy bezakni

3. Badiiy bezak ustalarini ko‘rsatib o‘ting.

- A) Saidov B, Turdiyev A.
- B) Toirov R, Shovqiyev K.
- S) Maxmudov M, Ortiqmatov Z, Qodirov N..
- D) Qodirov V, Salixov C,

4. Yoshlarni tarbiyalashda badiiy bezakning o‘rni?

- A) Badiiy bezash sana’ati tarbiyaga tez ta’sir etuvchi vosita.
- B) Yoshlarni bilimli bo‘lishiga xizmat qiladi.
- S) Yoshlarni san’atga muxabbat ruxida tarbiyalashda katta ahamiyatga ega..
- D) Ko‘ngil qo‘zg‘tuvchi.

5. Ko'rgazmalarni badiiy bezashda nimalarga e'tibor beriladi?

- A) Ko'rgazma o'tadigan joyga.
- B) Ko'rgazma qilinishi kutiliyotgan mavzuga.
- S) Kishilarga tez va aniq ta'sir etish kuchi..
- D) Kuni va vaqti

6. Kompozitsiya tushunchasi haqida gapiring?

- A) Tekistlik.
- B) Aniqlik.
- S) Bezak ishlarining joylashish metodiga..
- D) Sifat.

7. Badiiy bezak fani qanday fanlar bilan bog'liq?

- A) Adabiyot, Chet tili, Geografiya.
- B) Tarix, Fizika, Muzika.
- S) Chizmachilik, Matematika..
- D) Fizika, Ximiya

8. Badiiy bezakda ishlatiladigan bo'yoqlarni bir- biri bilan bog'liqligini ko'rsatib bering?

- A) Oq-qora..
- B) Sariq-Oq.
- S) Qizil-Qora..
- D) Qizil-ko'k

9. Ko'rgazmali vositalarning turlarini ko'rsatib bering?

A) Afishalar.

B) E'lonlar.

S) Plakatlar, stendlar, ko'rgazmalar..

D) Banerlar

10. Bezak ishlarida ishlatiladigan mato nima?

A) Material.

B) Dazmol.

S) Rassom chizishga tayyorlab oladigan ish stoli..

D) Mato

11. Guashlar bilan akvariumning farqi nimada.

A) 2 lasining bir biridan farqi yo'q.

B) Akvarium suvda yuviladi.

S) Guash suvda yuviladi, Akvarium suvda yuvilmaydi..

D) Moy boyoq

12. Mustaqillik yillarida amalga oshiriliyotgan badiiy bezak ishlari haqida nimalarni bilasiz.

A) Badiiy bezash ishlari tez rivojlanmoqda.

B) Badiiy bezashda biznesga e'tibor kuchaydi.

S) Badiiy bezash asarlarimizda milliyilikga e'tibor qaratilgach bizning asarlarimizni dunyo tanimoqda..

D) E'tibor kam

13. Bezash atamasining ta'rifi?

A) Guzallik.

B) Orastalik.

S) Kutiliyotgan, yaratilgan ijodga, maxsulotga bezak berish..

D) Bezalish

14. O'zbekistonda o'tkaziladigan mavsumiy bayramlarda badiiy bezashning qaysi turidan ko`proq foydalanish mumkin.

A) Chizma turidan.

B) Ko'rsatma turidan.

S) Xalq hunarmandlarinig ijodlari bilan bog`liq ko'rgazmali turlardan..

D) Yozma

15. Badiiy bezak faoliyatni o'rganishda qanday usul va metodlardan foydalanamiz?

A) Taxlil qilish.

B) Yozib olish.

S)Bezash ishlari ustalari mutaxassislari bilan ijodiy uchrashuvlar, ko'rgazmali vositalar, foto,vidiyeo rasmga olish usullari bilan..

D) Amaliyot

16.Hunarmand iborasining tub ma'nosi ?

A) Buyumlar yasovchi ustalar.

B) Ma'lum ma'lumotga ega bo'lgan bezakchilar.

S) Bu soha va u oddiy mehnat qurollari yordamida xom ashyodan turli mahsulotlar ishlab chiqarish kasbidir..

D) Ustalar

17._Buxoro Amir qarorgoxi. Sitorai Moxi Xosa. Nechanchi asrda qurilgan.

A) 18-19- asr..

B) 16-17 -asr.

S) 15-16- asr.

D) 15-17 -asr.

18.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ma'naviyat va ma'rifat" jamoatchilik markazi huzuridagi "Oltin meros" xalqaro xayriya jamg'armasini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi qarori nechanchi yil qabul qilingan.

A) 15 -sentabr 1994 yil

B) 10 -oktabr 1998 yil

S) 27 -sentabr 1996 yil..

D) 24- avgust 1999 yil.

19. Respublikamizda nechanchi asrga kelib kelib me'morchilik va amaliy bezak san'ati rivojlana boshlangan.

A) 16- asrga kelib.

B) 17- asr boshlarida.

S) 18 -asr oxirlariga kelib..

D) 19- asr oxirlarida

20. Respublikamizda nechanchi asrga kelib binolarning ichki qismini koshin, tosh, ganch va yog'och o'ymakorligi bilan bezatish boshlangan.

A) 18-19- asrlarga kelib..

B) 16-17-asrlarga kelib

S) 20-21 -asrlarga kelib.

D)17-19- asrlarga kelib.

21. Toshkent o'ymakorligi maktabining yirik namoyondalarini ko'rsating.

- A) Abidov N, Saidov K.
- B) G‘aybullayev T, Mirzayev M.
- S) MaxmudovM, Fayzullayev O..
- D) Yunusev Sh, Toirov N

22. Qaysi asrlarda arab yozuvi bezak-naqsh darajasiga ko‘tarildi?

- A) 14-15- asrlarda.
- B) 16-17- asrlarda.
- S) 18-19- asrlarda..
- D) 16-18- asrlarda

23. Badiiy bezash ishlarida qog‘ozning qanday turlari qo‘llaniladi?

- A) Yozuv qog‘ozlari.
- B) Rangli tekis qog‘ozlar.
- S) Vatman va turli xil rangli yelimli yelimsiz qog‘ozlar..
- D) Chizma qog‘ozlar

24. Tushlar necha xil ko‘rinishda ishlab chiqariladi?

- A) 8 xilda.
- B) 10 xilda.
- S) 12 xilda..
- D) 14 xil

25. Badiiy bezash ishlarida eng ko‘p ishlatiladigan bo‘yoqlar.

- A) Turli xil rangsiz bo‘yoqlar.
- B) Faqat suvli va suvsiz bo‘yoqlar.
- S) Rangli va rangsiz (suvli va moyli) bo‘yoqlar.

D) Omiuxta ranglar

26. Badiiy bezash ishlaridagi yozuvlar sifatli va bir xil chiqishi uchun nimalardan foydalanilgan.

A) Chizg`ich-leniykalardan foydalanishgan.

B) Iplar va matolardan foydalanishgan.

S)Trafaret va shablonlardan foydalanishgan..

D) Sirli idishlardan

27. Muassasalarni badiiy bezashda ko‘proq qanday jarayonlar hisobga olinadi ?

A) Binoning joylashishi.

B) Binoning qavvatlari.

S) Binoning kimlar uchun muljallanganligi..

D) Joylashish

28. Badiiy bezak xodimining maxorati, ish jarayonidagi professional qobiliyatlari deganda nimalarni tushunasiz?

A) Badiiy bezak ishining qimmatligini.

B) Badiiy bezakning kattaligini.

S)Badiiy bezak ishining sifati, ixchamligi va kishilar qiziqishini o‘ziga jalb etishida..

D) Hammasi to‘g‘ri

29. Intererni badiiy bezashda dekorativ-amaliy san‘atning qaysi turlaridan foydalaniladi.

A) Zargarlik va kashtachilik.

B) Misgarlik va chekanka.

S).Yog`och va ganch o`ymakorligi, naqqoshlik, dekorativ haykaltaroshlik, mozaika, vitraj turlaridan foydalaniladi..

D) Sopolchi

30. Intererning ko`rinishini buzadigan omillar.

A) Amaliy bezak san`atining sifatsiz va saviyasiz namunalari.

B) Tasviriy san`atning boshqa turlariga bevosita bog`lanmagan ayrim stendlar, devoriy gazetalar, chaqiriqlar, e`lonlar, portretlar..

S) Har xil ko`rinishdagi afisha va reklama shitalari.

D) Katta hajmdagi rasmlar

31. Devorlarni bo`yashda qo`llanadigan asosiy ranglarning yorug`lik qaytarish xususiyatlarining to`g`ri fariantini ko`rsating.

A) Oq – 85%, Och sariq- 75% , Och yashil- 65%, Och ko`k-65%, Sariq -65%..

B) Kulrang-55%, Yashil-52%.

S) Yashil- 52%, Havorang- 35%, To`q qizil-13%, To`q qizil-13%.

D) Sariq rang 56%

32. O`quv xonasida asosiy yozuv doskasidan tashqari xonaning orqa tomoniga gurux devoriy gazetasi, o`quv qo`llanmalari, navbatchilar grafigini joylashtirish tartibi.

A) Hajmi kichkina bo`lishi lozim.

B) Ko`rinishi ixcham bo`lishi lozim.

S) Ularning balandligi bir xil va ranglari bir biriga mos bo`lishi lozim..

D) Hajmi katta bo'lishi lozim.

33. Og'ir taglik bilan devorga o'rtacha balandlikda o'rnatiladigan gullar, stendlar, hurmat taxtalari, ish xona ko'rsatkichlari qanday tartibda jolashtirilgani ma'qul.

A) Muassasaga kiraverishiga.

B) Kirish yo'laklariga.

S) Birinchi qavat yo'laklari va devorlariga..

D) Chiqishda

34. Respublikamizdagi "Musavvir" firmasining mehnat faoliyatida qancha xalq ustalari mehnat qilib kelmoqdalar.

A) 500 ga yaqin xalq ustalari mehnat qilib kelmokdalar..

B) 800 ga yaqin xalq ustalari mehnat qilib kelmokdalar.

S) 1000 ga yaqin xalq ustalari mehnat qilib kelmokdalar.

D) 300 ga yaqin xalq ustalari mehnat qilib kelmokdalar.

35. Mo'yqalamlar asosan necha xil bo'ladi.

A) Uch xil yumaloq, yapaloq va oval..

B) To'rt xil yumaloq, yapaloq, yassi va oval.

S) Ikki xil qattiq va yumshoq.

Yumaloq- (akvarel bo'yoqlarda ishlatish uchun)

Yapaloq -(moy bo'yoqlarda ishlatish uchun)

D) Oval shaklida (uchi uchli peroga o'xshaydi mayda naqqoshlik va musaffirlik (xattoblik ishlarida))

36. Akvarel bo'yoqlarda ishlatish uchun qanday mo'yqalamlardan foydalaniladi.

A) Har xil mo'yoqalamlar qulay.

B) Kichchik hajmdagilari qulay.

S) Yumshoq mo'yoqalamlar qulay bo'lib, ular asosan suvsar, olmaxon junidan tayyorlanadi..

D) Qattiq moyqlamlar.

37. Afishalar nima?

A) Afisha -bo'ladigan tadbirning chaqirig'i.

B) Afisha –Ahorot beruvchi vosita.

S) Afisha -o'tkaziladigan ommaviy madaniy, sport va boshqa yo'nalishdagi tadbirlar, promo-aktsiyalar to'g'risidagi axborotni o'zida mujassamlashtirgan yozuv reklamasi..

D) Ochiq e'lon.

38. E'lon nima?

A) E'lon- kishilarni bo'ladigan tadbirga chaqirash.

B) E'lon- jamoatchilik e'tiborini jalb qilish maqsadida aniq yuridik va jismoniy shaxslarga yetkaziladigan qisqa ma'lumot..

S) Oldindan bo'lajak voqeyadan xabardor qilish.

D) Tadbirga chaqirish.

39. Ko'proq uylarda, kichkina madaniy ma'rifiy tadbirlarda ishlatiladi

Feyerverklar qanday shaklda bo'lishi ko'zda tutilgan.

A) Ishlash jarayonida balandligi 50-60 metrga yetadigan. (kata kichikligi 25mm dan 50 mm gacha ishlatiladi)..

B) Ishlash jarayonida balandligi 100-150 metrga yetadigan. (kata kichikligi 50mm dan 100 mm gacha ishlatiladi).

S) Ishlash jarayonida balandligi 150-200 metrga yetadigan. (kata kichikligi 150mm dan 200 mm gacha ishlatiladi).

D) Ishlash jarayonida balandligi 150-200 metrga yetadigan. (kata kichikligi 100mm dan 250 mm gacha ishlatiladi).

40. Rim shamlari qachondan boshlab ishlatila boshlangan.

A) Sobiq itifoq davridan boshlab katta bayramlarda ishlatila boshlangan.

B) Yaqin-yaqinlarda zamonoviy texnik vosita turi xisoblanib, katta davlat tadbirlarida ishlatila boshlangan.

S).Bu turdagi pirotexnik vositalarning tarixi ancha o'zoq bo'lib ular zodogonlarning bayramlarida ilgari ishlatilgan, tepaga qarab bir necha bor otish yo'li bilan amalga oshiriladi va otish jarayonida o'z izida chiroyli rangli yo'llar qoldirishi bilan ajralib turadi..

D) 20-21-asrdan boshlab.

41. Feyerverklar-qanday moslama?

A) O'z ichida turli xil pirotexnik yonuvchi moslamalardan iborat bo'lib ular tarkibiga yonuvchi massa va rang bo'lakchalari kiritiladi.

B) O'z ichida turli xil pirotexnik yonuvchi moslamalardan iborat bo'lib ular tarkibiga yonuvchi massa va paxta bo'lakchalari kiritiladi. Tadbirlarda juda chiroyli rang tarqatib tez o'chish xususiyatiga egadir..

S) O'z ichiga turli xil pirotexnik yonuvchi moslamalardan iborat bo'lib ular tarkibiga yonuvchi massa va turli xil rangi qog'oz parchalari kiritiladi. Tadbirlarda juda chiroyli turli xil rangli qog'ozlar tarqatadi.

D) Hamma javob to'g'ri

42. Tez va bor yo'g'i bir necha minutda qurilishi mumkin bo'lgan dekoratsiya sahnalar.

- A) Yengil matolardan ishlangan sahnalar.
- B) Yig'ilib olinadigan yengil metallardan ishlangan sahnalar.
- S) Ichiga havo yuborib qo'riladigan dekoratsiya sahnalari..
(bor yug'i bir necha minut ichida ishga tushirish mumkin).
- D) Yengil yig'ma matolardan ishlangan sahnalar.

43. Devorga bo'rtib ishlangan bezak texnikasi qanday nomlangan ?

- A) Memorchilik ishida arxitektura devorga bo'rtib ishlangan bezak kundal texnikasi deb yuritilgan.. (Sof tilla ishlatilgan)
- B) Mo'yqalam bilan devorga surat chizish texnikasi Zamin texnikasi deb yuritilgan.
- S) Me'morchilikda takroriy naqshlar bilan chizilgan naqshlar Zarhal texnikasi deb yuritilgan.
- D) Mo'yqalam bilan devorga surat chizish texnikasi Yasama texnikasi deb yuritilgan.

44. Nechanchi asrga kelib syujetli rasmlar deyarli chizilmay, balki kundal usulida naqshlar bilan bezash rivoj topdi.

- A) 12-13- asrlarda.
- B) 13-14- asrlarda.
- S) 16 -17- asrlarda..
- D) 14- 15-asrlarda

45. Girihkor usta nomi bilan qanday ustalar nomlangan.

- A) Ganchkor ustalar.
- B) Miskar ustalar.
- S) Naqqosh ustalar..
- D) Misgar ustalar

46. Asosiy ranglarga qaysi ranglar kiradi.

- A) Oq, qora, qizil ranglar
- B) Qora, ko'k, binavsha ranglar
- S) Sariq, qizil, zangori ranglar..

D) Qizil, ko‘k, sariq

47. Ranglar necha turga bo‘linadi.

A) Ranglar asosan 3 turga bo‘linadi, och, to‘q, ko‘rimsiz.

B) Ranglar bir necha sanoqsiz turga bo‘linadi.

S) Ranglar asosan ikki turga, iliq, sovuq turga..

D) Ranglar 2 turga bo‘linadi.

48. Madaniy tadbirlarni badiiy bezash fani nimani o‘rgatadi?

A) San’at sirlarini.

B) Madaniy faoliyatni.

S) Badiiy bezash to‘g‘risidagi kerakli ma’lumotlarni..

D) Ijtimoiy va madaniy faoliyat

49. Badiiy bezakda milliylik deganda nimani anglaysiz?

A) O‘zbekona mentalitni.

B) Sharqona bezakni.

S) Badiiy bezak ishlarida milliy vositalardan foydalanishni..

D) Milliy bezaklar.

50. Badiiy bezak ustalarini ko‘rsatib o‘ting.

A) Saidov B, Turdiyev A.

B) Toirov R, Shovqiyev K.

S) Maxmudov M, Ortiqmatov Z, Qodirov N..

D) Yunusov.B, Abdiev.A.

GLOSSARIY .

Applikatsiya– qog‘oz, gazlama, karton va boshqa materiallarga rang-barang material yoki qog‘oz parchalarini yopishtirish orqali naqsh yoki badiiy tasvir yaratish.

Afisha - o‘tkaziladigan ommaviy madaniy, sport va boshqa yo‘nalishdagi tadbirlar, promo-aksiyalar to‘g‘risidagi axborotni o‘zida mujassamlashtirgan yozuv reklamasi..

Asosiy rang – tabiatdagi sariq, qizil, zangori ranglar. Shu ranglarni bir-biriga ozmi-ko‘pmi aralashtirish natijasida boshqa ikkinchi darajali ranglar kelib chiqadi.

Akvarel – (lotinchada, aqua – suv, fransuz. aquarelle – suv bilan yozish) ma’nosini beradi) suvli bo‘yoqlar va ushbu bo‘yoqlarda bajarilgan rangtasvir ham shunday ataladi. Bo‘yoq rangli pigment kukuni va biriktiruvchi vositalardan tarkib topgan. Akvarel bo‘yoqlariga gummiarabika, asal va glitserin qurib qolmasligi uchun qo‘shiladi.

Akvarel qattiq, yarim yumshoq va yumshoq ko‘rinishda bo‘ladi. Qog‘ozlarning sifati asosiy rol o‘ynaydi. (vatman, g‘adir-budir torshon) qog‘ozning oqligi, nur manbai vazifasini o‘taydi. Yengil surtilgan bo‘yoqning tagidan oq qog‘ozning sezilishi, akvarelda bajarilgan asarlarni yanada jilodor qilib ko‘rsatadi.

Akvarelda ishlashda, olmaxon, kolonok mo‘ynasidan tayyorlangan mo‘yqalamlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Akvarelga oq guash qo‘shib ishlash umuman tavsiya etilmaydi. Akvarelda ranglarning bir-biriga nozik, yengil qo‘shilib ketish imkoniyatlari juda katta.

Asimmetriy. Asimmetriya – simmetriyaning bo‘lmaganligi yoki buzilishidir. Asimmetriya – simmetriya tuzilishining aksidir. Asarda kompozitsiya asimmetriya asosida qurilgan bo‘lsa, unda asosiy qoidaga ko‘ra simmetriya emas, agar aksincha, kompozitsiya simmetriya qoidalariga qanchalik rioya qilsa, asimmetriya bo‘lmaydi. Bu esa kompozitsiya qonunlari bo‘yicha simmetriya va asimmetriyani bir-biri bilan kelishgan holda bo‘lishini isbotlaydi.

Asimmetriya kompozitsiyaning markaziy qismi muvozanatining ixtiyoriy ravishda bo'lishi yoki ba'zida umuman ishtirok etmasligi, ayrim hollarda asarda insonlar bo'lmasligi uchun uning boshqa bir qismi band bo'lishi kerak.

Agar asarning asosiy mazmuni yaqqol ko'ringan, farqlar, ya'ni kontrast orqali ochilsa, bu holda unda yaqqol ko'ringan ijtimoiy va psixologik farqlarning asosiy qahramonlari yoki bir guruhni tashkil qilgan (figura) qomatlarning xarakteri, bir-biriga nisbatdan joylashganligi, ular orasidagi masofa, har birining tashqi ko'rinishi simmetriyani hosil qilish prinsiplari kompozitsiyaning bir bo'laki bo'ladi.

Ikki qarama-qarshi bo'lgan kompozitsiya turini tabiiy qonunlar asosida hosil bo'lgan ranglar birikmasi ta'siri orqali ko'rish mumkin.

AXROMATIK RANG – grekcha rangsiz degan ma'noni bildirib, ular bir-biridan yutadigan yoki tarqatadigan yorug'lik kuchi bilan farq qiladi. Ularga oq, qora va kulrang ranglar kiradi.

ANDAZA – (fors.tojikcha – o'lchov, son, hajm, miqdor, trafaret, ruscha – merka, shablon) – shakl ko'chirish uchun qo'llaniladigan (qog'oz, karton, faner, po'lat, tunuka va hakazolardan tayyorlangan) maxsus o'lchagich. Qo'qonda *o'lchak* va *iskat* deb ham ataydilar. Tunukasozlikda va misgarlikda – taxta, tunuka yoki misning bir qismini buyum yasash uchun kesib olish maqsadida ustiga andazani qo'yib chizib olish – *andazalash* deyiladi.

Temirchilikda andaza ketmonning zo'g'ati yoki tanasini qirqib olish uchun yasalgan o'lchak. Metalsozlikda andazani shablon deb yuritiladi. Kashtachilikda qog'oz yoki kartondan chizilgan rasmni naqshga muvofiq qirqib tayyorlangan gulni ham *andaza* deyiladi. Ganch o'ymakorligida, me'morchilikda binolarni bezashda rozetka, ustun, qandil, gipsli ramka va boshqalarni yasashda ishlatiladi Bunda yig'ma andaza, osma andaza, yarim andaza, tebranuvchi andaza va boshqalardan foydalaniladi. Bu andazalar po'lat, tunuka, yog'och, faner va boshshqalardan yasaladi.

AXTA – naqsh yoki biror rasmni shaffof (kalka) qog'ozga chizib, chiziq yo'llarini igna bilan teshib, buyum yuziga tushurish uchun tayyorlangan andaza.

Xorazmda uni ulgi, Buxoroda so‘zan deb yuritadilar. Ilk davrlarda ustalar sirtga to‘g‘ridan-to‘g‘ri chizib, o‘yib ketganlar, keyinchalik axta orqali tasvirni tushurish qulayligini bilib foydalanib kelganlar.

DEKORATSIYA – sahnada ko‘rsatilayotgan voqea o‘rnini aks ettirishga, spektaklning g‘oyaviy ma’nosini ochishga xizmat qiluvchi sun‘iy manzara, badiiy jihoz. Dekoratsiya rangtasvir, grafika arxitektura, sahna texnikasi, kinoproeksiya va shu kabilarning tasviriy vositalari yordamida yaratiladi.

BUTAFORIYA – teatr spektakllarida haqiqiy narsalar o‘rnida qullaniladigan, spektakl xarakteri va sahna talablari, imkoniyatlaridan kelib chiqib yasalgan mebel, bezaklar, kostyum detallari, turli idishlar va sh.k.lar.

BEZAK – 1) narsa, buyumlarga ishlangan naqsh, gul, pardoz; amaliy san‘at va me‘morlikda keng ishlatiladi. O‘simliksimon (islamiy) va handasiy (girihi) naqshlar bezatilayotgan yuza(buyum sirti)da boyama, chizma, oyma, bosma, qadama va b. usullarda, me‘morlikda shuningdek g‘isht va b.ni turlicha terib hosil qilinadi; 2) ziynat beruvchi buyum. Zargarlikda taqinchoklar, miskarlikda suvdon, kosa, piyola; zardo‘zlik yoki kashtado‘zlikda choyxalta, oynaxalta, dorpech, kirpech, qoziqdungi va b.

BEZAK SAN‘ATI – san‘at turi; inson atrofidagi moddiy muhitni shakllantiradi, badiiy bezash uchun xizmat qiladi, unga estetik va g‘oyaviy badiiy mazmun baxsh etadi.

BEZAK HAYKALTARYOSHLIGI – haykaltaryoshlik turi, asarlari ma’lum me‘moriy makonni yoki tabiiy sharoitni hisobga olgan holda binoning tashqarisi yoki ichkarisini, shahar ko‘chalari, maydonlari va xiyobonlarini bezatadi.

RASSOM (arab.) – tasviriy san‘at sohasidagi ijodkor. Qog‘oz, karton, mato va b. materiallarga, shuningdek, binolarning devor va shiftlariga turli usullarni qo‘llagan holda badiiy asar yaratuvchi san‘atkor. R. inson faoliyati, hayoti uchun zarur bo‘lgan narsalarning shaklini, hajmini yaratishga, ularni did b-n bezatishga

ham hissa qo'shadi (yana q. Rassomlik san'ati).

PARDOZ – 1) amaliy san'at (zargarlik, ganch va yog'och oymakorligi, miskarlik va b.)da narsalar sirtiga beriladigan so'nggi ishlov, jilo; 2) oymakorlikda naqsh yaratish usuli; ganch oymakorligida 6 ta P. – lo'la pardoz, paxpardoz, tabaqa P., chizma P., choka P. va qirma P. turlari bor. Sodda va murakkab P., zaminli va zaminsiz oyma turlari oymakorlik naqshlari talqinida yaqqol ko'rinadi. Bunday P. naqshlangan yuzani

NAQSH (arab. – tasvir, gul) – qism (taqsim)lari muayyan tartibda bir maromda takrorlanishidan hosil bo'ladigan handasiy shakllar, o'simlik, qush, hayvon va b.ning uslublashtirilgan tasvirlaridan tarkib topgan bezak (gul). Turli narsalar (ashyolar, qurol, mato, mebel, kitob va t.k.), me'moriy inshootlar (ham ichki, ham tashqi bezaklar), nafis san'at (asosan, amaliy san'at) asarlarida keng qo'llanadi, ayrim xalqlarda, shuningdek, odam tanasini bezash (tatuировka, bezash)ga mo'ljallanadi. Narsaning sirtini bezayotgan N. uning tuzilishini yuzaga chiqaradi va uning badiiy sifatini oshiradi. N. yo mavhum shakllardan tuziladi, yo aniq mavzulardan uslublashtiriladi. Ishlanayotgan xom ashyosiga ko'ra, N. ishlashning turli-tuman uslub va usullari mavjud: oyma (ganch, yog'och, mis, tosh, marmar va b.), boyama (qog'oz, mato, ganch, yog'och, sopol va b.), chok yordamida tikma (kashtado'zlik, zardo'zlik va b.), zarb qilib, quyib (zargarlik, miskarlik va b.), to'qima (gilamchilik, to'qimachilik va b.), qadama (inkrustatsiya, panjarasozlik va b.) va b.

NATYURMORT (frans. nature morte – jonsiz tabiat) – tasviriyy san'at janri. Insonning atrofini o'rab turgan real maishiy muhitda joylashgan va kompozitsiya jihatidan yaxlit guruhni tashkil qilgan narsalar tasvirlanadi; shuningdek, shu janrda yaratilgan rassomlik asari ham N. deb ataladi. Asosan, dastgohli rassomlik (rangtasvir va grafika)da, qisman haykaltaryoshlik (asosan, relef)da ishlanadi. N.da «jonsiz buyumlar» (mas., uy-ro'zg'or buyumlari, qurol-aslahalar va b.)dan tashqari, tabiatdan ajratib olingan va buyum, narsalarga aylantirilgan jonli tabiat narsalari (stoldagi baliq, vazadagi gul va b.) ham

tasvirlanadi. Asosiy mavzuni to'ldirish uchun ba'zan N.ga odamlar, hayvonlar, qushlarni ham kiritish mumkin. Maishiy asosidan ajratib olingan mayda narsalarning muhimligi boshqa janrlarga nisbatan N.da namoyon bo'ladi.

N.da tasvirlanayotgan (mustaqil aks ettirilayotgan yoki kartinalarda asar mazmunini boyitadigan va to'ldiradigan) buyumlar o'z egasining fe'l-atvorini, qiziqishini yoritishga yoki buyumlarning shakli, rangi, fakturasi, tuzilishidagi ritmik, dinamik va statik holatlarini ko'rsatishga qaratilgan. N. Qadimgi Misrda devorga ishlangan freskalarda, ellinizm davri mozaikalarida, Xitoyda («qush va gullar», 7-a.dan) kompozitsiya bo'lagi sifatida ma'lum bo'lgan; yevropada 16-a. oxiri – 17-a. boshlaridan mustaqil ahamiyatga ega bo'ldi, keng tarqala boshladi, eng taraqqiy etgan davri 17-a.ga to'g'ri keladi, 18-a.dan «N.» atamasi qo'llanila boshladi. O'zbekiston tasviriy san'atida N. unsurlari qadimgi davr san'atida (mas., Afrosiyob devoriy rasmlarida – vazadagi mevalar), miniatyura san'atida (mas., Kamoliddin Behzodning Shayboniixon portretida tasvirlangan buyumlar – siyohdon, qamchi) uchraydi.

. **KINO DEKORATSIYASI SAN'ATI** – film voqealarini suratga olish uchun ssenariy asosida pavilon yoki tabiiy sharoitda yaratilgan moddiy muhit (joy, jihozlar). Filmning turli epizodlarida dekoratsiya turlicha ahamiyatga ega: ayrim hollarda tomoshabinga sezilmaydigan zamin (fon) bo'lsa, ba'zan voqealarni yuzaga keltirib chiqaruvchi obrazli muhit vazifasini o'taydi. K.d.s. film rassomining film operatori va rejissyori b-n maslahatlashib yaratgan eskizlari asosida tayyorlanadi. Dekoratsiya film orqali hikoya qilinayotgan tarixiy voqealar, o'sha joydagi muhit va sharoitni tomoshabin ko'z o'ngida gavdalantirishga, rejissyor va kinodramaturg ilgari surgan g'oyani tomoshabinga yetkazishga xizmat qiladi.

Dastlabki K.d.s. matoga chizilgan. 20-a.ning 10-y.laridan hajmli qilib ishlana boshlagan, aktyor oynaydigan joy (old qismi) tabiiy hajmda ishlanib, yig'ma (muvaqqat) va doimiy foydalaniladigan pavilonlar qurilib, film o'zgarmas bir nuqtadan tasvirga olingan, dekoratsiyaning old qismi b-n olis manzara (perspektiva)si uyg'unlashtirilgan. Texnikaning takomillashuvi, oddiy va ko'p

kamerali tasvirga olish kompleks dekoratsiya yaratishni yuzaga keltirdi: bunda dekoratsiyani rejalash muhim ahamiyatga ega, chunki bir vaqtning o'zida bir necha obektlarni tasvirga olishga to'g'ri keldi.

bunda dekoratsiyani rejalash muhim ahamiyatga ega, chunki bir vaqtning o'zida bir necha obektlarni tasvirga olishga to'g'ri keladi. Bu esa rassomdan o'ta topqirlikni talab qiladi.

O'zbek K.d.s.ning rivojida B. Chelli, V. yeremyan, V. Sinichenko, E. Kalontarov, S. Ziyomuhamedov, N. Rahimboev, B. Nazarov, S. Alibekov va b. rassomlarning xizmati katta.

GUASH – suvli uchna tiniq bo'lmagan bo'yoq. Yelim bo'yoq turi. U rasm, teatr bezagida, ganch o'ymakorligida o'yilgan naqshni bo'yashda va rangli ganch qorishmasini tayyorlashda ishlatiladigan bo'yoq. Naqqoshlikda ham ko'p ishlatiladi.

ZAMAZKA – taxta yoriqlariga va deraza romlariga yopishtiriladigan hamirsimon ko'rinishdagi qorishma.

ZAMIN – o'ymakorlikda va naqqoshlikda naqshli bezakning tagi (foni) deyiladi.

IZORA – (ruscha, panel), uy devorining pastki bezak qismi bShlib, ko'pincha naqsh yoki ganch bilan bezatilgan.

KALKA – (fr.kalgus so'zidan) chizmachilik, naqqoshchilik, yog'och o'ymakorligi bunda dekoratsiyani rejalash muhim ahamiyatga ega, chunki bir vaqtning o'zida bir necha obektlarni tasvirga olishga to'g'ri keladi. Bu esa rassomdan o'ta topqirlikni talab qiladi.

O'zbek K.d.s.ning rivojida B. Chelli, V. yeremyan, V. Sinichenko, E. Kalontarov, S. Ziyomuhamedov, N. Rahimboev, B. Nazarov, S. Alibekov va b. rassomlarning xizmati katta.

LAZUR – havo rang, zangori bo'yoq

LOLA – naqsh kompozitsiyasida ustalar juda ko'p qo'llaydigan islmiy naqsh elementi

MO‘YQALAM – qilqalam, naqqoshlikda, rassomchilikda bo‘yoqning qog‘oz, ganch, karton va boshqalarga tasvir solish, bo‘yash, chizishda ishlatiladigan asbob. Mo‘yqalamlar xayvonlar yungidan va har xil sun’iy tolalardan tayyorlanadi.

Mayin yungdan (mo‘yna, bo‘rsiq, suvsar, olmaxon) tayyorlangan mo‘yqalamlar akvarel, tempera hamda grafika ishlarida ishlatiladi, dag‘alroqlaridan tayyorlanganliklari esa moybo‘yoq rassomchilikda, naqqoshlikda va bo‘yoqchilikda qo‘llaniladi. Uzun qildan tayyorlangan mo‘yqalamlar esa freska hamda teatr dekoratsiyalarini tayyorlashda ishlatiladi. Bu mo‘yqalamlarni avvalgi ustalarning o‘zlari tayyorlaganlar yoki buyurtma berganlar. Hozir ko‘pchilik ustalar tayyor mo‘yqalamlarni rastalardan sotib oladilar.

E‘LON- jamoatchilik e‘tiborini jalb qilish maqsadida aniq yuridik va jismoniy shaxslarga yetkaziladigan qisqa ma‘lumot

RANG – biror narsaning bo‘yog‘i, tusi. Asosiy ranglarga sariq, qizil va zangori ranglar kiradi. Bularning qo‘shilishida yashil, ko‘k, binafsha, zarg‘aldoq, jigarrang kabi ranglar hosil bo‘ladi. Ranglar asosan ikki turga, ya‘ni iliq ranglar (qizil, sariq, zarg‘aldoq, sarg‘ish yashil) va sovuq ranglarga (zangori, kshkish yashil, binafsha, havo rang kabilar) ga bo‘linadi. Ranglar xalq amaliy san‘at turlarida muhim rol o‘ynaydi.

RANGLARNING VAZMINLIGI – ranglarning kishida og‘ir va yengil taassurotlar uyg‘otuvchi xususiyati, to‘q va och ranglar.

RANGLAR GARMONIYASI – ranglarning bir-biriga muvofiq tushishish.

RANGLARNING TOZALIGI – mazkur rangning spektr rangga yaqinlashtirib borishi. Spektr ranglar eng toza ranglardir.

RANGLARNING FAZOVIIY XUSUSIYATI – ranglarning zichligi, yengilligi yuzani uzoqlashtirib yoki yaqinlashtirib ko‘rsatish qobiliyati.

RAPPORT – frantsuzcha qaytarish, naqshning takrorlanadigan xarakterli qismi. Kashta, gilam, gazlama, keramik buyumlari, trikotaj va boshialarda naqshlarni takrorlanadigan qismi bo‘lib, gazlamada arqoq hamda tanda rapportlari bo‘ladi.

SIMMETRIYA – grekcha soʻz boʻlib, oʻlchovlarning bir-biriga mosligi, tengligi, mutanosibligidir. Simmetriyaning bir qancha turlari bor.

TOKCHA – xona devorlariga uy-roʻzgʻor buyumlari, quyiladigan maxsus joy. Tokcha qadimdan inchli yoki paxsa uylarga ishlatilgan. Hozirgi shkaf va servantlarning oʻrnini bajargan. Koʻpincha mehmonxonalarga tokcha ishlangan. Tokcha devorning pastki qismi izorasi tepa qismidan to sharafagacha boʻlgan balandlikda bajarilgan. Tokchalar koʻpincha oʻyma ganch va naqshlar bilan bezatilgan. Bu tokchalarni kosasimon tokchalar deb yuritiladi. Bu tokchalar xonaga alohida koʻrk bagʻishlagan va fayz kiritgan. Ganch oʻymakorlik sanʼati rivoj topgan shaharlarda ayniqsa, Buxoro, Toshkent, Fargʻona tokchalar bilan bezatish odat tusiga kirib qolgan. Ustalar tokcha ishlashda avval devorda maxsus joy ajratib oʻsha oʻlchamga moslab eskiz chizadilar. Tokchani gorizonta va vertikal boʻlaklarag bshlib chiqiladi. Har bir boʻlagi uchun naqsh kompozitsiyalar chiziladi va ganch taxtachalar qoʻyib oʻyiladi hamda ularni oʻrniga joylashtirib chiqiladi. Chetlariga hoshiya naqshlar bajariladi. Tokchani ajoyib namunalarini Toshkentdagi xalq amaliy sanʼati muzeyida koʻrish mumkin.

USTA – (forscha-toj) biror hunarni egallab, shu sohada malaka orttirgan shaxs. Oʻz hunarini yaxshi biladigan kishi.

FRIZ – (ital.-bezak) amaliy sanʼat bezak turlaridan. Devor, pol, mebel, gilam, turli buyum va idishlarga gorizonta tasvir tarzida xoshiyalab ishlatiladigan bezak.

HUNARMAND- Bu soxa va u oddiy mehnat qurollari yordamida xom ashyodan turli mahsulotlar ishlab chiqarish kasbidir

SHABLON – namuna, shtamp, trafaret. Bir shaklidagi narsalar tayyorlash uchun yasalgan namuna.

SHARAF – arabcha karniz maʼnosini bildirib, maqarnas shaklidagi karniz, binolarning devor va shift oraligʻiga, minoralarga, taxmon, mehroblarning tepa qismlariga ishlatiladigan hajmiy oʻyma, murakkab bezak turi. Markaziy Osiyo va Sharq meʼmorchiligiga xos bezak turi boʻlib, ayniqsa temuriylar davri arxitekturasida, yaʼni 15-17- – asrlarda yuksak rivoj topgan. Sharafa qisman egma

va qabariq yuzali bo'lib, u minora, gumbaz, kapitellardagi girih va muqarnaslar birlashuvchi natijasida hosil bo'lgan. Maqarnasning biror bo'lagini to'g'ri chiziq yo'nalishida bir-biriga ulab takrorlansa sharafa hosil bo'ladi. Sharafani yasash ancha murakkab bo'lgani uchun ko'pincha quyma asosida nusxalar tayyorlab keyin devor yuziga yopishtirib chiqiladi. Oddiy sharafalarni esa to'g'ridan-to'g'ri devor sathiga axta yordamida tushurib o'yiladi. Sharafa chizmasini tayyorlashda uchburchak, kvadrat va boshqa kataklardan foydalaniladi. Sharafalarni ganch, gips, alebastr, marmar, beton va boshqa materiallardan ishlanadi. Masalan, Toshkentdagi Alisher Navoiy nomli teatr binosining tashqi qismida Usta Shirin Murodov, Shamsiddin G'ofurov, Quli Jalilov va boshqalar edi. Sharafaning katakli, ko'p qirrali, prizmalı, aralash va boshqa shakldagi turlari bor. Sharafa bilan muqarnasni qo'shib ishlatilishi Imom Qozixon sharafa (birinchi bo'lib Buxorodagi imom Qozixon boyniing uyida qo'llanligi sababli shu nom bilan yuritiladi) deyiladi. Sharafa qadimdan ishlatilib kelinayotgan bo'lib, uning har xil namunalarini Kolon, Qutb, Bolo xovuz minoralarida. Ulug'bek, tillaqori, Ulug'bek madrasalarining minoralarida, Amir Temur maqbarasida, Ulug' Oktabr Revolyusiyasidan keyin esa Toshkentdagi Alisher Navoiy nomli teatrda (har xil sharafalar), qishloq xo'jaligi minstrligi binosida (prizma o'xshash), Toshkent kurantidagi Sharafadan hozirgi vaqtda kam foydalanilmoqda.

SHRAKLYOVKA – nemischa kurakcha degan ma'noni bildirib, yuzalarini bo'yash hamda pardozlashdan oldin sirtini tekislash uchun suriladigan quyqasimon massa. U bo'r, yog'och yelimi, alif moyiaralashmasidan tayyorlanadi. Yuzalarni shpatel yordamida silliqlashni shpaklyovkalash deb yuritiladi.

Shpaklyovkaning ikki turi bor. Yelimli shpaklyovka va yog'li shpaklyovka. Yelimli shpaklyovka yog'och yelimi, alif moyi va bshrdan tayyorlanadi. 1 kg yelimiga 3 litr suv, 1 kg yelim hisobiga esa 0,3 litr alif moyi qo'shiladi. Yog'li shpaklyovkaga esa alif moyi qo'shiladi. Yog'li shpaklyovkaga esa alif moyi ko'proq miqdorda qo'shiladi.

ESKIZ – qo'l bilan ko'zda chamalab, chizmalik asboblarisiz taxminiy o'lchamlarda bajariladigan xomaki tasvir. Naqqosh, rassom, bezakchi, ganchkor va

boshqalar biror narsa yoki uyni bezashdan oldin xomaki tasvirni bajaradilar. Shu eskiz bo'yicha ish bajariladi. Lekin ish jarayonida eskizdagi ayrim narsa o'zgarishi ham mumkin.

- darslarda yangi pedagogik mexnologiyalardan o'rinli foydalanish;
- ta'limning zamonaviy texnikaviy vositalarini qo'llash;
- darslarda xalq og'zaki ijodi namunalari, usta shogird an'alaridan keng foydalanish;
- talabalar ishlaridan ko'rgazmalar qilish;
- ko'rgazmali qurollardan foydalanish;
- talabalarni o'z kasbiga qiziqtirish yo'llaridan unumli foydalanish;
- talabalarning individual xususiyatlarini, universitetning moddiy baza-sini hisobga olish;

fanga oid ishlatiladigan atamalarning lug'oviy ma'nosini atroflicha o'rga-nish va boshqalar

Badiiy bezash ishi kursini olib boruvchi o'qituvchi talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda dasturga ayrim o'zgartirishlar kiritish mumkin.

Badiiy bezash kursida plakatlardan, tarqatma materiallardan, kompyuterdan, har xil grafiklardan va boshqa ko'rgazmali qurollardan foydalanadi.

O'simliksimon va xayvonot dunyosidan olingan turli shakllarni qayta ishlash (butalar, novdalar, shoxlar, barglar, gullar, mevalar va shu kabilar).

Rangshunoslik texnologiyasi. Ranglash va pardozlash turlari.

Rang turlari, ularning o'ziga xos xususiyatlari. Naqqoshlikdagi ranglar-ning o'rni.

Bo'yoqlar tayyorlash texnologiyasi. Bo'yoqlar bilan ishlash texnologiyasi.

Kolorit, kontrast, garmoni.

O‘quv qo‘llanma yakunida bayramlarda ishlatiladigan rasmlar va jadvallar tarqatma materiallar, qo‘shimcha ilova qilinadi.

“Madaniy tadbirlarni badiiy bezash” fanida tarqatma materiallar

“Madaniy tadbirlarni badiiy bezash” fanida tarqatma materiallar o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Masalan: Mavzu bo‘yicha o‘tiliyotgan dars jarayonida biz talabalarga u yoki bu mavzuga oid tushuncha berishda bezak ishlari bilan bog‘liq turli xil surratlar, jurnallar, rasmlar va albatta talabalar o‘zlarining imkoniyatidan kelib chiqqan holda ishlagan mustaqil ishlar darsni yanada mazmunli o‘tishga olib keladi va talabalarda tushunish, tez qabul qilish, eslab qolishdek natijalarni beradi.

Talabalarga beriladigan tarqatma materiallar soni kamida 15 donadan oshmasligi talabalar bir nechta bo‘lib ishlash imkonini beradi, mashg‘ulotda bajarilayotgan vazifalarning tez va sifatli bo‘lishi esa eng muximi hisoblanadi.

Tarqatilayotgan tarqatma materiallarni talabalar tez o‘zlashtirishlari uchun asta -sekin darsdan -darsga murakablashib borishi fan yuzasidan talabalarning o‘z bilimlarini mustahkamlab borishdek vazifani bajaradi.

1.Sahna bezagidan tarqatma hamunalar.



BINO ICHIDA SAHNA BEZAGI



OCHIQ MAYDONDA SAHNA BEZAGI



BOLALAR BAYRAMI BEZAGI



TOMOSHA MAYDON BEZAGI



NAVRUZ BAYRAM BEZAGI




NAVRUZ BAYRAM BEZAGI



NAVRUZ BAYRAM BEZAGI


2.Madaniy tadbirlarda bayram bezaklari.



3.Ko‘chalar va ommaviy tomosha maydonlarini bezatish.









4.Bolalar uchun maxsus bezatish ishlari.



BOYDOR AYROMEN



KULGI QO'ZG'TGICHLAR



KULGI QO‘ZG‘TGICHLAR



BOYDOR PNEVMATEK MAXSUS KIYIMLAR



BOLALAR BAYRAM BEZAKLARI



BOLALAR BAYRAM BEZAKLARI





**PNIVMATEK KIIYIMLARDAN IBORAT BOLALAR BAYRAM
BEZAKLARIDAN IBORAT ERTAK QAXRAMONLARI**



BOLALAR BAYRAMI UCHUN MAXSUS QOG'OZDAN BEZAK TURI



SHARLAR BILAN KO'CHALARNI BADIYY BEZASH

5. Madaniy tadbirlarda ishlatiladigan zamonaviy texnik moslamalardan hamunalar.





SAHNADA CHIROQLARDAN BEZAG DEKORATSIYASI.



TEXNIK BEZAK TARQATUVCHI MOSLAMALAR.



SHAKL VA CHIROQ NURLARINI TARQATUVCHI (VEED 227)

TEXNIK MOSLAMA




TADBIRLARDA QOR, TUTUN TARQATUVCHI



MADANIY (AGIEM 107) TEXNIK MOSLAMASI



Yaltiroq qog'ozlarni tarqatuvchi bezak moslamalari





TURLI CHIROQLAR O‘RNATILGAN BEZAK SHAKLLAR



TURLI CHIROQLAR O‘RNATILGAN BEZAK SHAKLLAR

6.Bayram va tetr nigoblari va maskalar bezagi.







7. Bayram va madaniy tadbirlarda sahna dekoratsiyalari.






8. Mato va gullar bilan bezatish.



9. Bayramona dasturxon bezaklar






Talabalar tomonidan bajariladigan amaliy mashg'ulotlar.

1. O'z qo'limiz bilan amaliy bajaramiz, qilamizm va yasaymiz

Pingvin





Rasmda ko'rsatilgan ketma ketlikda bajariladi.....

2. Rangli qog'ozlar va koptoklardan yangi yil bezaklari



Rasmda ko'rsatilgan ketma ketlikda bajariladi.....




Rasmda ko'rsatilgan ketma ketlikda bajariladi.....



Rasmda ko‘rsatilgan ketma ketlikda bajariladi.....



Rasmda ko‘rsatilgan ketma ketlikda bajariladi.....



***2 pochka qo‘l salfetkasi dumoloq shaklda kesib olinadi va o‘rtasidan
stepler bilan mahkamlanadi hamda rasmda ko‘rsatilgan ketma ketlikda
qog‘oz gullar yasaladi, oldindan kesib tayorlab qoyilgan kartonga qog‘oz
elem orqali mahkamlanadi***

3. Plastilin (yelimli) bir martalik idishlardan yangi yil bezaklari



Rasmda ko‘rsatilgan ketma ketlikda bajariladi.....



Rasmda ko‘rsatilgan ketma ketlikda bajariladi.....


4. Havo sharlaridan bezak ishlarini bajaramiz






Rasmda ko‘rsatilgan ketma ketlikda bajariladi.....





Rasmda ko'rsatilgan ketma ketlikda bajariladi.....




Rasmda ko'rsatilgan ketma ketlikda bajariladi.....




Rasmda ko‘rsatilgan ketma ketlikda bajariladi.....




Rasmda ko'rsatilgan ketma ketlikda bajariladi.....



Bolalar bayramiga rangli sharlardan ustun yasash
Rasmda ko'rsatilgan ketma ketlikda bajariladi.....



Oddiy simdan karkaz mosalama qilib olamiz



Suv bilan to'ldirilgan sharlarni moslamaga skoch bilan mahkamlaymiz




Ikki tomonlama tayorlangan sharlarni moslamaga o'rnatamiz o'rtasidan boshlaymiz



Birin ketin oldindan tayorlab olingan moslamaga ranglar ketma ketligida joylab chiqamiz





Rasmda ko‘rsatilgan ketma ketlikda bajariladi.....



Rasmda ko‘rsatilgan ketma ketlikda bajariladi.....



Rasmda ko‘rsatilgan ketma ketlikda bajariladi.....





Rasmda ko'rsatilgan ketma ketlikda bajariladi.....

Xulosa.

O'tkaziladigan barcha madaniy tadbirlarda zamonaviy bezak vositalaridan foydalanish insonlarda estetik qobiliyatini mustahkamlaydi, madaniy -xordiqiy tadbirlarni tashkil etishda, boshqarishda zamonaviy bezak vositalarning yangidan-yangi turlari va shakllaridan foydalanish yo'l yuriqlari bilan tanishtirish bilan bir qatorda, zamonaviy bezak moslamlarning tuzilishi hamda ularning har xil ishlatilish prinsiplari haqida ma'lumot beradi, yoshlarda estetik didni shakllantiradi, san'at asarlarini tushunish va qadriga yetishni o'rgatadi, mehnatga hurmat bilan qarash bilan birga unga bo'lgan muhabbatni tarbiyalaydi, mehnat qilish ko'nikmalarini egallashda yordam beradi.

Yuqorida aytib o'tilgan fikr va mulohazalardan kelib chiqqan holda, madaniy tadbirlarda zamonaviy bezak vositalaridan foydalanish imkoniyatlari hozirgi zamon madaniyat va san'at maskanlarida yangi bezaka vositlaridan foydalanishning ilmiy – nazariy, ilmiy- uslubiy masalariga atroflicha qaraldi.

Bugungi kunga kelib madaniy tadbirlarda bezak vositalarni ishlatish ishlariga, umuman zamonaviy bezak vositalariga e'tibor katta bo'lishi bilan bir qatorda ularning yangi kashf etilgan turlariga ehtiyoj katta bo'lmoqda.

Yuqorida ta'kidlangandek, birorta san'at sohasi yo'qki, uning bugungi kundagi holati, faoliyati va yutuq'i fan-bezaka vositalarisiz bo'lishini ta'savvur qilish qiyin.

Ayniqsa, san'atning istalgan bir tur yoki janrini davr ruhiga moslashtirishda fan-texnika yutuqlaridan foydalanmaslik, yangi texnologiyalarni bu soha amaliyotiga tadbiq etmaslik, umuman, kechirilmas xato bo'lar edi.

Zotan, O'zbekiston o'zining taraqqiyot yo'lida jahon hamjamiyatiga tanilishining muhim jihati ham ana shu madaniy hayot yutuqlarini olamga ko'z-ko'z qilishi bilan belgilaniladi.

O'zbekistonning madaniy hayotida faoliyat ko'rsatayotgan davlat va nodavlat yo'nalishdagi san'at muassasalari, namoyish qilinadigan madaniy-ma'rifiy tomosha

va konsertlar xoh yopiq bino, xoh ochiq maydon sahnasida bo'lsin, o'zlarining mahoratlarini, san'atini bezak vositalarisiz ko'rsatolmasliklari barchaga ayon.

Ayniqsa, minglab tomoshabinlarga stadion va katta konsert zallarida tomosha beruvchi qiziqchi, ashulachi hamda sozandalar so'ngi paytlarda zamonaviy kompyuter bezakasiga moslashtirilgan ovoz kuchaytirgichlar, tadbir uchun maxsus yozilgan fonogrammalar, lazer qurilmasi yoritgichlari, rangli chiroqlar, generatorlar va proyektor texnologiyalaridan foydalanayotganliklari fikrimiz dalilidir.

Musiqas san'ati, milliy estrada san'ati, tomosha san'ati, kino va televideniya, sirk bayram tadbirlaridagi bezak vositalardan foydalanish, zamonaviy texnologiya yutuqlarini amaliyotga tatbiq etish masalalari ham bu sohaning naqadar muhimligini tasdiqlaydi.

Zamonaviy bezak vositalardan foydalanish xizmati orqali yuqori darajada madaniy xordiqiy dam olishni tashkil etish, boshqarish bilan bir qatorda ta'limning barcha yo'nalishlarida o'sib kelayotgan barkamol yosh avlodni zamonaviy bezaka vositalar, yangi axborot texnologiyalari yordamida g'oyaviy, ma'naviy-ma'rifiy va estetik tarbiyalashning muhim omillari sifatida katta ahamiyatga egadir.

Foydalangan adabiyotlar:

Asosiy adabiyotlar:

1. Sbornik.Xudojnik i zrelishe. – M.: Sovetskiy xudojnik, 1990.
2. Bulatov S.S. «o‘zbek xalq amaliy bezagi san’ati» T.: Mehnat 1991.
3. Qodirxo‘jayev P. «Maktabda badiiy bezash ishlari». T.: o‘qituvchi 1991y.
4. Zuev D.D. Xudojestvennoye oformleniye shkoli. Kuybishevskoye knijnoye iz-vo 1970.
5. Jogol L. YE. Dekorativnoye iskusstvo v interiyerax v obshestvennix zdaniy. Kiyev 1978.
6. Kardobovskiy K. Dekarotivnoye oformitelskaya rabota v shkole. L.: Uchpedgiz. 1961.
7. Strashnov V. Oformleniye shkolnogo interera, «Xudojnik» 1966 № 10.
8. Bikov V.V.Voprosov kompozitsii v agitatsionno oformitelkom iskusstve M. 1982
9. Kovalev. A.F. Osnovi xudojestvennogo oformleniya shkoli .Minsk 1977.
10. Smirnov S.I. Shrift i shriftovoy plakat. M.:1978.
11. Yablonskiy V.A. Oborudovaniye kabineta risovaniya i osnovi kompozitsii. M.:1983.
12. Smagova YE. Sovremennoy texnika kak sredstva oformleniye prazdnikov. T. 2009
- 13.Malikova T.Ukrasheniye vozdushnimi sharami. Sovrem texnika.
- 14.Fayzullayev.O. “Naqqoshlik mening hayotim” nomli kitobi T..2007 yil -75 bet
15. Baklanov YE.Feyerverka emotsiy. Zrelishi.M.2009g
- 16.Zadorskiy A.L. Vse o texniki jurnal M. 2009 g.
17. O‘zbekiston tasviriy sanati. –T.: G‘. G‘ulom nashri, 1976 .
- 18.Sosnovskaya A.G. Xudojniki teatr i kino. –T.: G.Gulyam, 1982.

19.Berezkin E. Xudojnik v teatre Chexova. –M., 1987 .

20.Sbornik. Xudojnik i zrelish.M., 1990.

21.Sappak V. Televideniye i mi.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. //Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.

2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. 2017 yil

3. Mirziyoyev Sh.M.Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash-yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. 2017 yil

4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va faravon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda quramiz.2017 yil

5. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha HAKAKATLAR STRATEGIYASI.

6. Karimov I.A. Ma’naviy yuksalish yo‘lida. –T.: O‘zbekiston,1998.

7. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat. – yengilmas kuch. –T.: Ma’naviyat, 2008.

8.O‘zbekiston Respublikasi «Ta’lim to‘g‘risidagi va kadrlar tayyorlashning milliy dasturi" haqidagi Qonuni, o‘zbekiston 1998 yil.

MUNDARIJA

Kirish	5-11
1-bob.Madaniy tadbirlarni badiiy bezash fanining maqsadi, mazmuni va vazifalari	
1.1.Madaniy tadbirlarni badiiy bezash ishlarini tashkil etish va amalga oshirish.....	11-32
1.2. Badiiy bezak ishlarida dekorativ o‘simliklar, gullar va matolardan foydalanish	32-51
1.3. Bayram bezaklari va spektakil sahnalarida badiiy tasvir prinsiplari	51-71
2-bob. Bayram tadbirlarida ko‘chalarni bezatishda ko‘rgazmalar, bannerlar, afishalar va bayram reklamalari	
2.1. Ko‘chalarni bezatishda ko‘rgazmalar va reklama bannerlardan foydalanish. (bayram ko‘rgazmalari, reklamalar, rangli chiroqlar).....	71-81
2.2. Madaniy tadbirlarni bezatish ishlarida zamonaviy texnik vositalardan foydalanish.....	81-90
2.3. Ko‘ngil ochar tadbir va bayramlarda badiiy bezash ishlari.....	90-102
3-bob. Ommaviy bayramlarni bezatishning o‘ziga xos xususiyati	
3.1. Ommaviy tomosha maydonlari sport va ko‘ngil ochar tadbir va bayramlarda badiiy bezash ishlarining o‘ziga xos xususiyatlari	102-121
3.2.Madaniy tadbir dekoratsiyalari, teatr va bayram maskalar.....	121-131
3.3. Badiiy bezashda ishlatiladigan materiallar.....	131-147
Test	148-160
Glossariy	161-171
Tarqatma materiyallar.....	171-194
Amaliy mashg‘lotlardan namunalar.....	195-214
Xulosa.....	215-216
Foydalanilgan adabiyotlar royxati.....	217-218
Mundarija.....	219